

T.B. AHMEDOV, K.G'. MAVLYANOV



TARIKSHUNOSLIK, MANBASHUNOSLIK, SHAJARA VA GERALDIKA



XII—XVI ASRLARDAGI ROSSIYA SHAHAR GERBLARI



Volsk



Grodno



Danilov



Barguzinsk



Kovrov



Korcheva



Lyubim



Verxneuralsk



Mezen

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi
Kengash nashrga tavsiya etgan*

Taqrizchilar:

Yu. Mamazoitova — tarix fanlari nomzodi, dotsent,

Z. Rahmatova — Respublika rassomlik kolleji san'at tarixi o'qituvchisi

Tarixshunoslik, manbashunoslik, shajara va geraldika san'atiga yo'naltirilgan ushbu qo'llanma o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining rassomlik kolleji o'quvchilari hamda san'atshunoslik yo'nalishidagi muzeyshunos mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

A 0502000000-130 — 2007
360/04/-2007

ISBN 978-9943-05-141-6

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007- y.

KIRISH

O'zbekistonning eng qadimgi tarixi haqida moddiy madaniy yodgorliklari va arxeologik topilmalar ma'lumot beradi. Mil.av. 1- ming yillikka oid yozma manbalar zardushtiylarning muqaddas kitobi Avestoda, axomaniylar davridagi yozma manbalarda keltirilgan. Asrlar davomida O'zbekiston siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayoti tarixi haqidagi ma'lumotlar tarixchilar, xonlar, podshohlar tomonidan yozilgan qo'lyozma manbalar shaklida jamlana bordi.

O'rta asrlar tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar davri tarixi, ayniqsa, mufassal yoritilgan. O'sha davrlarda yaratilgan «Temur tuzuklari», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlarida Amir Temur va temuriylar saltanatining tashkil topishi, ichki va tashqi siyosati, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu qo'llanma VII bobdan iborat bo'lib, I bobda tarixshunoslik fani, bu fanning maqsad va vazifalari qisqacha yoritilgan. Shuningdek, tarixshunoslik bo'yicha tarixiy manbalar, tarixshunos olimlar yaratgan ayrim asarlarning mazmuni, o'tmishda kechgan va bugungi kunda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning odamlar ongida qanday aks etishi hamda jamiyat tarixiy rivojining turli bosqichlarida tarixiy bilimlarning o'sib borish jarayoni haqida ma'lumotlar berilgan.

Qo'llanmaning «Manbashunoslik» bobida bu sohadagi dunyoviy va ijtimoiy bilimlar jamlangan manbalardan namunalar yoritilgan.

«Shajara» bobida shajara haqida umumiy tushuncha, uning insoniyatning ijtimoiy hayotida tutgan o'rni, shu soha bo'yicha olimlar tomonidan yaratilgan qimmatli manbalar, shuningdek, Amir Temur va temuriylar, xorazmshohlar shajarasi hamda

o'sha davrlardagi O'rta Osiyo shajarasiga oid asarlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Dastlab XIII–XIX asrlarning 1- yarmigacha dvoryan, sex va yer mulklarining gerblarini tuzish bilan geroldlar shug'ullanganlar. XIV asrdan boshlab gerbchilar ustaxonasi tashkil topgan, unda murakkab va rangli gerblar yaratilgan.

Ushbu qo'llanmaning «Geraldika» bobida ana shu davrlardagi tarixiy yodgorliklar, davlat bayroqlari, pul va tangalardagi hamda harbiy qurollarga tushirilgan gerb tasvirlari mufassal yoritilgan. Shuningdek, Yevropa davlatlari hamda Rossiyadagi geraldikaning me'morchilik va amaliy san'atda qo'llanilgan turlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Qo'llanmaning oxirgi bobida respublikamiz hududidagi moddiy madaniy yodgorliklar, shu jumladan, gerbli va ramzli yozma manbalar haqida ma'lumotlar taqdim etilgan.

Qo'llanmaning oxirgi sahifalarida o'quvchilar mavzularga oid rasmlar bilan tanishishlari mumkin.

Tarixshunoslik predmetining maqsad va vazifalari

Tarixshunoslik — tarix fanining tarixini, tarixiy bilimlar taraqqiyotini, muayyan tarixiy bosqichda yaratilgan ilmiy mahsulotlarni yoki ma'lum bir muammoga bag'ishlangan tarixiy tadqiqotlarni o'rganuvchi va tahlil qiluvchi fan. Tarixshunoslik nafaqat tarix, balki maxsus tarix fanlari (sharqshunoslik, (epografiya) etnologiya, arxeologiya va boshqa) tarixi bilan ham shug'ullanadi. Tarixshunoslikning asosiy vazifasi tarix fani rivojini chuqur o'rganish va har tomonlama xolisona anglash, muayyan taraqqiyot davrida to'plangan tarixiy bilimlarni tahliliy tadqiq etish, amalga oshirilgan ishlarning natijasini chiqarib, shu asosda dolzarb muammolarni aniqlash, kelgusi tadqiqotlarning yo'nalishlarini belgilash va tarixchilarni muayyan tarixiy-ilmiy muammo doirasidagi adabiyotlarga yo'naltirishdan iborat. Tarixshunoslik o'tmishda kechgan, bugungi kunda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning odamlar ongida aks etishini, tarixiy adabiyotlar orqali ijtimoiy-tarixiy rivojlanishni, jamiyatning rivojlanish jarayonini turli bosqichlarda kuzatish imkonini beradi. Ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy muhitning tarix faniga ta'sirini, u yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish va tanazzulga yuz tutish sabablarini aniqlaydi. Tarixshunoslik, shuningdek, fan taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan ilmiy tadqiqot markazlari tarixini, unda faoliyat ko'rsatgan ilmiy kadrlarning salohiyati, ularning fan rivojiga qo'shgan hissalarini o'rganish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Tarixshunoslik tadqiqotlarining bir qancha tahliliy usullari mavjud:

— *qiyosiy tarixiy usul* turli tarixiy davrlarda tarixiy ma'lumotlarning paydo bo'lishi, harakati, o'zgarishi va

rivojlanishi, jamiyat taraqqiyotida tarixiy fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonini aniqlashda qo'llaniladi;

— *aniq tahliliy usul* tarixshunoslik tadqiqoti, voqea-hodisalar tafsilotining kelib chiqish sabablari, rivojlanish jarayonini nazariy va faktik materiallarining o'zaro aloqasini tahlil qiladi;

— *mantiqiy tahliliy usul* tarixshunoslikda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, tarixiy muammolarning o'ziga xos xususiyatlarini, tuzilishi, boshqa tarixiy hodisalar bilan bog'liqligini o'rganishda qo'llaniladi¹, boshqacha aytganda, ma'lum bosqich yoki davrda tarix fanining rivojini jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishi bilan bog'liqlikda ifodalaydi;

— *xronologik usul* voqea-hodisalar haqida turli bosqich yoki davrda to'plangan tarixiy faktlarni o'zaro bog'liqlikda o'rganishda qo'llaniladi. Bu esa turli zamonda ilmiy fikrlarning harakatini, muammoga yondashuvda konsepsiyalar, qarashlar, g'oyalarning o'zgarib borishini xronologik tartibda takroriy yoki xilma-xil jihatlarini ochib beradi;

— *davriylashtirish usuli* ma'lum bir tarixiy davriy chegarada tarix fanining sifat, uslub va xususiyatlarining o'zgarishiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ta'sirini, har bir yangi bosqichda vujudga kelgan ilmiy g'oyalarni harakatlantiruvchi omil va yo'nalishlarni aniqlaydi;

— *retrospektiv tahlil* har bir ilmiy adabiyotning o'z davriga taalluqli kuchli va kuchsiz jihatlarini o'zida aks ettiradi. Tarixshunoslik tadqiqotlarda tadqiqotchi vazifasi o'zidan avvalgi bosqichlarda yaratilgan ilmiy asarlarni zamonaviy bilimlar nuqtai nazaridan o'rganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tarixshunoslik tarix faniga nisbatan yangi fan hisoblanadi. O'rta asrlarda, jumladan, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» va «Hindiston», Abu Bakr Narshaxiyning «Tarixi Buxoro», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Boburning «Boburnoma», Muhammad Yusufbek Bayoniyning «Tarixi Xorazm» va «Shajarai Xorazmshoxiy», Ahmad Donishning «Buxoro amirlarining

¹ «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi». 8- jild. T., 2004.

tarjimai hollari» va boshqa muayyan ma'lumotlarni umumlashtirishga hamda tarixiy jarayonlar bayonida tahliliy yondoshuvga bo'lgan harakatlar kuzatiladi. O'zbekistonda tarixshunoslik tarix fanining maxsus sohasi va alohida tadqiqot predmeti sifatida XX asrning 2- yarmida shakllandi. Mamlakatimizda O'zbekiston FA Tarix instituti tashkil topgach, bir qator tarixshunoslar, jumladan, V.Ya.Nepomnin, R.K.Nabiyev, I.K.Dodopov, L.M.Landa, X.I.Inoyatov, B.V.Luninlar muayyan muammolarning tarixshunosligini tadqiq qilishga kirishdilar.

1968- yili Tarix instituti qoshida «Tarixshunoslik» sektori, keyinroq bo'lim tashkil etilishi bu sohaning rivojiga katta hissa qo'shdi. O'zbekistonda tarixshunoslik fani ilmiy maktablariga B.V. Lunin, G.I. Jeltova, F.Q. Qosimov, R. Rajapova, D.A. Alimova kabi olimlar asos solishdi.

Tarixshunoslik tadqiqotlari mustaqillik yillarida ancha kengaydi. 5 ta doktorlik, 20 dan ortiq nomzodlik ishlari himoya qilindi. Ayniqsa, xorijiy tadqiqotchilar (AQSH, Koreya, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya) O'zbekiston tarixshunoslari bilan ilmiy-amaliy aloqalar o'rnatib, O'zbekiston tarixshunosligining muhim muammolarini o'rganishda davom etmoqdalar.

Tarixiy voqea-hodisalarni, ayniqsa, yurtimizning tarixi bilan bog'liq dunyo ahamiyatiga ega bo'ladigan tariximizning ochilmagan qirralarini xalq orasida yoyishga intilayotgan olimlarimiz ham yetarlidir. Shular qatorida akademik I. Mo'minov «Tuzuklar»ning N. Ostroumov nashri (1894) faksimilyesini e'lon qildirdi (1968), Alixonto'ra Sog'unliy ushbu nodir asarni ona tilimizga tarjima qilib, «Guliston» jurnalida (1967) chop ettirdi. Bu «Temur tuzuklari»ning sho'ro davrida amalga oshirilgan birinchi tarjimasi edi. Ana shunday ilk qadamlar Amir Temur nomi qatag'on qilingan davrdagi chinakam matonat namunasi sifatida ardoqlanishga arziydi.

Mustaqillik yillarida «Temur tuzuklari»ni o'rganish faqat asliyatda emas, balki boshqa tillarda ham chop etishda katta harakatlar olib bora olgan tarixchi olimimizdan biri akademik Bo'riboy Ahmedov xizmatlari ulkan bo'ldi. Olim «Temur

tuzuklari»ning 1991,1996- yillardagi nashrlariga batafsil soʻzboshi yozdi hamda ularga keng mazmundagi izohlarni ilova qildi.

Asar ikki maqoladan iborat boʻlib, birinchi maqola Sohibqiron hayotining eng eʼtiborli voqealaridan tashkil topgan, u tarix hujjatiga aylanganligi bilan qadrlidir.

Qisqa, sodda, tushunarli tilda yozilgan bu voqealar Gʻiyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy asarlari singari ishonchli manbalarga mos tushadi. Ikkinchi maqola esa davlat qonunlaridan, yaʼni tuzuklardan tashkil topdi. Mazkur tuzuklar saltanatning barpo boʻlishi yoʻlida hayotning oʻzi keltirib chiqargan hayotbaxsh qonunlar majmuasi ediki, ular bugungi kunga kelib ham ulkan ahamiyatga egadir.

Birinchi maqola quyidagi soʻzlar bilan yakunlanadi: «Yetti yillik urushdan soʻng zafar quchib Samarqandga qaytdim». Bu sana milodiy 1404- yilning kuz oylariga toʻgʻri keladi. Demak, buyuk obidamiz boʻlgan «Temur tuzuklari»ning yozilganiga olti yuz yil toʻldi. Bu madaniyatimiz tarixida ulkan hodisa hisoblanadi.¹

Mazkur asar Oʻzbekiston tarixshunosligida va manbashunosligida yaratilgan nihoyatda bebaho durdona ekanligi koʻp bor taʼkidlangan.

Asar mundarijasiga nazar solinib, manbadagi maʼlumotlar mazmunini qisqacha tahlil qilish mumkin: jumladan, asarning birinchi maqolasida tadbirlar va kengashlar, Tugʻluq Temurxon bilan boʻlgan birinchi kengash, davlat qurish oldidan qilingan ikkinchi kengash, oʻz saltanatini tuzish yoʻlidagi uchinchi kengashi, saltanat tuzilgandan keyingi ilk toʻrtinchi kengash, xuruj kunlari qilgan beshinchi, oltinchi, yettinchi kengashlari, saltanatni tiklash, mustahkamlash, uni rivojlantirish uchun qilgan kengashlari, lashkarni ittifoqqa keltirish uchun qilgan kengashlari, Jeta va Ilyosxoʻja lashkariga qarshi qilgan kengashi, Amir Temurni qoʻlga tushirmoqchi boʻlgan Amir Husaynning makru hiylalaridan qutulish uchun qilgan kengashlari, Turon zaminini oʻzbeklar toifasi qoldiqlaridan tozalash uchun qilgan kengashi,

¹ «Temur tuzuklari». T., Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2005 3–9- betlar.

Amir Temurga turli yomonliklar qilib, qilmishidan qo'rqib, vahimada bo'lganlarni o'ziga el qilib olish uchun qilgan kengashlari, Xuroson poytaxti (Xirotni) olish bobidagi kengashi, Seiston, Qandahor va Afg'oniston mamlakatlarini zabt etish borasidagi kengashlari, O'rusxonni bartaraf qilish va Dashti qipchoqni bosib olish uchun qilgan kengashi, Gilon, Jurjon, Mozandaron, Ozarbayjon, Shirvon, Fors va Iroq mamlakatlarini zabt etish bobida qilgan kengashlarini, fors poytaxti (Sheroz)ni va Iroqning qolgan qismini zabt etish bobidagi kengashi, To'xtamishxonga shikast yetkazish bobidagi kengashi, Dorrussalom (Bog'dod)ni va Iroqni zabt etish to'g'risidagi kengashi, Hindistonni zabt etish uchun qilgan kengashi, Hindistonga olib boradigan yo'lni afg'onlardan tozalash uchun qilgan kengashi, Gurjistonni egallash uchun qilgan kengashi, Misr va Shom (mamlakatlari)ni fath etish uchun qilgan kengash, lashkarni sindirish borasidagi kengashlari natijasida qo'lga kiritgan yutuqlari, xolis xudo, Qur'onni tilga olib qilgan kengashlarining g'alabaga sabab bo'lganligi haqida qayta-qayta ta'kidlanadi.

O'zbek davlatchiligi tarixining tashkil topishi

O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi¹ asrimizning 90- yillari boshiga qadar nafaqat o'zbek tarixshunosligida, balki umuman zamonaviy tarix fanida ham alohida bir ilmiy yo'nalish sifatida mavjud bo'lmagan. Buning bosh sababi, eng avvalo, sho'ro zamoni tarixshunoslik fanidagi kommunistik mafkuraning hukmronligi va yevrosentrizmning ta'siridir. Shu sababdan ham yaqin yaqingacha o'zbek davlatchiligi mavzusi inkor qilib kelingan. Vaholanki, o'zbek davlatchiligi mavzusini tarixshunoslikda alohida yo'nalish sifatida qabul qilish va rivojlantirish uchun barcha ilmiy asoslar mavjud edi. Biz bu yerda arxeologik izlanishlar natijasida topilgan moddiy ashyolar, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tarixini aks ettirgan turli tillardagi (turkiy, eroniy, arab, xitoy, hind, armani, suryoniy, lotin,

¹ Azamat Ziyov. «O'zbek davlatchiligi tarixi». T., Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2001.

rim va h.k.) birlamchi yozma manbalar, xalq og'zaki ijodi namunalarini va, albatta, davlatchilik mavzusini o'rganishning nazariy uslubiylatini nazarda tutmoqdamiz.

Xullas, o'zbek davlatchiligi mavzusini yoritish uchun zarur yozma manbalar ko'lami nihoyatda keng va mazkur yo'nalish har tomonlama, chuqur va uzluksiz tadqiq etilishi uchun yetarli darajadadir. Ushbu manbalar asosida tadqiqotchi davlatchilik tarixi boshlangan ilk zamonlar ijtimoiy-siyosiy manzarasini, voqealar rivojini kuzatishi mumkin.

Manbalarning turli tillarda, turli millatlar, siyosiy manfaati har xil bo'lgan tomon vakillari tarafidan yozilgani mavzuga oid masalalarni o'rganib xulosa qilishda ilmiy xolislikni saqlash imkonini beradi.

Tadqiqot geografiyasi hozirgi kunda O'zbekiston davlati hududlaridan tashqariga chiqib ketgani tabiiydir. Chunki, birinchidan, 1925- yilda sho'ro hukumati tomonidan zo'rvonlik yo'li bilan o'tkazilgan ma'muriy chegaralar to o'sha yillargacha bo'lgan o'zbek xalqi tarixi, jumladan, davlatchilik tarixining geografik kengligiga mos kelmaydi; ikkinchidan, turli ming yilliklarda savdo, siyosiy, iqtisodiyot, madaniyat markazi va davlat poytaxtlari bo'lib kelgan Xorazm, Buxoro, Samarqandga hozirda biz O'rta Osiyo deb bilgan mintaqadan tashqaridagi hududlar bo'ysungan va yagona davlat, saltanat tarkibiga kirgan; uchinchidan, tashqi tajovuzkorliklarga qaramlik yo bo'lmasa, mintaqadan tashqaridagi, o'zining mustaqil siyosiy qurilishiga ega bo'lgan o'zbek davlatchiligi tarixiga «passiv» ta'siri bo'lgan hukmron sulolalar, siyosiy birliklar ham bo'lgan. Shu sabablarga ko'ra tadqiqot geografiyasi Kaspiy dengizidan Hindistongacha, Sharqiy Turkistondan Erongacha bo'lgan katta hududni qamrab olgan.

Arxeologik izlanishlar, yozma guvohliklarni tahlil qilish hamda qadimgi davr davlatchiligi talablarini inobatga olib, o'zbek davlatchiligining ilk asosi bundan 2700 yil oldin, ya'ni miloddan av. I- ming yillikning VII asrida ko'hna Xorazmda bunyod bo'lgan, degan xulosaga kelindi. Zero, birinchidan, ayni shu davrda Xorazmda mavjud bo'lgan yirik sun'iy sug'orish inshootlarini bunyod etish, ta'mirlash, nazorat qilish va nihoyat,

ulardan foydalanish uchun katta kuch, safarbarlikni talab qiladigan siyosiy tizim mavjud bo'lishi kerak edi. Ikkinchidan, voqealar bayoni ayni I ming yillikning birinchi yarmiga to'g'ri keladigan, vatani Xorazm hisoblanmish eng ko'hna manbalardan «Avesto»ga ko'ra bu paytda siyosiy, harbiy, mafkuraviy boshqaruv tizimi nafaqat alohida viloyat doirasida, balki ana shunday viloyatlardan iborat to'g'ridan-to'g'ri davlat tushunchasi bilan bog'lash haqiqatga mos tushadi. Uchinchidan, mintaqa atrofida, chunonchi, hozirgi Eron, Hindiston hududlarida xuddi shu davrda davlatchilik asoslari mavjud bo'lgani uchun ushbu jarayon Xorazm yerini chetlab o'tishi mumkinligi xususida fikr qilish g'ayriilmiydir. Zero, yonma-yon joylashgan va keyingi ming yilliklar tajribasidan kelib chiqsak, bir-biriga ta'siri doimo sezilarli bo'lgan mamlakatlarda, ayniqsa, Turon va Eronda davlatchilik an'analari taxminan bir vaqtda shakllangani mantiqlidir. To'rtinchidan, uzoq davrlardan buyon dehqonchilik an'analari, hunarmandchilik madaniyati miloddan av. II ming yillikka borib taqalgan. Hozirda ham barhayot Samarqand, Buxoro, Xiva, Quva kabi shaharlarning ibtidosi miloddan av. VIII—IV asrlarga tutash mamlakatda davlatchilik an'analari shu qadar qadim bo'lishi tabiiy.

Milod boshiga qadar o'zbek davlatchiligi rivojida Yer yuzida ilk davlatchilik o'choqlaridan bo'lmish Yaqin va O'rta Sharqdagi makonlarda (Misr, Jazira, Finikiya, Falastin, Suriya, Eron va boshqalar) Hindiston, Xitoy, Yunonistondagi jarayon yuz bergan. Biz alohida viloyat, ichki mintaqa, hatto shahar darajasidagi davlatchilik munosabatlarini nazarda tutmoqdamiz. Shuning uchun to kushoniylar zamoniga qadar Xorazm, Baqtriya, Parfiya, Farg'ona, Tohariston davlat birliklari ko'p hollarda alohida faoliyat ko'rsatganlar. To'g'ri, mazkur qatorda Xorazmning mavqei, boshqalarga ta'siri sezilib turgan. Ammo kushoniylar hukmronligi davridan boshlab davlat hokimiyatini bir markazdan turib butun mintaqa va hatto undan tashqariga ham tarqatish tamoyili ko'zga tashlanadi. Boshqacha aytganda, miloddan bu yog'iga davlatchilik, saltanatchilik sifati amalda namoyon bo'ladi.

Milodiy I asrda kushoniylarning hokimlikka kelishi va ularning namoyondalari sa'y-harakati bilan mintaqadagi deyarli barcha siyosiy birliklar, makonlar va hatto qo'shni mamlakatlarning siyosiy birikishi o'zbek davlatchiligi tarixida saltanatchilik bosqichini ochgan. Kushoniylar shimolda Shosh, sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Eron, janubda Shimoliy Hindistongacha bo'lgan ulkan hududning birlashishiga erishganlar. Keyinchalik bu an'ana eftaliylar, somoniylar, anushtegiylar, temuriylar, ma'lum ma'noda shayboniylar hukmronligi yillarida davom etdi.

Saltanatchilikning o'ziga yarasha ijobiy va salbiy oqibatlari bo'lganini ta'kidlash lozim. Mamlakatning birlashtirilishi hududiy yaxlitlikni ta'minlash, savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, moddiy aloqalarni jadallashtirish, xalqaro maydonda izchil va faol siyosat yuritishda, shubhasiz ijobiy ahamiyat kasb etgan. Ammo turli ichki va tashqi omillar sabab yuz bergan saltanatning parchalanishi oqibatida sulolalar almashuvi bir necha o'n, yuz yillarda shakllangan an'analarning o'zgarishi sodir bo'lgan. Bunday holat hamma vaqt ham yaxshilik bilan tugamagan. Masalan, temuriylar saltanatining parchalanishi va shayboniylarning hokimiyatga kelishi fikrimiz dalilidir.

O'zbek davlatchiligi Rossiya bosqiniga qadar quyidagi tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan:

— *milodgacha bo'lgan davr*. Mazkur bosqich asosiy mezoni «mayda» davlat birliklaridan farqli o'laroq, davlat tizimining butun hududni qamrab olishi, mazkur holatning qat'iylashishi boshlangan kushoniylar hukmronligi aynan yangi milod ibtidosiga to'g'ri kelishi bilan bog'liqdir;

— *milod boshidan islomgacha bo'lgan davr*. Bu bosqichning asosiy chegarasi yurtimizga musulmonchilikning kirib kelishidir. Zero, islom omili o'tmish asrlarga qarshi o'laroq, jamiyat boshqaruvining yagona mafkurasini shakllantirdi. Shuningdek, atrof o'lka va davlatlarning mafkurasini ham aynan musulmonchilik asoslaridan iborat bo'lib qolgan edi. Nafaqat bizning, balki ko'plab xalqlar tarixida islomning o'rni va ta'sirini hisobga olsak, davlatchiligimiz tarixida islom xuruji

davrining chegarasini tortish zarur, deb hisoblaymiz. Chunki Arab halifaligi davrida o'zaro ta'sirlanish jarayoni kechgan.

— *X–XIII asrlar (mo'g'ullar bosqiniga qadar)*. Mazkur davrni davlatchiligimiz tarixidagi o'ziga xos «oltin davr» deyish mumkin. Boshqaruvning klassik shakllarining yuzaga kelishi, siyosiy-iqtisodiy munosabatlar, ilm-fan rivoji (ilk Uyg'onish davri), xalqaro munosabatlarda tutilgan katta mavqe, bularning barining Chingizxon bosqini oqibatida zavol topishi bu davrni alohida tarixiy bosqich sifatida belgilashni taqozo etadi.

— *Amir Temur va temuriylar davri*. Amir Temurning, umuman, temuriylarning davlatchiligimiz tarixida alohida o'rni bor. Ayniqsa, Amir Temur hukmronlik qilgan yillarda mamlakatimiz butun dunyoning siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-madaniy markaziga aylandi.

— *XVI–XIX asrlar (Rossiya bosqiniga qadar)*. Ushbu davr davlatchilik asoslarining zaiflashib, ichki va tashqi siyosatda ilgarigi zamonlarda erishilgan marralarning, shakllangan an'analarning oxir-oqibatda Rossiya qaramligiga tushib qolishi bilan xarakterlidir.

Bizningcha, Amir Temur davlati, somoniylar, kushoniylar davlati kabi atamalar nisbiydir. Davlatchilik an'analari, asoslari mohiyat e'tibori biron-bir shaxsga yo sulolaga aloqador bo'lmaydi. Davlatchilik asosini jamiyat, xalq tashkil qiladi. Muayyan bir shaxs, sulola yo hozirgi ibora bilan aytganda, siyosiy kuch — partiya davlatni vaqtincha boshqarishi mumkin. Shuning uchun ham biz o'zbek davlatchiligining kushoniylar, eftoliylar, temuriylar, shayboniylar, yo bo'lmasa Amir Temur, Ismoil Somoniy boshqargan davr, tartibida ilmiy muomalaga kiritish tarafdorimiz. Aynan shunday yondashuvgina o'zbek davlatchiligi tarixini uzluksiz bir jarayonda o'rganish, yoritish imkonini beradi. Eng muhimi, davlat va millat omillarini o'zaro uyg'unlashtirish, davlatchilikni shakllantirish, rivojlantirishdagi millatning rolini, milliy taraqqiyotdagi davlat ahamiyatini baholash mumkin bo'ladi. Davlat va davlatchilikning o'z milliy egasi paydo bo'ladi.

O'zbek davlatchiligining 2700 yillik taraqqiyot yo'li yana bir bor, umuman, kishilik jamiyati tarixidagi haqiqatni isbotlaydi. U ham bo'lsa, tarixda shaxsning roli. Yakka hukmronlik asosida

qurilgan davlatchilik rivojida shaxsning roli nihoyatda yuqoriligini biz Amir Temur, Ismoil Somoniy, Sulton Muhammad Xorazmshoh, Abdullaxon va boshqa tarixiy shaxslar misolida yaqqol ko'rdik. Bir so'z bilan aytganda, buyuk shaxslar biz ta'kidlagan davlatchilik sharoiti ichki va tashqi siyosatida ham oldingi, ham keyingi davrlarga nisbatan favqulodda yutuq va marralarga erishishlari mumkin edi. Shu bilan birga xuddi shunday sharoitda alohida iste'dod va salohiyatga ega bo'lmagan siyosatchilar faoliyati orqasida o'tgan yillarda yig'ilgan imkoniyatlar qo'ldan boy berilishi ham muqarrar ekan. Bundan chiqadigan xulosa, davlat va jamiyat boshqaruvida alohida shaxs iste'dodi va salohiyatigagina bog'liq bo'lib qolgan tizimdan farqli o'laroq, jamiyatning o'z-o'zini boshqaruv tizimini yaratishdir.

Jamiyatni qonunlar asosida boshqarish borasida o'zbek xalqi ko'p asrlik tajriba va an'analarga egadir. V–VI asrlardayoq ijtimoiy munosabatlarni boshqarishda tuzuklarning o'rni alohida bo'lgan, islom xurujidan keyingi zamonlarda fiqhshunoslikning nazariy rivoji va amaliy qo'llanishi, qonunchilik, huquqshunoslik tushunchalari o'zbek jamiyati uchun yangilik emasligini ta'kidlash joizdir.

Davlat boshqaruvidagi hokimiyat taqsimoti an'anasi ham asli o'zbek xalqi uchun tarixiy yangilik emas. Bundan ming yil burun, ya'ni X asrdan boshlab to mo'g'ullar bosqiniga qadar o'zbek davlatchiligida qonun chiqaruvchi idora — dargoh va ijroiya idorasi — devonlar tizimi mavjud bo'lgan. Demak, hokimiyat taqsimoti jarayoni o'zbek zaminida o'n asr muqaddam boshlangan. Chingiziylar hukmronligi (1221–1370) yillarida ushbu tizim barbod bo'lgan bo'lsa-da, Amir Temur uni tiklashga erishdi. Ammo shayboniylar hukmronligidan boshlab mazkur tizim va an'ana nurab, o'z mazmunini butunlay yo'qotib borgan. Bunga sabab shayboniylarning aslida ko'chmanchi madaniyat vakillari bo'lganliklaridir.

Zero, hokimiyat taqsimoti an'anasi o'troq xalqlar davlatchiligiga xosdir. Siyosiy onglari tamomila o'zga sharoitda shakllangan, suyanib turgan kuchlari ham ko'chmanchi muhit vakillari bo'lgan shayboniylar uchun temuriylar zamonida shakllangan boshqaruv tizimi begona edi. Shuning uchun ham

ular hokimiyatni bir yerda, ya'ni dargohda markazlashtirishga zo'r berganlar. Keyingi sulolalar davrida ushbu tamoyil yanada mustahkamlanib bordi. Ta'bir joiz bo'lsa, XVI asrdan boshlab davlat boshqaruvi an'analarida orqaga qaytish jarayoni kechdi.

O'zbek xalqi tarixidagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy rivojlanishda, xalqaro miqyosda katta mavqega erishishda, umuman, har sohadagi yutuqlarda davlatning ahamiyati, ta'siri, o'rni beqiyos bo'lib kelgan. Shu sohalardagi jarayonlarni shakllantiradigan, boshqaradigan ham davlat edi. Buni biz jamiyatimiz har jihatdan yuksalgan Amir Temur davridagi o'zbek davlatchiligining nufuzi orqali ko'rishimiz mumkin va, aksincha, Rossiya bosqini arafasida siyosiy tarqoqlik sharoitida davlat asoslari nihoyatda susayib ketgan edi. Harbiy qudratni zamonaviy asosda tutish, iqtisodni mustahkamlash, ilm-fanni rivojlantirish, jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan milliy manfaat yo'lida foydalanishni tashkil qilolmagan siyosatchilar sababli qachonlardir buyuk bo'lgan davlat zaiflashib, hatto mustamlakaga aylanib qolgan.

Nazorat savollari

1. *O'zbek tarixshunosligining kelib chiqishini gapirib bering.*
2. *Tarixshunoslik fani nimani o'rgatadi?*
3. *Tarixshunoslik tarixni o'rganishda nimalarga tayanadi?*
4. *Tarixshunoslikning o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishdagi roli qanday?*
5. *O'zbek davlatchiligi Rossiya bosqiniga qadar qanday davrlarni bosib o'tgan?*

Manbashunoslikning tarixshunoslikda tutgan o'рни

Manbashunoslik – tarixiy manbalarni izlab topish, qayd etish, to'plash, o'rganish va qo'llanish nazariyasi hamda amaliy usullari haqidagi fan. Manbashunoslik tarixshunoslikda yordamchi fan sifatida fan sohalari (arxeografiya, arxivshunoslik, geneologiya – nasabshunoslik, meteorologiya – o'lchovshunoslik, epigrafika, tekstologiya – matnshunoslik, xronologiya – davrshunoslik, geraldika – gerbshunoslik, numizmatika – tangashunoslik va sfragistika – muhrshunoslik) qatorida yetakchi o'rinda turuvchi alohida ilmiy soha. Manbashunoslikning bevosita tadqiqoti yozma manbalar ustida bo'lsa-da, ammo uning asosiy ilmiy va amaliy uslubi tarixiy qadriyatlarning barcha turlarini o'rganishda va tanqidiy tahlil etishda qo'llaniladi.

Manbashunoslik ikkita: *amaliy* va *nazariy* manbashunoslikka bo'linadi. Amaliy manbashunoslik tarixning ayrim soha va yo'nalishlari hamda davr va bosqichlari bilan shug'ullanib, izlab topilgan tarixiy manbalarni arxiv, muzey va kutubxonalarning maxsus xazinalarida to'plash, ta'mirlash va ta'riflash kabi ishlarni amalga oshiradi. Nazariy manbashunoslik tarixiy manbalarning yaratilishi va ularda tarixiy voqeliklarning rivojlanish jarayonlarini aks ettirish tartibi, usullari, axborotlarning tarkibi va joylashish xususiyatlarini tadqiq etadi. Manbashunoslikning nazariy masalalari, asosan, yozma manbalar zaminidagi tarixiy asar va hujjatlarga binoan hal etiladi.

Tarixiy manbalar tadqiqoti jarayonida quyidagi masalalar belgilab olinadi: qo'lyozma asarlar hamda hujjatlarni topish va ajratib olish; asosiy matnni va so'nggi yoki qo'shimcha ilovalarni belgilash, manbaning yuzaga kelishi, asliy yoki ko'chirma nusxaligini aniqlash; manbashunoslik jihatidan qo'lyozma matnining to'liqligi, unda berilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi

hamda bitilgan davrni belgilash. Har qanday mavzu yoki tarixiy voqelik bayoni manbashunoslik jihatidan keng qamrovlik va mukammallikni taqozo etadi. Shu boisdan tarixiy manbalarning yaratilishi, davrning aniqligi manbashunoslikda muhim ahamiyatga molikdir. Chunki yozilgan yoki ko'chirilgan vaqti qayd etilmagan asarlar tamaddun tarixi davomida uchraydi. Bunday holat, ayniqsa, qadimgi dunyo va o'rta asrlar yozma yodgorliklariga xosdir.

Yozma manbalarning yuzaga kelishi tarixini o'rganish borasida asarning yili, yozilish uslubi, matnda uchraydigan davr va sanalar, og'irligi va uzunlik o'lchamlari,¹ pul birliklari, geografik nomlari hamda shaxsiy ismlarni belgilash manbashunoslikda, ayniqsa, muhimdir. Chunki tarixiy asarlarning aksariyatida muallifi tomonidan ma'lum darajada tuzatishlar yoki qisqartirishlar kiritilgan bo'lishi, keyinchalik esa muharrir-tarjimonlar yoki tegishli nazoratchilar tomonidan qandaydir o'zgartirilgan yoki boshqa tilga tarjima qilingan bo'lishi, natijada esa matn, mazmun va g'oyaviy yo'nalish jihatidan o'zgacha nusxalari paydo bo'lishi mumkin. Shu boisdan tarixiy manba muallifi, tarjimoni va kotiblarini aniqlash muhim ahamiyatga molikdir. Manbalarning asliy va ko'chirma nusxalarining yaratilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan muarrirlarni belgilab olish orqali tarjimalarning qanchalik asliga monandligi hamda ularda keltirilgan tarixiy atama, nom va sanalarning haqqoniyligi aniqlab olindi.

Manbashunoslik ko'p asrlik tarixga ega. Amaliy manbashunoslik dastavval Sharqning Misr va Mesopotamiya kabi qadimgi madaniyat o'choqlarida qadimgi podsholiklar (Misr, Shumer, Akkad va Ossuriya) va ularning boshqaruv tizimlari shakllanayotgan davrlarda yuzaga kelgan. Manbashunoslikning ilk omillari dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq kabi xo'jaliklarning kengayib rivojlanishi paytida hayotiy ehtiyojlar yaratgan eng qadimgi yozuvlar (Misr perogliflari, Mesopotamiya) kashf etilishi ilmiy-amaliy bilimlarning vujudga kelishi bilan chambarchas bog'liq holda paydo

¹ «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi». 8- jild. T., 2004.

bo'ldi. Manbashunoslikning asosi hisoblangan ilk yozuvlar miloddan av. 6- ming yillikda shakllandi. Eng qadimgi hujjatlar tosh, sopol, po'stloq, xom g'isht, yog'och, teri, papirus poyasiga bitilgan. Dastlab ulardan eng muhim voqea va hodisalar, nasihatnoma va diniy she'rlar yozilgan bo'lsa, keyinchalik podsholiklar tashkil topgach, podshoh qonunlari madhiya (gimn)lar, davlatlararo bitimlar (mil.av. 1280 y. Xattusili III va Ramzes II larning tinchlik shartnomasi) kabi tarixiy hujjatlar bitilgan hamda yillik taqvim va o'lka xaritalari — Misr, Urartu, Bobil va ularning tevarak atrofi chizilgan. Haqiqiy tarixiy hujjat tusini olgan bunday tarixiy lavhalar mil. av. 4- ming yilliklarda Xorazmshohlarning qadimgi poytaxti Tuproqqal'a xarobalaridan topilgan. Podsholik arxividan esa teri va yog'ochga yozilgan 100 dan ortiq kirim hujjatlari topilgan. Ularda podsho xazinasiga tushgan soliqlarning nomi, miqdori va qayerdan keltirilgani belgilangan. Yog'ochga bitilgan hujjatlarda esa ozod qul, xizmatkor, malika cho'rilar, shahzoda xizmatkorlari kabi qadimgi Xorazmda hukm surgan ijtimoiy hayot bilan bog'liq tabaqalarni belgilovchi atama va iboralar tilga olingan.

O'zbekiston hududida qayd etilgan bunday yozma yodgorliklar va ularning ibodatxona va podsho saroylarida saqlanishi, shubhasiz, bu hududda Baqtriya, Sug'd va Xorazm kabi dehqonchilik vohalarida ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar (ziroatkorlik, chorvachilik, hunarmandchilik) va savdo-sotiq munosabatlarining kengayishi oqibatida tashkil topgan qadimgi davlat birlashmalarining shakllanishi bilan chambarchas bog'liq tarzda yuzaga kelganidan dalolat beradi.

O'rta asrlarda Arab xalifaligi somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar boshqargan yirik davlatning tashkil topishi, poytaxt shaharlarida masjid, madrasa va rasadxonalar qad ko'tarib «Bayt-ul-hikmat» (Bog'dod), «Dorul ilm» (Xorazm, Samarqand), «Dorul shifo» (Hirot) va kitobxonalar kabi ilm-fan va amaliyot dargohlarida bilimdon olim-u fuzalolarning to'planishi bilan, shubhasiz, manbashunoslikka e'tibor kuchayadi. Bu davrda amaliy manbashunoslik faoliyati birmuncha kengayib, qo'lyozma manbalarni ilmiy jihatdan tadqiq qilishga kirishiladi. Yozma asarlarni to'plash,

saqlash va nusxalar ko'chirish, noyoblarini o'zga tillarda tarjima qilish bilan bir qatorda asar matnlarini qisqartirish, so'nggi ma'lumotlar kiritilib, qisman bo'lsa-da, ularni to'ldirish ishlari kabi tahririyat ishlari ham amalga oshiriladi.

X–XII asrlarda Movarounnahrda tarix va geografiyaga qiziqish hamda mahalliy aholi tilida yozilgan asarlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan tarixiy kitoblar arab tiliga ko'chirilib, ularni saqlash uchun kutubxona va arxivlar tashkil etilgan. (Ur.Nipur, Nineviya, Bobil, Ashshur shaharlari) mas-sagetlarning birgina Ossuriya podshohi Ashshurbonipalning Nineviyadagi kutubxonasida 30 mingdan ortiq xatli lavhalar saqlangan. O'sha davrlardayoq Shumer, Akkad va Ossuriya maktablarida hujjatlovchi davlat kotib (mirzo)lari tayyorlanib, amaliy mustamlakaga asos solingan. Mesopotamiya arxivi va kutubxonalaridan esa hatto mil. av. 3- ming yillikka mansub mamlakat tarixi va geografiyasiga oid ma'lumotlar topilgan.

Tarixiy hujjatlar va yozma manbalarga tanqidiy yondoshish, ularda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish hamda asarlar yaratishda manbalardan foydalanish qadimgi dunyo tarixchilarining nomlari va tarixnavislik ijodi bilan bog'liqdir. Dastlab yunon muarrix Gerodot ayrim yozma manbalarga shubha bilan boqqan bo'lsa, Pombiy, Liviya, Tasit, Iosif, Flaviya kabi tarixchilar o'z asarlarida manbalarni tanqidiy ajratish, bir-biriga ushbu ma'lumotlarni solishtirish bilan tarixiy manbalarni tekshirib ko'rish usulini qo'llaganlar. O'rta asrlarda manbalarga tanqidiy munosabatda bo'lish deyarli barham topgan bo'lsa-da, ammo uyg'onish davrida u qayta jonlanadi. Uning rivojiga ma'lum darajada gumanistlar o'z hissalarini qo'shdilar. XVI–XVII asrlarda mamlakatning rivojlanishi, asosan, diplomatiya ehtiyojlarini qondirish bilan bog'langan bo'lsa-da, ammo bu davrda yozma manbalar, tarixiy hujjatlarni ilmiy-nazariy tadqiq qilish uslubiyati va amaliy usullari (B.G.Nibur, L.Ranke, T.Momnen) ishlab chiqildi.

O'zbekistonda amaliy manbashunoslikning yuzaga kelishi va rivoji arxeologik topilmalarga asoslansa, bir necha ming yillik tarix bilan uzviy bog'lanadi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ning charmga bitilgan ilk nusxalari

hamda qadimiy Niso va Tuproqqal'a shahar xarobalaridan topilgan charm, yog'och va sopol bo'laklariga yozilgan xo'jalik hujjatlarining guvohlik berishicha, qadimiy Turon hududlarida ilk qo'lyozma manbalar mil. av. 1- ming yillikda yuzaga kelgan. Ular shahar ibodatxonalari va poytaxtlarda qad ko'targan podshoh qarorgohlarida saqlangan. Ko'hna Niso xarobalarida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar vaqtida 2 mingdan ortiqroq sopol bo'laklariga parfiya yozuvi bilan bitilgan xo'jalik hujjatlari topilgan. Ularda Nisoning 17 ta bog'dorchilik tumani va 10 ta qishlog'idan qaysi yili qancha miqdorda musallas keltirilib topshirilgani qayd etiladi. Ayni shu davrda Gardiziyning «Zayn-ul-axbor» («Xabarlar ko'rki»), Bayhaqiyning 30 jildli «Tarixi oli Maxmud» («Maxmud xonadoni tarixi») tarixiy asari, Majiduddin Adnonning «Tarixi Mulki Turkiston» («Turkiston mamlakati tarixi»), Abu Bakr Narshohiyning «Tarixi Buxoro» kabi asarlari arabchadan fors tiliga tarjima qilingan.

943–944- yillarda arab tilida yozilgan «Buxoro tarixi» kitobining tarjimoni va muharriri Abu Nasr Ahmad Kuboviy asarning arab tilidan fors tiliga tarjima qilinishi haqida quyidagilarni yozgan edi: «Ko'pchilik kishilar arab tilida yozilgan kitobni o'qishga rag'bat ko'rgazmaganliklari sababli, do'stlarim mendan u kitobni fors tiliga tarjima qilishni iltimos qildilar. 522- yilning jumadul avval oyida (1128- yil, may) kitobni fors tiliga tarjima qildim». Biroq arab tilidagi keraksiz va buning ustiga o'qiganda (kishi) tabiatiga malollik orttiradigan narsalar haqida ham so'zlagan ekan. U narsalarning bayoni tarjimaga kiritilmadi. 1178- yilda esa «Tarixi Buxoro» kitobi Muhammad ibn Zufar tomonidan 2 marta qisqartirildi va tahrir etilib qayta yozilgan nusxasi hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

O'rta asrlarda manbashunoslikda tarixiy asardan nusxa ko'chirish bilan bir qatorda ularning tarjimasi muhim o'rin tutgan. Asar matnlarini ko'chirib, tarjima qilishda, ayniqsa, joy nomlari (topopnim), tog'lar (oronimlar), suvlar (gidronimlar) hamda shaxs nomlari, ismlarining aniq, to'g'ri yozilishi, buzilishi hollari hamda o'zga tillarga ag'darish oqibatida yuzaga kelgan o'zgarishlar kabi masalalarga jiddiy ahamiyat berilgan.

Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» asarida bu haqda quyidagilarni ta'kidlaydi: «Boshqa xalq mahalliy nomlarni buzib talaffuz etadi. Tili boshqa bo'lgan qabilalar biron joyni egallaganlarida nomlar tez-tez o'zgarib turadi. Nomlarning ma'nosini boshqa tilga tarjima qilganda yoki talaffuzini osonlashtiradigan tovushlar bilan yozganda nomlar o'zgarib ketadi. Ko'pincha arablar chet el nomlarini arabchalashtirib shunday o'zgartiradilar va buzib aytadilar. Mas, Xsrat (Sirdaryo bo'yidagi shaharni turkiy aholi Yangikent va Jonikent, arablar Qariyat ul-Hadisa («Yangi qishloq») va Madaniyat ul-Jadida («Yangi shaharlar, tojiklar») Dehinov deb atashgan. Shu boisdan o'rta asrlar manbashunosligida kutubxonalarda faoliyat ko'rsatadigan tarjimon, musannif va kitoblar tanlovida ularning tub joyligiga alohida e'tibor bilan qaralgan. Chunki qo'lyozma matnlarining bexato ko'chirilishi, joy nomlarining buzilmasdan to'g'ri yozilishi va tarixiy asar tarjimalarining benuqsonligi ko'p jihatdan kotib-u musanniflarning lingivistik salohiyatiga bog'liq bo'lgan.

Abulg'oziy Bahodirxon «Shajarai turk» nomli asarini yozishga kirishganida Rashiddun Fazlullohning «Jome at-tavorix» va «Chingizxon» kabi kitoblar va ularning nusxalaridan istifoda etgani haqida yozar ekan, kitob nusxalarining qayta-qayta ko'chirilishi oqibatida matnlarning deyarli yarmi g'aliz bo'lib qolganligini ta'kidlaydi.

Manbashunoslik tarix fanining maxsus sohasi va alohida taqdimot predmeti sifatida XIX asrning 2- yarmi — XX asrning boshlarida shakllandi.

Turkistonda bu davrda boshlang'ich tusda bo'lsa-da, arxeologiya, etnografiya va numizmatikaga oid topilma va ma'lumotlarni to'plash, tadqiq etish, ko'rgazma va muzey fondlarini tashkil qilish boshlanadi. Toshkent, Samarqand va Buxoroda (V.V.Bartold, V.A.Vyatkin, V.V.Grigoryev, V.A.Jukovskiy, L.A.Zimin) dastlabki arxeologik qazishlar o'tkaziladi. Bu izlanishlar va mahalliy havaskor o'lkashunoslar (Akrom Asqarov, Mirzo Abdulloh Buxoriy, Muhammad Vafo) jalb etiladi.

O'zbekistonda sho'rolar davrida garchi fanga ma'lum darajada ahamiyat berilib, yetuk mutaxassis olimlar voyaga yetib, manbashunoslik fani ilmiy-amaliy jihatdan yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, sho'rolarning tuzumi xudbinlik va maxdudlik mafkurasi tufayli butun bir tarixiy davrlar Amir Temur va temuriylarning o'zbekona sharq ma'naviyati, serqirra davlatchilik va xo'jalik yuritish hamda xalqning ijtimoiy va siyosiy hayoti bilan uzviy bog'liq sulola shajarasi, ma'rifat maktablari tarixiga doir noyob yozma manbalar, hujjatlar tadqiqot rejalaridan chetda qoldi. O'rta Osiyoda oliy ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqot institutlari tashkil topib keng ko'lamda rivojlanishi bilan tarixiy tadqiqot ishlari yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda, xususan, FA tizimida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik, Tarix va Arxeologiya institutlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida manbashunoslik alohida fan sifatida shakllandi va taraqqiy topdi. O'rta asr sharq qo'lyozmalarini o'rganish, tarjima qilish keng rivojlandi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining sharq qo'lyozmalar fondida 150 mingdan ortiq, shu jumladan, 26 ming jild qo'lyozma, 28 ming jild bosma asarlar saqlanadi. 1952–2000- yillar mobaynida «Sharq qo'lyozmalari to'plami»ning 2- jildi nashr etildi. Mazkur to'plamlarda fanning turli sohalari bo'yicha 8 mingdan ortiq arab, fors, o'zbek va boshqa tillarda yozilgan qo'lyozmalar sharhlab berilgan.

Shu bilan bir qatorda bu davrda o'rta asrning mashhur mutafakkirlari Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari», Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Geodeziya», «Mas'ud qonuni», «Madaniyatshunoslik», «Farmakognoziya», «Munajjimlik san'ati boshlang'ich tushunchalari», Abu Bakr Roziyning «Sirlar siri» kitobi, Ali Qushchining «Astronomiyaga oid risola», Mirzo Ulug'bekning «Ko'ragoniyning yangi jadvali», «To'rt ulus tarixi», Abu Bakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Abul Fazl Bayhaqiyning «Ma'sud tarixi», Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Mirzo

Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy», Hofiz Tanish al-Buxoriyning «Abdullanoma», Muhammad Yusuf Munshiyning «Muqimxon tarixi», Mir Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Mirzo Ba'de Devonning «Raqamlar yig'indisi», Mirzo Abdulazim Somiyning «Mang'it xonlari tarixi» va boshqa ko'pgina qo'lyozma manbalar o'zbek va boshqa tillarda nashr etildi. Shuningdek, O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixiga doir muhim rasmiy hujjatlar (vasiqa, garovnoma, tilxat)ni kata-loglashtirish va tadqiq qilishda, ularni xalqimizga yetkazish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Nodir manbalar olimlarimizning mashaqqatli mehnati tufayli o'quvchilar mulkiga aylandi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozma asarlar fondida saqlanyotgan manbalarni soha fanlari bo'yicha sharhlash va kataloglashtirish ustida jiddiy tadqiqot ishlari olib borildi.

Manbalar

Qadimgi Mesopotamiya tarixiga doir manbalar uch asosiy guruhga bo'linadi:

- 1) qadimgi Sharq yozma yodgorliklari;
- 2) moddiy madaniyat yodgorliklari (1, 2, 3, 4, 5- rasmlar);
- 3) antik zamon mualliflarining ma'lumotlari.

Qadimgi sharq hujjatlari tarixchi uchun hammadan ko'ra ko'proq ahamiyatga ega, chunki bu hujjatlarda tarixning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar, siyosiy hodisalar qayd etilgan, ularda o'sha davrdagi madaniyatning taraqqiyot darajasi aks etgan. Mesopotamiya xalqlarining xo'jaligi, madaniyati va turmushi qay darajada taraqqiy qilganligini ko'rsatuvchi moddiy madaniyat yodgorliklari ham katta ahamiyatga ega. Antik zamon mualliflari qoldirgan ma'lumotlar bularga qaraganda kamroq ahamiyatga ega.

Lekin ishonchli va to'la manbalarga ega bo'lgan hozirgi zamon tekshiruvchisi antik zamon mualliflarini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak.

Antik dunyo mualliflari qadimgi Sharq madaniyatining so'nggi asrlarida yashaganlar. Ular ko'p voqealarni shaxsan ko'rganlar, ko'p narsalarni o'sha vaqtlarda mavjud bo'lib, keyinchalik yo'qolib ketgan manbalardan bilganlar. Qadimgi sharq yozuvining asl yodgorliklari antik zamon mualliflari bergan ma'lumotlarning ko'pi to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Nihoyat antik zamon mualliflari madaniy taraqqiyot darajasi jihatidan qadimgi sharq dunyosining vakillariga qaraganda ancha yuqori turganlar. Lekin hozirgi zamon tarixchisi yunon va rim yozuvchilarining asarlarini tanqidiy o'rganib, undan ijodiy foydalanishi kerak. Antik dunyo mualliflari bergan ma'lumotlarni qadimgi sharq hujjatlari va yodgorliklariga taqqoslab o'rganish zarur. Hozirgi zamon tekshiruvchisi qadimgi zamondagi har bir yozuvchining, xususan, har bir tarixchining o'ziga xos xarakterli dunyoqarashga ega ekanligini nazarda tutishi kerak. Nihoyat antik zamon muallifi tarixni qanchalik zamonbop qilib hikoya qilganligini ham e'tibordan soqit qilmaslik zarur.

Qadimgi Sharq haqida yozgan yunon tarixchilari orasida *Gerodot* alohida o'rin tutadi, uni haqli ravishda «tarixning otasi» deb ataydilar. Gerodot (eramizdan av. 480–425- yillar) asarlarini yunon — fors urushlari tarixiga bag'ishlagan. Ellinlarning dahshatli dushmani bo'lgan Eron davlatini mumkin qadar batafsil ta'riflashga harakat qilib, Gerodot Eron podshohligi tarkibiga kirgan mamlakatlarning tabiiy sharoitlari, xalqlarining urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari, madaniyati va tarixini mufassal bayon qilgan. Gerodot o'z asarini yozishda, asosan, kohinlar va yo'l boshlovchilarning hikoyalaridan, shuningdek, sharq mamlakatlariga qilgan sayohati vaqtida o'zi ko'rgan voqeadan foydalangan. Gerodot qadimgi sharq tillarini bilmay, o'zi foydalangan manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaray olmagan bo'lsa ham, biz uning asarida ilmiy tanqidning dastlabki kurtaklarini ko'ramiz.

Muallif Eron va Misr to'g'risida mufassal gapirib, Mesopotamiya ustida ozroq to'xtalgan. Chunki u Ossuriya tarixiga bag'ishlab maxsus asar yozmoqchi bo'lgan, ammo yoza olmagan.

Gerodot hamma vaqt mamlakatning tarixi va madaniyatini har taraflama yoritishga harakat qilib, Mesopotamiyaning tabiiy sharoitlari to'g'risida gapirganda, u yerdagi sun'iy sug'orishga, foydali o'simliklardan foydalanish va ularni o'stirishga, shuningdek, tuproqning unumdorligiga alohida ahamiyat bergan. Lekin tuproq unumdorligining ahamiyatiga juda ortiqcha baho bergan Mesopotamiya xalqlarining turmushi va urf-odatlarini haqida gapirib, Gerodot kemasozlik, suv transporti va savdo haqida hikoya qilgan, odamlarning kiyim-kechagi, ovqati, davolash usullari, uylanishdagi rasm-rusumlar va ko'mish marosimlarini tasvirlagan. Mesopotamiyaning asosiy shahri bo'lmish Bobilni, ayniqsa, batafsil tasvirlagan va bu shaharni «mamlakatning eng mashhur va juda ham mustahkam shahri» deb hisoblagan. Mesopotamiyaning siyosiy tarixi haqida Gerodot bergan ma'lumotlar juda ham qisqa bo'lib, unda tasodifiy va qisman afsonaviy epizodlar tasvir etilgan. Gerodot, ayniqsa, Semiramida va Nitokridaning binokorlik ishlarini, Kayxisrovning Bobilni olgani, Eron shohi Doro hukmronlik qilgan vaqtida bobillilar ko'targan qo'zg'olon, osur podshosi Sinaxeribning Misrga qo'shin tortib borganini mufassal tasvirlagan.

Gerodot o'z hikoyalarida qadimgi mif (afsona) va xalq ertaklaridan keng foydalanib, ko'pincha ularni tarixda bo'lgan voqealar deb tushuntirgan. Chunonchi, geraklidlar avlodidan chiqqan Belning o'g'li Ninni Gerodot osur podsholigining asoschisi deb hisoblangan. Lekin Gerodot asarlarini sinchiklab, tanqidiy ko'z bilan analiz qilgan hozirgi zamon tarixchisi, u yozib qoldirgan faktlarning ko'pidan foydalanishi mumkin.

Gerodot qadimgi sharq xalqlarining madaniyatiga yuksak baho bergan va qadimgi sharq antik dunyoga ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlab o'tgan. Quyosh soatlari va kunning 12 qismga bo'linishi haqida gapirib, Gerodot ellinlar «bularning hammasini bobillardan olganlar», deydi.

Eramizdan avvalgi V asrning ikkinchi yarmida tug'ilgan *Ktesiy Knidskiy* yozib qoldirgan ma'lumotlar ilmiy jihatdan kamroq ahamiyatga ega. Ktesiy Ossuriya tarixiga bag'ishlagan ocherkiga ko'pgina xalq afsonalarini kiritgan, masalan, Sinaxerib va Asarxaddonning vaziri dono Axikar haqidagi, Ossuriya

podsholigiga asos solgan Nin bilan Semiramid haqidagi afsonalarni kiritgan. Bu barcha afsonalar sharq rivoyatlari bilan ancha keyin vujudga kelgan grek naqlarining olaquroq aralashmasi bo'lib ketgan. Ammo Ktesiy ba'zi hollarda ishonchliroq manbalardan, jumladan, podsholar pergamentlaridan foydalangan bo'lishi mumkin. Ktesiy Eron shohi Artakserksning saroy tabibi bo'lgan, shu tufayli u Suzadagi shoh arxivlariga kirib, bu pergamentlarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ktesiy asari bizning zamongacha saqlanib qolmagan. Ktesiy asaridan olingan ayrim parchalar Diodor asarida saqlanib qolgan.

Eramizdan avvalgi I asrda yashagan *Diodor* «Tarix kutubxonasi» degan asarida o'zidan oldin o'tgan tarixchilarning turli asarlaridan, xususan, Gerodot bilan Ktesiy asarlaridan keng foydalangan. Diodor osur podsholigining asoschilari Nin va Semiramidning afsonaviy hayot va faoliyatlarini, ayniqsa, mufassal tasvirlagan. Diodor asaridagi Bobil tasviri, jumladan, Bobilni qazish vaqtida topilgan Bobil saroylarining devorlaridagi nafis suratlarning tasviri bir muncha qiziqarli. Nihoyat haldeya astrologiyasi va astronomiyasining Diodor asarida saqlanib qolgan tasviri ham diqqatga sazovordir.

Eramizdan avvalgi I asrning oxiri va eramizning I asri boshlarida yashagan *Strabonning* «Geografiya»sida qadimgi Mesopotamiyaning tarixi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Strabon o'z asarida Mesopotamiyaning tabiiy sharoitini tasvirlagan hamda Tigr va Evfratning vaqti-vaqti bilan bo'lib turadigan toshqinlariga qarshi sun'iy sug'orish tarmoqlari tashkil qilishning zarurligiga e'tibor bergan. Strabonning ko'pgina kuzatishlari anchagina qiziqarli bo'lsa-da, lekin uning tasvirlarida juda mubolag'a qilib yuborilgan joylar ham bor. Chunonchi, Strabon Mesopotamiya yerlarining unumdorligini va xurmo daraxtining xo'jalikda keng ishlatilishini haddan tashqari bo'rttirib ko'rsatgan. Strabon bobilliklarning urf-odati va kiyim-kechaklarini, uylanishdagi rasm-odatlar va ko'mish marosimlarini batafsil tasvirlagan. Strabon o'zining bu hikoyalarida ko'p narsalarni tasvirlashda Gerodotga ergashgan. Strabon asarida Bobil va undagi haldeya munajjimlari observatoriyasining ajoyib

ta'rifi, shuningdek, Nin va Semiramida haqida antik davr tarixshunosligida keng o'rin olgan afsonalar saqlanib qolgan. Shuning uchun ham bu afsonalarning avlod-dan-avlodga o'tishi va keyingi vaqtlargacha saqlanib kelganligi ajablanarli emas. O'rta asr tarixchilari bu afsonalarni antik zamon tarixchilari yozib qoldirgan ba'zi bir ma'lumotlar bilan birga, yangi davr boshlarida qadimgi sharq olamining allaqachonlar unutilgan xalqlari madaniyatiga qaytadan qiziqish uyg'otgan olimlarga meros qilib o'tkazganlar.

Old Osiyoning qadimgi xalqlari to'g'risida yozgan antik tarixchilar orasida eramizdan avvalgi IV–III asrlarda yashagan bobillik Beros alohida o'rin tutadi. Beros Bobildagi Marduk ibodatxonasining kohini bo'lgani sababli ibodatxona arxivlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan, bu hol esa uning ishini yengillashtirgan. Makedoniyalik Iskandar va dastlabki Salavkalarining zamondoshi Beros yunon madaniyatiga dahldor bo'lgan Bobil tarixi hamda madaniyatini o'sha zamonning bilimdon kishisi nuqtai nazaridan ta'riflab bera olgan. Shuning uchun Beros yunon tilida Bobil tarixi va mifologiyasi ocherkidan iborat katta tarixiy asar yarata olgan. Berosning asari uch kitobdan iborat. «Donishmandlik» deb atalgan birinchi kitobda Bobil miflari bayon etilgan. Ikkinchi kitobda afsonalardagi dunyo to'foni davridan tortib to shoh Pulning (ya'ni, osur podshosi Tiglatpalasar III ning) podsholik qilish davrigacha bo'lgan Mesopotamiya tarixining makedoniyalik Iskandar o'limigacha bo'lgan davri tasvirlangan. Afsuski Berosning asari to'la saqlanib qolgan emas. Beros asarining Iosif Flaviy va boshqa yozuvchilarning asarlarida keltirilgan parchalari va sitatalarigina bizning zamongacha yetib kelgan. Bu parchalar ibtidoiy zamonlar, to'fon davri, patriarxlar, Sinaxerib va Navuxodonosor haqidagi qissalardan iborat.

Nazorat savollari

1. *Manbashunoslik nimani o'rgatadi?*
2. *Manbashunoslik necha turga bo'linadi?*
3. *Qadimgi sharq xalqlari manbalari nechta guruhga bo'lingan?*
4. *Qadimgi dunyo tarixchilarining nomlarini aytib bering.*
5. *Manbalar qadimda qanday tuzilgan?*

Shajara haqida tushuncha

Shajara — arabcha soʻz boʻlib, daraxt maʼnosini bildiradi. *Geneologiya* — kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmui. Podsholar, hukmdorlar, afsonaviy qahramonlar nasl-nasabiga qiziqish qadim zamonlardan oq boʻlgan, lekin Oʻrta asrlarda shajara imtiyozli tabaqalarning paydo boʻlishi va ularning avlod-ajdodlarini rasmiylashtirishga qaratilgan qiziqishning kuchayishi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Bu, oʻz navbatida, XV asrdan boshlab shajara oʻrtasidagi nikoh aloqalari haqida guvohlik beruvchilarning paydo boʻlishiga olib kelgan. Oʻrta Osiyoda shajaraga oid dastlabki yirik asarlar XV–XVII asrlarda paydo boʻlgan. Ayniqsa, Abulgʻoziy Bahodirxonning «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» asarlari XIII–XVII asrlardagi moʻgʻul va turk urugʻlari, hukmdorlari haqida qimmatli maʼlumotlar beradi. Oʻrta Osiyoda nasab daftariga xoʻjalar, saidlar va boshqalar ega boʻlib, bu hujjatlar ularning paygʻambar, sahobalar, tarxon, beklar naslidan kelib chiqqanligini koʻrsatuvchi dalil sifatida, shuningdek, soliq toʻlash, xalq hasharlariga chiqish va boshqa ishlarda alohida imtiyozga, umuman, jamiyat hayotida yuqori mavqega ega boʻlishi uchun xizmat qilgan.

Shajara hujjatlari dastlab shaxsning siyosiy mavqeiga koʻra guvohlar ishtirokida hukmdorlar huzurida tuzilgan va uning muhri bilan tasdiqlangan. Keyinchalik hukmdorlar avvalgi muhrlarni koʻrib tasdiqlab beraverishgan.

Abulgʻoziy Bahodirxon eski oʻzbek tilida yozilgan «Shajarai tarokima» («Turkmanlar shajarasi») tarixiy asarida (1661) Odam Ato haqidagi diniy xarakterdagi afsona, oʻkuz-turkmanlar haqidagi hamda real asosga ega boʻlgan voqealar bayon qilingan. Obida turkiy qabilalar, xususan, turkman xalqining kelib chiqishi

haqidagi ma'lumotlari bilan qimmatlidir. Unda barcha turkiy qabilalarning afsonaviy hukmdori O'kuzxon va uning avlodlari tarixi, shuningdek, turkman urug'larining solur, taka, boyandur, tevagi, yovmut, Xizr eli, Ali eli, sariq, ersari, yozir va bosh-qalarning genezisi xususida qisqa ma'lumotlar berilgan.

Shajarai Xorazmshohiy

Xorazmda uzoq asrlar davom etib kelgan shajaraviy tarixnavislik bor. Bu chashmalarning boshida Abulg'oziy Bahodirxon, Munis, Ogahiy turadi. Ular tomonidan yozilgan va bizgacha yetib kelgan bu kitoblarning qimmati juda baland. O'rta Osiyo tarixining zukko bilimdoni akademik V.V. Bartold ular yaratgan asarlarga yuqori baho berib, ulargacha bu qadar mukammal tarix bitilmaganini ta'kidlaydi.

Xorazm tarixnavisligining yirik namoyandalaridan biri Muhammad Yusuf Bayoniydir. Bayoniyning «Shajarai Xorazmshohiy»¹ hamda «Xorazm tarixi» nomli asarlari Xorazm va O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda juda nodir manbadir. Bayoniy o'z salafлари izidan borib, badiiy ijod bilangina shug'ullanib qolmay, Munis va Ogahiy yaratgan tarixiy asarlardagi voqealarni qaytadan yozdi, to'ldirdi, o'z davri voqealari asosida tarixning yangi sahifalarini bunyod etdi.

«Shajarai Xorazmshohiy»ning ikkita qo'lyozma nusxasi ma'lum. Birinchisi 1913- yilda ko'chirilgan. U O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar fondida 274- raqam bilan saqlangan. Hajmi 517 varaq. Ikkinchisi 1914- yilda Muhammad Ya'qub usta Jumaniyoz o'g'li tomonidan ko'chirilgan. Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida 9596- raqamda saqlanadi. Hajmi 508 varaq.

Bayoniyning o'zi ta'kidlashicha, «Xorazm tarixi» 16 bobdan iborat bo'lgan. Afsuski asarning VIII bobigina bizgacha yetib kelgan, xolos. Hajmi 91 varaq. U Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida 7421- raqami bilan saqlanadi.

1911- yilda boshlanib, 1913- yilda yozib tugatilgan. «Shajarai Xorazmshohiy» qo'lyozmasi to'liq, yaxshi saqlangan. Shuning

¹ Bayoniy. «Shajarai Xorazmshohiy». Toshkent, «Kamalak», 1991.

uchun bo'lsa kerak, tariximiz tadqiqiga bag'ishlangan asarlarda ko'pincha «Shajarai Xorazmshohiy» ga murojaat etiladi.

Bayoniy asarlaridagi ma'lumotlar ishonchli ekaniga muallifning o'z kafolati bor: «Tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo'lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so'zlari hech bir odamga ma'qul bo'lmaydi». («Xorazm tarixi», 5—6- varaq). Bu so'zlar Bayoniyning tarixnavislikdagi haqiqatga sadoqat mezoniga rioya etganini ko'rsatadi. Uning asarlari shu jihati bilan ham qimmatbahodir.

«Shajarai Xorazmshohiy»dan ko'p olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida birinchi manba sifatida foydalanishgan. Xususan, tarixchi olimlardan S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov, M.U.Yo'l-doshev, T.Ne'matov, Q.Munirovlar bu asarning ilmiy ahamiyatini ko'rsatishga harakat qilishdi. Asar haqida M.Y.Yo'l-doshev shunday yozadi: «Bayoniyning asari faktik ashyolarning ko'pligi va voqealarni izchil bayon qilish jihatidan Munis va Ogahiyning ko'p tomli qo'lyozmalariga nisbatan ham qimmatliroqdir» (Xiva davlat hujjatlari, 2- tom. T., 1960, 23- bet).

Professor Ya.G'ulomov tarixning Bayoniy tomonidan qayta yozilgan qismi (1846—1873- yy) haqida gapirib, quyidagilarni yozadi: «Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadigan Ogahiy asarlaridagi ma'lumotlarni Bayoniy ma'lumotlari bilan solishtirib ko'rganda katta tafovut yo'q, ammo Bayoniyda uchraydigan va diqqatga sazovor ba'zi bir ma'lumotlar to'liqroq bo'lib, Ogahiy asarlarida mukammal emas» (Ya.G'.G'ulomov. «Xorazmning sug'orilish tarixi». T., 1959, 14- bet).

Bu asar tarix fanlari nomzodi Q.Munirovning «Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari» nomli risolasida ancha keng tahlil etildi. Uning O'rta Osiyo tarixini o'rganishdagi ahamiyati ma'lum darajada yoritildi.

Ushbu qiyoslar, baholar «Shajarai Xorazmshohiy» nodir tarixiy manba ekanligidan dalolatdir. Olimlarimiz O'rta Osiyo, o'zbek xalqi tarixini o'rganish yo'lida anchagina ishlarni amalga oshirdilar. Ammo bular ulkan dengizdan bir tomchi, xolos. Hali bu sohada qilinishi lozim bo'lgan katta ishlar turibdi.

Buni o'tgan asrimizning 20- yillaridayoq akademik V.V.Bartold his qilgan va kuyinib yozgan edi: «Xonliklarning birinchi manbalarga asoslanib yozilgan tarixiy obzori yo'qdir. Bu manbalarning ko'pchiligi, hatto bosilib chiqqan ham emas. O'zbeklarning hukmronlik qilgan davrlari O'rta Osiyo tarixining eng qorong'i va yaxshi o'rganilmagan davrlaridan biri bo'lib qolmoqda» (B.V.Бартолд. История изучения Востока в Европе и России. Изд. второе. Л., 1925, 258).

Keyingi yillarda ushbu nodir qo'lyozmalarni tartibga keltirish, keng o'quvchilar ommasiga yetkazish borasida amaliy ishlar amalga oshirildi. Bayoniyning «Shajarai Xorazmshohiy» asari ham ana shunday xalqimizning ma'naviy boyliklaridan biri sanaladi. Unda Munis va Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol» solnomalaridagi voqealar sodda uslubda qayta bayon qilinib, 1846-yildan 1873- yilgacha bo'lgan voqea-hodisalar hamda 1873—1914- yillarda sodir bo'lgan voqea-hodisalar, tarixiy o'zgarishlar izchil, ta'sirli, ravon tilda, shoirona uslubda yangidan ifodalangan. Asardan o'sha davr Xorazm xonligining ichki va tashqi siyosati, o'zaro feodal urushlari, taxt talashishlar, ularning mash'um oqibatlari, bular tufayli xalq boshiga tushgan musibatlar haqida keng ma'lumot olish mumkin. Bayoniy «Shajarai Xorazmshohiy»da Xiva xonligiga Rossiya (imperiya) yurishlarini tasvirlaydi.

O'rta Osiyo viloyatlarini birin-ketin egallayotgan Rossiya imperiyasining Xorazmga yurish boshlashiga quyidagi hodisa bahona vazifasini o'tadi: «Bahri Xazor kenorida baliqchilik etib yurgan Rusiya fuqarolaridan ba'zilarini Manqishloq qazoqlaridin bir jamoa asir etib kelturub, Xevaqda sotmoq boshladilar. Ikki yil oradin o'tib, asirlar yigirma birga yetdi. Hijratning ming ikki yuz sakson yettilanchi yilida Rusiya davlati mundin ogoh bo'lib, elchi yuborib, ul asirlarni tiladi («Shajarai Xorazmshohiy». O'zFAQI, 274- raqam, 452 a — 458 a sahifalar).

Elchi keltirgan noma mazmuni bunday edi: «Siz jamoa bila bizlar burundin do'stliq bila ravish etib yurur erduk. Alhol, eshiturmizkim, bir necha o'g'ri va avvoshlar biz jamoadan bir necha kishini asir etib eltib, ul taraflarda sotg'on ermishtar. Tavaqqu, uldurkim, burungi do'stliqning rioyasini tutub, ul

asirlarni berib yuborgaysiz. Qozonlidin ul tarafi sizning haddingiz va bu tarafi bizga mutaalluqdur. Mundin so'ng aslo bir-birimizning haddimizga mutaarriz bo'lmay, do'stona sulukni masluk tutg'aymiz. Odam avlodi aziz va mukarram jamoadurlar. O'larni chorpoy qatorlarida b6zorg'a solib sotmoq hech viloyatda yo'qdur. Sizlar ham mundog' ishni etmasangiz yaxshiroqdur. Bu so'zlarni qabul etsangiz, biz jamoaning boisi minnatdorliqimizdur. Vagarna, mundog' ishlarning oxiri nizo' va harbg'a munjar bo'lur, vassalom» (453- bet). Xorazm xoni nomaga javoban qullarni ozod etsa adolatdan bo'lardi, albatta. Ammo bu bo'lg'usi istiloni to'xtata olmas, bir oz kechiktirishi mumkin edi, xolos.

Zotan, «Rusiya davlati mundin burun besh marotaba Xorazm ustiga askar yuborib, alarning ba'zilar Xorazm yo'lida tashnalikdan qirilib, ba'zilar Xorazmga borib urushib, qirilib, hanuzgacha aslo zafar topa olg'onlari yo'q erdi» (458- bet). Qullikka qarshi oqilona so'zlar yozgan imperiyaning o'zi necha-necha «aziz va mukarram jamoalarni asriy qullik asoratiga shafqatsiz tortayotgandi. Xonning rad javobi Rossiya armiyasi hujumini tezlatdi. Chunki «ushbu yili Rusiya davlati Samarqand va Zarafshon vodiylarini zabt etib, Xo'qand bila Buxoro oraliqlarig'a kirgan» (454 a), navbat Xorazmga yetgan va elchi maktubida muqarrar «nizo' va harb» dan ogohlantirilgan edi.

Imperiya armiyasi Xivaga qarab yurar ekan, bosqinchilarcha shafqatsiz ish tutdi. Xalqni talon-toroj etib, o'ldirib, ko'z ko'rib quloq eshitmagan vahshiyliklar qildi. Ikkiyoqlama zulm ostida qolgan xalq yanada ezilib, xonavayron bo'ldi. Bu kulfatli kunlarni Bayoniy «Shajarayi Xorazmshohiy»da haqqoniy ifodalashga erishgan. Xazorasp, Qo'ng'irot ellarining zabt etilishi manzaralari fikrimizning dalilidir.

«Shajarai Xorazmshohiy»da Xorazm xonligidagi amir-amaldorlar, mashhur kishilar haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Asarni o'qib, Muhammad Rahimxon (Feru)ning shoh, shoir va murakkab inson sifatidagi qiyofasini tasavvur etish mumkin. Xorazmda «muddati saltanatlari qirq yetti yil-u o'n besh kun»dan iborat bo'lgan (hijriy 1281—1328) Muhammad Rahimxon ma'rifatli shoh edi. U hukmronlik davrida yurtida

ilm-fan, adabiyot va san'at rivoj topishiga homiylik qildi. Bayoniy xonning fazilatlarini haqida yozadi: «Xon hazratlari bag'oyat mushfiqfuqaro va bag'oyat xayrdo'st kishi erdilar. Ko'p madrasalar-u masjidlar bino qildilar...». Manbalarda bu davrda 1500 ga yaqin eski maktab va 130 ta madrasa mavjudligi qayd etilgan. Feruzshoh ma'rifatning muhim yo'li — kitobxonlikka alohida e'tibor bergan. Bayoniyning yozishicha, haftada ikki marta — juma va dushanbada olimlar-u, donolarni yig'ib, suhbatlar uyushtirar, kitobxonlik oqshomlari o'tkazardi. Xon amaldorlarni, sipohiylarni ham kitobxonlikka da'vat etgan.

Bayoniy Muhammad Rahimxonning shafqatsiz, tadbirkor hukmdor sifatidagi qiyofasini ham yashirmay, batafsil tasvirlagan. Masalan, xonga qarshi bosh ko'targan yovmutlar bilan qonli kurash bo'ladi. Bunda g'olib chiqqan xon «jallodlari tamani yuz o'n to'rt asirni kelturub Ark oldidagi chuqaloqda bo'yinlarini uzdilar».

Muhammad Rahimxon ayyor va o'z manfaatiga pishiq hukmdor edi. Rossiya imperiyasi o'lkani zabt etgach Xorazm aholisiga katta soliq solgan. Solingan ikki million ikki yuz manot soliqning uch yuz ming manoti yovmutlar hissasiga tushadi. Buni undirish ham Xorazm xoni zimmasida qolayotgan edi. Yovmutlarga azaliy keki bo'lgan xon Kaufmanni ularga qarshi qayraydi: «Kaufman yigirma bir to'pg'a egalik etgondi, xon hazratlari deb erdilar: «Yamut jamoasi bag'oyat sarkashdurlar. Siz bizning hamma to'plarimizni olib ketsangiz, ondin so'ng biz yamutni boshora olmasmiz va bu uch yuz ming manotni ham o'zingiz olmasangiz, bizga sarkashlik yuzasidan taallul ko'rguzib, tezlikda bermasdur». Bu qayrovdan so'ng Kaufman ikki to'pni yovmutlar qatli uchun olib, o'n to'qqizini xonga qaytaradi. Shunday qilib xon yovmutlardan Kaufman qo'li bilan qasos oladi.

«Shajarai Xorazmshohiy» Bayoniy davri Xorazm adabiy muhiti haqida ham yaxlit tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Asarda Munis, Ogahiy, Tabibiy, Komil, Xusraviy, Komron, Murodiy kabi shoirlarning hayoti va ijodi haqida yangi ma'lumotlar mavjud. Adabiy manbalarda uchramaydigan ba'zi nazmiy asar va parchalar turli munosabat bilan keltirilgan.

Solnoma Bayoniy hayoti va ijodining bizga noma'lum tomonlarini oydinlashtiradi, shoir faoliyati haqida ilmda mavjud kemtiklarni to'ldiradi. Asarni o'qirkanmiz, tarixiy sharoit, muhit hamda shoirning ko'ngliga yaqin, hamfikir do'stlari haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. «Shajarai Xorazmshohiy» Xorazm xalqining urf-udumlari, marosim-ma'rakalari, til xususiyatlarini o'rganishda muhim manbadir.

Temur tuzuklari

Amir Temur Ko'ragon jahon tarixi sahnasida javlon urgan ulug' siymolardan biridir, deb yozadi «Temur tuzuklari» asarining so'zboshi muallifi M.Ali. Biz uning boy tarixiga, favqulodda jasur va tadbirkor shaxsiga, avlodlari faoliyatiga qayta-qayta murojaat qilishimiz tabiiy. Chunki tarixga yuz tutib, qaysi yo'llardan yurmaylik, baribir, qachon bo'lsa-da, yo'limiz aylanib ushbu buyuk zot huzurida tutashadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1996- yil 18- oktabrda Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilish marosimida so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak». Darhaqiqat, vaqtlar keladiki, avlodlar ham Sohibqiron Amir Temur hayotining har bir kunini, har bir lahzasini bitta ham qoldirmay o'rganib chiqadilar. Chunki bunday ulug' zot haqida, uning amalga oshirgan buyuk ishlari haqida bilish istagi ko'ngil ehtiyoji, hayot zaruratiga aylanadi.

Sohibqiron o'sha mash'um va suronli damlarni o'tkazganligi haqida yozilgan va yozilayotgan asarlarning ahamiyati bebaho. Bu borada, ayniqsa, uning o'zi qog'ozga tushirgan «Tuzuklar»ning bebaho manba ekanligi kundan ham ravshan. Mazkur yodgorlik Amir Temur shaxsiyati va uning davri haqida, davlat tuzilishi va saltanat yuritish xususida o'sha davr obi havosi, umuman, odamlararo munosabatlar to'g'risida keng tasavvur bera oladigan noyob durdona asar hisoblanadi.

Amir Temur saltanati — bu bobomiz Sohibqironning butun umri bo‘yi orzu qilib kelgan buyuk, umumxalqlarning baynalminal tarzda uyushgan ulkan imperiyani birlashtirib, shu asosda turli xil xalqlarning tinch-totuv yashashini ta‘minlovchi mustahkam davlat tuzishni niyat qilgan edi. Bu Sohibqironning eng ezgu ijodiy faoliyati natijasi edi. U bunga bir muncha vaqt erishdi ham. Ammo turli xil qarama-qarshi tomonlar bu ulkan davlatning uzoq vaqtlar saqlanib turishiga ta‘sir qilib, imperiyaning u yer, bu yerida turli nizolar, noroziliklar keltirib chiqarishlariga sababchi bo‘lganlar.

Buyuk Sohibqironning qonunlari hayotiy zarurat yuzasidan dunyoga keldi, «Temur tuzuklari» esa barchasining ochiq ifodasi sifatida dunyoga keldi. Haqiqatan ham «Temur tuzuklari» ayni zamon zarurati va talabi asosida yaratilgan asardir. Bunday asarni, so‘zsiz, ulkan saltanat tuza olgan, davlatni boshqarish zahmatlarini o‘z boshidan o‘tkazgan, bu yo‘lda katta hayotiy tajribalar orttirgan, mashhur muarrix Nizomiddin Shomiy so‘zi bilan aytganda, kamolat-u martabalarga o‘zining yetuk sa‘y-harakatlari bilan va jaddu-jahdi bilan erishgan Amir Temur kabi insongina yoza oladi va bu haqda kitob yozish shunday odamninggina qo‘lidan kelishi tabiiy. Bu borada shubha bo‘lishi mumkin emas. Chunki «Temur tuzuklari»ni o‘qiganimizda uning muallifi yuksak didli ma‘naviyat egasi ekanligining shohidi bo‘lamiz.

Amir Temurning tarixiy asarlar va ularning yozilishiga munosabati, haqqoniy bo‘lishiga talabchanligi tahsinlarga sazovordir. Uzoqni ko‘ra biluvchi, katta bilimga ega bo‘lgan donishmand va zukko insonning munosabati uning o‘z ishiga talabchanligini ko‘rsatadi. Ana shu jihatlariga nazar qilganda ko‘z oldimizda ulug‘ donishmand, teran hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, kelajak avlodlarni o‘ylaydigan, ona yurt, mulk-u millat uchun yonuvchi zahmatkash inson siymosi namoyon bo‘ladi.

Asardagi Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma»sidan olingan parchada Amir Temur milodiy 1401- yilning 11- avgustida Nizomiddin Shomiyini o‘z huzuriga chaqirtiradi. Tarixchi bu haqda shunday yozadi: «...Garchi ul zot qilgan ishlarning bu abadiyatga ulangur davlatning boshlanishidan tortib, to hozirgi

kungacha bo'lgan tarixini onhazrat uchun yozgan bo'lsalar ham, ammo ular (ular chamasi, anchagina bor, ular ichida «Tuzuklar» ham bo'lishi mumkin, lekin afsuski, tarixchi o'zi foydalangan asarlardan birortasining ham nomini keltirmaydi — M. A.) hali u asar munosib tarzda jamlanib, taqdim etilmagan ekan, bu banda ularni yig'ib ortiqcha so'zlardan tozalab, bob-bob qilib tartib berishga mashg'ul bo'lg'aymen, lekin shu shart bilanki, takallif-u bezak berish, lof urish ziynatidan o'zimni tiygaymen...».¹

Muallifning ko'rsatishicha, bu yerda Sohobqironning o'zi va saltanati borasida yozilajak asarga munosabati, asar qanday yozilishi haqida tasavvuri juda ravshan, talabi esa yuksak ekanligi ayon bo'lmoqda, ya'ni Sohobqiron davlati tarixi yozilganda ortiqcha takalluf va lof-u maqtovga o'rin bo'lmasligi kerak... Shomiy Sohobqiron so'zlarini qo'llab-quvvatlab: «Yaxshi va ravon so'z uldirkim, avom xalq uning ma'nosini anglag'ay, xos kishilar unga ayb qo'ymag'ay..», deydi. Sohobqiron bilan muarrixning fikrlari bir joydan chiqadi. Amir Temurning: «Men ana shundoq so'zni xohlaymen!»², deya ma'qullashi bag'oyat ibratlidir.

Muarrixga nima uchun asar sodda yozilishi kerakligini tushuntirganda Sohobqiron, uning jimjimadorligidan xoli, sodda bo'lishini, chunki u keng avom, xalq uchun bitilishini, ko'pchilik tomonidan o'qilishini nazarda tutadi: «Shu uslubda yozilgan, tashbih va mubolag'alar bilan oro berilgan kitoblarda ko'zlangan maqsadlar o'rtada yo'qolib ketadi, — deydi Amir Temur. — Agar so'z qoida-qonunidan nasibador bo'lganlardan birontasi ma'nosini fahmlab qolsa qolar, ammo qolgan o'ntasi, balki yuztasi uning ma'nosini, mazmunini bilishdan ojiz. Shu sababli, uning foydasi barchaga barobar bo'lmaydi...».³ Bu so'zlar Amir Temurning, umuman, kitob ahamiyatini, ilmni, tarixni qanchalar qadriga yetishini chuqur anglashini ko'rsatib turibdi.

¹ Nizomiddin Shomiy. «Zafarnoma», T., 1996, 22- bet.

² Yuqoridagi kitob, 23- bet.

³ Yuqoridagi kitob, 23- bet.

Muallifning ta'kidlashicha, Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»si Sohibqiron va uning davlati haqida bevosita Amir Temur topshirig'i bilan yozilgan qutlug' ikki kitobning biri edi, birinchisi, G'iyosiddin Alining «Hindiston g'azavoti kundaligi» hisoblanadi. Har ikki kitob ham Amir Temurning nazaridan o'tgan va ma'qullanganligi ma'lum. G'iyosiddin Alining yozishicha, ushbu birinchi kitobning bitilishi haqida Humoyun o'rdudan maxsus farmon chiqqan bo'lib, unda tarix uchun Jahongirning zafarli yurishlaridan ayrimlari ta'riflanishi, keyin Hindiston yurishi tasvirlanishi lozimligi aytiladi. O'shanda ham G'iyosiddin Ali oldiga uslubda balandparvoqlikka berilmay, sodda, hamma tushunadigan tilda yozish shart qilib qo'yiladi...¹. Amir Temur o'zi kitob yozgan vaqtda «So'z qoida-qonuni» haqida teran fikr yuritadi va unga o'zi ham qat'iyat bilan amal qiladi. Natijada «Tuzuklar» inshosiga kirishadi. Muallifning ta'kidlashicha, «Tuzuklar» asari uzoq yillar davomida qog'ozga tushirilgan, vaqt o'tishi bilan boshlangan matnga qaytilgan, qisqartirilgan, to'ldirilgan, yana davom ettirilganday taassurot qoldiradi kishida. Arab olimi Mazhar Shihobning quyidagi: «Esdaliklar yozishni Amir Temur hokimiyatga kelishidan ancha muddat oldin boshlangan...»,² degan so'zlarida jon bordek ko'rinadi.

Muallifning fikricha, Sohibqoron o'zi va saltanati tarixini, to'ra-tuzuklarni qog'ozga tushirishni birovga topshirishni istamagan yoki biron kishini shunga munosib ko'rmagan...

Shunga o'xshash vaziyat keyinroq mashhur davlat arbobi va muarrix Abulg'oziy Bahodirxon bilan ham yuz bergan edi, deb yozadi muallif M.Ali. Ya'ni, u millat uchun bag'oyat muhim «Shajarai turk» asarini o'zi yozishga majbur bo'lgan edi. Bu haqda Abulg'oziy asar so'zboshisida shunday deydi: «Bu tarixni (ya'ni, «Shajarai turk» nazarda tutilmoqda — M.A.) bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduq. Hech bir munosib kishi topmaduq. Zarur bo'ldi. Ul sababdin o'zimiz aytduq. Turkning masali turur: «O'ksiz o'z kindigin o'zi kesar», tegan...».³

¹ «Tamerlan» M., 1992. ctp. 193.

² U.Uvatov. «Sohibqiron» arab muarrixlari nigohida». T., 1997.

³ Abulg'oziy. «Shajarai turk» T., 1992, 11- bet.

«Temur tuzuklari» buyuk bobomizning jasoratlaridan biri edi», deb fikr yuritadi muallif. U muhtaram zotning ko'pdan-ko'p davlat ishlari turgani holda, fursat topib madaniyatimizning ko'rki bo'lgan kitob yozishdek bir zahmat-u mashaqqatlarni ham o'z zimmasiga olganligi hayratlanarlidir. Sohibqiron kitobining ustida turli tillarda tadqiqotlar olib borilayotgani uning hayotiy va haqqoniy original asarligi, insoniyat uchun zarur ekanligini isbot qilib turibdi.

Chunki Amir Temur yashagan davr, uning qizg'in faoliyati, mana salkam yetti yuz yildirki, jahonda hech kimni befarq qoldirmay ohanraboday o'ziga tortayapti, unga qiziqish esa tobora kuchayib borishini muallif katta ishonch bilan tasdiqlagan.

Temuriylar sulolasining shajarasi (1370–1613- yillar)

Amir Temur va temuriylar davrida ularning sulolaviy shajarasi tuzilgan va bu narsa shajarani o'rganuvchi tarixchilar, tarixshunos olimlar va hatto Amir Temur davri va uning avlod-u ajdodlari haqida to'liq ma'lumotlarni bilgan har bir o'zbekistonlik fuqaro uchun ham nihoyatda muhim, ham qiziqarli tarixiy voqea deb bilish o'rinlidir.

Shajarada Sohibqironning to'rt o'g'li va ikki qizi, yigirma ikkita nabirasi, qirq ikkita evarasi, o'ttiz ikkita chevarasi, yigirma sakkizta avarasi va o'nta duvarasining tug'ilgan yillari tartib bilan tuzilgan.

Ushbu shajarada Amir Temurning Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo va Shohrux Mirzo singari to'rt o'g'il va Oqa Begi xonim hamda Sulton Baxt Begim – qizlaridan tug'ilgan nabiralari, avara, chevaralari, duvaralari va begonalari deb nomlangan avlodlarining, ya'ni Temuriylar sulolasining 1370- yildan to 1613- yillargacha bo'lgan davrda hukmronlik qilgan hududlari nomma-nom ma'lum bir tartibli jadvalda aks ettirilgan.

Bu ulug' hukmdorlar sulolasini ifodalovchi shajaraning sulolalarni aks ettiruvchi ilk manba turlari sirasiga kiradi.

O'zbek elining shajarasi

Qadim zamonlardayoq yuksak madaniyat yaratgan iste'dodli zahmatkash ajdodlarimiz, o'rta asrlarga kelib ilk Uyg'onish, ya'ni Sharq Uyg'onishi davrini boshdan kechirganlar. Ayniqsa, buyuk xorazmshohlar va temuriylar hukmdorlik qilgan asrlarda o'zbeklarning etnik qiyofasi qadimiy sivilizatsiya zaminida shakllanib bitgan. Buning natijasida hozirgacha saqlanib qolgan o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyat yuzaga kelgan hamda o'zining milliyligini davom ettirmoqda.

Jahondagi barcha elat va xalqlar uzoq davrlar davomida ancha murakkab etnik jarayonni boshdan kechirganlar. Chunki har bir etnos uzoq tarixiy davrlar davomida turli elatlar bilan alohida, ba'zan bir joydan boshqa joyga ko'chib, boshqa etnoslar bilan aralashib, ularni o'ziga singdirib yoki tarkibiy qism qilib olish natijasida alohida shakllangan. Qadimiy tarixiy hujjatlardan ma'lum bo'lishicha, asrlar davomida davlatlar tashkil topish bilan katta-kichik urushlar bo'lib, qudratli hokimlar o'zlarini bosib olib o'zlariga bo'ysundirganlar, natijada bir qancha mayda elatlar asta-sekin obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida bir-biriga singib ketgan. Bu kabi holatlarni, har xil fojiali va ijobiy voqealarni ko'rgan, turli istilochilar tomonidan bosib olinib, g'ayriolat va davlatlarning ta'siriga o'tgan, ammo o'zining ko'p asrlik tarixi davomida milliy xususiyatlarini saqlab qolgan o'zbeklarning ham boshidan ne-ne og'ir kunlar kechirgan.

Tarix, tilshunoslik, antropologiya, arxeologiya va etnografiya fanlarining jahon miqyosida qo'lga kiritgan ilmiy jihatdan muhim fikr-mulohazalarini mensimay, tor millatchilik doirasidan chiqq olmay mulohaza qilish nafaqat fanda, balki siyosatda ham zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz va boshqa O'rta Osiyo elat va xalqlarining etnogenezi, ya'ni kelib chiqishi muammolarini faqat jahon fani yutuqlariga tayangan holda (ularni yevropalik yoki osiyolik demasdan) haqqoniy, obyektiv hal qilish zarur.

Jahon turkologiyasining ko'p yillik izlanishlari, sharqshunoslik, arxeologik va tarixiy-etnografik tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklar ham boshqa etnoslar kabi anchagina chigal va murakkab etnik jarayonni boshdan kechirganlar. Bu jarayon eng qadimiy ibtidoiy davrlarda va butun o'rta asrlar davomida Yevrosiyo, ayniqsa, O'rta Osiyo va Qozog'istonning bepoyon hududida migratsiya (ko'chish) va aralashishi natijasida muayyan qabilalar ittifoqi yoki davlat hududlari davrasida ro'y berganligini ko'rsatib o'tadi.

Keyingi o'n yilliklarda o'tkazilgan tadqiqotlarga qaraganda, mintaqada bir necha yillar davomida chegaralari o'zgarib turgan muayyan tarixiy madaniy va etnik birikmalar yuzaga kelgan. Olimlarning ta'rifiga binoan bu birikmalar quyidagicha belgilangan: 1) yarim o'troq *balıqchi elatlar*, 2) daryolarning quyi oqimida va vodiylarda *yarim o'troq va chorva-dehqonchilik* bilan shug'ullanuvchi aholi; 3) sug'orma va bahorgi yerlardagi *omoch dehqonchiligi va chorcachilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar*; 4) quruq iqlimli dasht va yarim dashtlarda qisman dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi *ko'chmanchi* va *yarim ko'chmanchi* etnik guruhlar mavjud bo'lganligi aniqlanadi. Shuningdek, markaziy Osiyoda yashovchi xalqlarning paydo bo'lishi ham mazkur xo'jalik-madaniy tiplarning tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning o'ziga xos etnik xislatlarini belgilab bergan.

Bu yerda ibtidoiy jamiyat tashkil topgan Neolit, ayniqsa, Eneolit davridayoq (miloddan avvalgi IV—III ming yilliklar) mazkur xo'jaliklar bir joyda paydo bo'lib, keyin butun mintaqaga tarqalgan. Demak, neolit davrida topilgan ibtidoiy jamoa makonlari (Xorazmdagi Kaltaminor, Zarafshondagi Chinkeldi, Markaziy Farg'ona va Ustyurtdagi Jaytun va boshqa madaniyatlar) turli qabilalarning o'zaro bog'liq ekanligini tasdiqlaydi.

Masalan, mashhur kaltaminorliklar o'z madaniyati bilan cheklangan holda hayot kechirmay, atrofdagi uzoq-yaqin qabilalar bilan doimo o'zaro aloqada bo'lib turganlar.

Ular shimolda uralliklar, janubda jaytunliklar va ular orqali Kaspiy bo'yi va Eron qabilalari aloqada bo'lganliklarini ko'p arxeologik tadqiqotlar tasdiqlaydi.

Eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan hisoblangan Markaziy Osiyo va bepoyon Yevrosiyo dashtlarida avvalgi III ming yilliklarda hind-yevropa til turkumiga oid tillarda gapiradigan juda ko'p ko'chmanchi qabilalar va o'troq elatlar yashagan. Ural tog'laridan Hind daryosigacha bo'lgan hududlarda yashagan mazkur qabila va elatlarning tili jihatidagina emas, balki xo'jalik faoliyati, madaniyati, kelib chiqishi jihatidan ham umumiy o'xshashlikka ega bo'lganligi aniqlangan. Bu etnik guruhlarining o'zlarini «ariy» (ya'ni, bir urug' odamlari) deb atagan qismlari qo'shni xalqlar tarixida muhim rol o'ynagan. Daryo bo'ylarida yashagan «ariylar» dehqonchilik, tosh-mis va jez qirollar ishlab chiqarish bilan shug'ullanishgan bo'lsa, ko'chmanchi «ariylar» chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Miloddan avvalgi II ming yillik oxirlarida jez (bronza) davrida fanda *skif-sarmat*, *sak-massaget* nomi bilan mashhur ko'chmanchi va yarim o'troq hind-eron qabilalarining bir qismi Qozog'istonga, O'rta Osiyodagi shimoliy tomonlarga joylashib, o'ziga xos madaniyat yaratganlar. So'g'diyona, keyinchalik ko'hna Xorazm, Marg'iyona va Baqtriyada yashovchi o'troq sug'oriladigan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi, qadimiy tillarda gapiruvchi xalqlar bilan yaqin aloqada bo'lgan sak-massagetlar butun Yaqin va O'rta Sharqni sarosimaga tushirib qo'ygan. Gerodot va boshqa bir qancha qadimiy yunon mualliflari ta'riflagan buyuk Firdavsiyning o'lmas «Shohnoma» si, jahon madaniyatining ajoyib durdonalaridan biri «Roland haqida qo'shiq» nomi fransuz eposida tilga olingan hamda ularning o'ziga xos xususiyati ta'riflagan bu qabilalar asrlar davomida mag'ribdan mashriqgacha qo'shni davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

O'sha davrdagi sak-massaget qabilalari metallardan har xil mehnat qurollari va yarog'-aslahalar, xanjar, bolta, nayza, o'q-yoy uchi, xilma-xil badiiy bezaklar, katta g'ildirakli uch-to'rt ot qo'shiladigan og'ir aravalar va harbiy yurishlarda ishlatiladigan yengil aravalar yasaganlar. Ular yangi, chidamli ot turlarini parvarish qilganlar hamda ilg'or urush taktikasiga ega bo'lganlar, aravali lashkarlar ayrim tabaqaga ajralganlar.

Yevrosiyaning bepoyon dashtlarida har yer har yerdagi baland tepaliklarda dafn qilingan boy qabila boshliqlari va harbiylarning dabdabali qabrlarini qazib tekshirish natijasida skif-sak madaniyatining nihoyatda yuksak va qudratli harbiy kuchga ega bo'lganligi dalillar hamda ashyolar bilan isbotlangan.

Shunisi qiziqarliki, sak va skif-sarmat tepaliklarida topilgan badiiy buyumlar, ot arava, tuya, qo'chqor, ilon va boshqa afsonaviy maxluqlar tasvirlangan rasmlar va haykallar o'tgan asrning oxirlarida Janubiy Tojikistonda kashf etilgan mashhur «Amudaryo xazinasi» buyum va bezaklarida keyingi Ahamoniy, makedoniyalik Iskandar Kushon davlati davriga oid topilmalarga o'xshab ketganligi aniqlangan. Janubiy Qozog'iston tog' bag'irlarida va O'zbekistonning ko'p tumanlarida qoyatoshlarga o'yib yasalgan ibtidoiy rasmlarda ot, tuya qo'shilgan aravalar, har xil hayvonlar — tuya, tog' echkisi, qo'chqor va boshqa g'alati maxluqlarning tasvirlanishi uzoq o'tmishda O'rta Osiyoliklarning ma'naviy madaniyati bilan Yevrosiyo dashtlarida yashagan qabilalar madaniyatida qandaydir umumiylik, yaqinlik mavjudligidan dalolat beradi. Bundan tashqari Turkmaniston, O'zbekiston va Tojikistonning janubiy tumanlarida topilgan Jaytun madaniyati, Qoratepa, Oltintepa, Ayritom. Dalvarzintepa, Fayoztepa, Halchayon, Namozgohtepa, Yalang'ochtepa, yaqinda qazib tekshirilgan Asxikent va boshqa yodgorliklarda qilingan ajoyib kashfiyotlar ham bu fikrni ta'kidlaydi.

Qazilmalarda topilgan noyob, antiqa buyum va bezaklarda afsonaviy tasvirlar, ayrim xudolarning obrazlarini ifodalagan haykal va tasvirlar uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizning diniy e'tiqodlari, urf-odatlar to'g'risida mulohaza qilishga imkoniyat yaratadi. Turli xil idishlar, xanjar va pichoq dastalar, bilakuzuk va isirg'alar, to'g'nag'ich va to'qalarga yasalgan echki va qo'ylar, qanotli qo'chqorsimon yoki otsimon maxluqlar, yarim odam, yarim ilon yoki sher shaklidagi afsonaviy obrazlar, tamg'a va muhrlardagi har xil qush va hayvonlarning tasvirlari oddiy san'at namunasi bo'libgina qolmay, balki ilk din shakllari, chunonchi, totemizm bilan bog'liq tasavvurlar mahsulidir. Asosan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi O'rta Osiyoliklar miloddan avvalgi III—II ming yilliklarda yaratgan xilma-xil qush

hayvonlarning obrazlari (qadimgi Mesopotamiya, Elam va Erondagi singari), albatta, muayyan zomorf, ya'ni hayvonsimon tasvirlar mavzuiga bog'liq dunyoqarashning aksidir.

Paleoantropologik ma'lumotlarga qaraganda, Paleolit davrida Old Osiyodan shimoli-g'arb tomondan, ya'ni O'rta Osiyoga ko'chish yo'li keyingi neolit va jez (bronza) davriga kelib yanada kuchaygan. Yangi davrda mazkur tarixiy-madaniy va etnik aloqalar yanada kuchayadi. Ayniqsa jez davriga oid topilgan ko'plab qabrlar o'sha vaqtda yashagan aholining antropologik tuzilishini aniqlashga yordam beradi. Antropolog olim T.Q. Xo'jayevning ta'rificha, O'zbekistonga shimoli-g'arbdan Yevropaning yuqori Paleolit, Mezolit va Neolit davri aholisi kela boshlagan, janubdan esa janubiy yevropeoid irqiga mansub xalqlar kelib, o'lka aholisining ko'pchilik qismini tashkil qilgan. Uning taxminicha, o'sha davrdan boshlab o'zbek xalqining shakllanishida o'ziga xos yevropeoid komponentlar asos bo'lgan. Mazkur fikrni arxeologik kashfiyotlar ham tasdiqlaydi. Chunonchi, O'zbekistonning Janubiy qismiga Yevropadagi Andronov Madaniyati elementlarining kirib kelishi bunga dalildir.

Shu vaqtga kelib temirning kashf etilishi butun mintaqada ishlab chiqarishning rivojlanishiga zo'r turtki bo'ladi. Oqibatda keng hududda, jumladan, O'zbekistonda ham aholi o'sdi. Ilk temir davridan keyingi madaniyatga o'tish davr miloddan I ming yillikning o'rtalaridan yangi eraga o'tishgacha O'rta Osiyoning hamma hududlarida, jumladan, O'zbekistonda ham murakkab etnoantropologik jihatdan jiddiy jarayon ro'y berdi. Arxeologik obidalaridan Dalvarzintepa, Ayritom, Eski Termiz va boshqa yerlarda o'tkazilgan tadqiqotlar ham mazkur fikrlarni tasdiqlaydi, deydi muallif.

Arxeologlarning fikricha, umumijtimoiy rivojlanish jarayonida juda ko'p va keng hududga o'z ta'sirini o'tkazgan Xorazm O'rta Osiyoda alohida o'rinni egallaydi. Ularning aytishicha, miloddan avvalgi, II ming yillikda Xorazmning bronza davri madaniyati, aftidan Kopet Dog' etaklarida topilib tekshirilgan ilk dehqonchilik madaniyati bilan Shimoliy Yevropadagi dasht bronza madaniyatini bir-biriga bog'lovchi xalqa bo'lib xizmat qiladi.

Bu davrda Xorazm vohasi Zarafshon va Farg'ona vodiylarida yashovchi elatlarning xo'jaligi sun'iy sug'orishga va o'troq dehqonchilikka asoslangan bo'lsa, ularni o'rab olgan cheksiz dasht biyobonli aholi orasida chorvachilik ham tobora taraqqiy qila boshlagan. Iqtisodiy jihatdan bir-birini uzviy aloqada bo'lishga undagan voha va dasht o'rtasida ijtimoiy mehnatning bo'linishi sodir bo'ladi. Buning natijasida ishlab hunarmandchilikda ham mehnat taqsimoti vujudga kelgan edi. Dehqonchilikning rivoji, dabdabali shahar qal'alarning paydo bo'lishi ijtimoiy tuzumning o'zgarishiga olib kelgan.

Nafaqat arxeologik tadqiqotlar, zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto» va qadimgi mualliflarning ko'pchiligi ham mazkur fikrni quvvatlaydi. Masalan, «Avesto»da O'rta Osiyoda ilk quldorlik davridagi ijtimoiy tuzumni ta'riflovchi mahalliy elatlar to'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Bu muqaddas kitobda qudratli qang'a davlati ham tilga olinadi. Xitoy davlatining elchisi va sayyohi Chjan Szyan O'rta Osiyoda yirik Kangyuy (qang'xa) davlati mavjudligi to'g'risida hikoya qiladi. Mashhur hind dostoni «Mahabhorata»da bu o'lkada yashagan saklar tilga olingan. Qurama tog' etagida joylashgan qang'arlar, Sirdaryoning yuqori oqimi va Farg'ona saklari hamda boshqa qabilaviy birikmalar Qang'xa davlatiga qaram bo'lgan. Xitoy manbalarining xabar berishicha, miloddan av. II—I asrlarda Qang'xaga Shahrizabz — Kitob vohasi (Suso), So'g'diyona, Xorazm, Toshkent vohasi va Chirchiq vodiysi (Yuni), Zarafshonning o'rta oqimi (Fumu), Buhoro vohasi (Gi) o'tadi. Uning sharqiy chegarasi Farg'ona, janubda Parfiya va Baqtriya bilan chatishgan. Xitoy solnomalariga qaraganda, Qang' hukmronligi Orol va Azov dengizlari oralig'idagi alanlar mamlakatiga, Uralbo'yi o'rmon qabilalarigacha yetgan va ular mo'yna bilan soliq to'laganlar. O'sha davrdan boshlab mahalliy aholi orasida turkiy qabilalarning ko'chishi natijasida asta-sekin turk tillari keng tarqala boshladi.

Keyingi ikki asr davomida qang'xa hududida ko'pgina yangi shahar va qal'alar paydo bo'ladi, turli kasb-hunar sohalari va savdo-sotiq rivoj topadi, yo'l tizimi yuzaga kelib, tartibga tushadi. Bepoyon Qizilqum va Qoraqum uyumlari orasida qad ko'tarib turgan o'nlab qal'alarning basavlat xarobalari, uzoq-uzoqlarga

choʻzilgan koʻhna kanallarning izlari, bogʻ-u rogʻ va serunum dalalarning poliz qoldiqlari hozirgacha kishini lol qoldiradi. Hammasidan qizigʻi, Amudaryo va Sirdaryo quyi oʻzanlari boʻylab birin-ketin qad koʻtargan shinakli baland devorlar bilan oʻralgan bahaybat qalʼa va qasrlar haqiqatan ham bu davlatning anchagina rivojlanganligidan dalolat berishini bilib olish qiyin emas. Mazkur shahar va qishloqlarda qazilmalar olib borish natijasida ajoyib, noyob kashfiyotlar qoʻlga kiritildi. Bularning orasida eng muhimlari, qumtoshdan, loydan va ganchdan yasalgan turli xil koʻrinishga ega boʻlgan haykallar, rang-barang naqshlarning parchalari, ot, tuya, qoʻy va boshqa hayvonlar hamda qushlar tasviri tushirilgan rasmlar, oʻsimlik shaklidagi mazmundor naqshli geraldik tasvirli katta idishlar, odam va maymunlar shakllari koʻrinishida yasalgan sopol haykallar va boshqa sanʼat namunalari mahalliy elatlarning turmush tarzini oʻrganishga yordam beradi.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, Oʻrta Osiyoda kishanlar davrida xoʻjalik jihatdan yaxshigina yuksalish boʻlgan. Bu yerda sugʻorish inshootlari rivojlanadi (Xorazmda Gavhar va Charmanyob, Buxoroda Gav-Kitfor, Soʻgʻdda Dargʻam magistral kanallari), kulolchilik ravnaq topadi, tosh yorgʻuchoqlar oʻrniga tegirmonlar paydo boʻladi, tanga zarb qilish va pul munosabatlari kuchayadi. Shahar hayoti yuqori darajaga koʻtariladi. Masalan, Marv shahri 350 ga, Samarqand 100 ga yerni egallaganligi diqqatga sazovor.

Kushon davlatining gullagan davridan boshlab deyarli oʻn asr davomida Oʻrta Osiyoda roʻy bergan tarixiy etnik jarayonlarni qadimgi soʻgʻd, xorazmiy, baqtriya, sak, parfiya tillaridagi aramey alfavtlari asosida paydo boʻlgan noyob yozma manbalar orqali bilamiz. Masalan, bir necha shevalarga boʻlingan soʻgʻd tilida qadimgi Zarafshon va qashqadaryo vodiylari, qisman Fargʻona vodiysi hamda Shosh (hozirgi Toshkent) aholisi gapirganlar. Ayniqsa, milodning IV–IX asrlarida soʻgʻd tili juda keng hududga tarqalgan va uning Samarqand shevasi soʻgʻd yozuvlarining negizini tashkil qilib, bir necha asrlar davomida Oʻrta Osiyoda eng muhim adabiy, fan, din va xalqaro savdo tili deb qabul qilingan.

O'rta Osiyoga V–VIII asrlarda turkiy elatlarning eng ko'p –ko'chib kelishi natijasida bu vaqtda ushbu mintaqada istiqomat qilayotgan tub aholi saklar, xorazmiyliklar, parfiyaliklar, so'g'diylar, toxarlar va boshqa elatlardan iborat bo'lgan.

Ayrim tadqiqotchilar ta'rificha, X–XI asrlarda O'rta Osiyoda to'rtta til va etnik birlik shakllanib, hozirgi turkiy xalqlar, ya'ni o'zbeklar, turklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar va qirg'izlar kelib chiqqan.

O'rta turk davrida O'rta Osiyo turkiy tillarining rivojiga (IX–XV asrlar) qoraxoniylar davlati qabul qilgan uyg'ur-qarluq adabiy tili katta ta'sir qilgan. Avvaliga bu til so'g'diy alifbosi, keyinchalik esa arab yozuvi asosida rivojlanib uning ikki varianti shakllangan: Movarounnahrda *sharqiy qoraxoniylar* va Xorazmda – *g'arbiy xorazmiy adabiy turk tili rivojlangan*.

O'rta o'zbek xonliklarining (XVI–XVII asrlar)da paydo bo'lishi turkiy xalqlarning keyingi taraqqiyoti mazkur feodal birlashmalarining tevaragida uyushgan elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lib, u o'ziga xos adabiy tilni yuzaga keltirgan. Natijada uyg'ur-qarluq shevasi asosidagi Chig'atoy tili va qipchoq-o'g'uz shevasi asosidagi Xorazm turkiy adabiy tili rivojlangan. O'sha davrlarda Chig'atoy tili zamirida o'g'uz lahjasi asosida saljuqiylar tili dastlab Xorazmda, keyinroq kichik Osiyoda tarqalgan. Hozirgi o'zbek tilida uchta lahja – *qarluq-chigil*, *qipchoq* va *o'g'uz* bo'lib, ular ham ayrim shevalarga bo'linganligi ta'kidlanadi.

Shu narsani alohida qayd qilish maqsadga muvofiqki, xalq ijodi namunalari uzoq ajdodlarimiz orasida keng tarqalgan. Bizlarning eng qadimiy ajdodlarimiz sak-massaget, skif-sarmat olami bilan o'zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa turli xalqlarning og'zaki ijodi («Qirq qiz», «Dada-Ko'rkut» qissasi, «Alpomish», «Go'ro'g'li» turkumi, Nasriddin, Aldar ko'sa singari ertaklarda) tasvirlangan. Ulardagi ayrim obrazlar va voqealarning Orol va Kaspiy bo'yi, Dashti qipchoq, Qoraqum, Old Osiyo hamda Shimoliy Kavkazning vohalari va bepayon dasht beyobonlarida yashagan turli elatlarning rivoyatlari va dostonlari bilan bog'liqligi tasodifan emas, deb yozadi muallif.

Demak, o'zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa O'rta osiyolik ko'plab xalqlarning kelib chiqishi va etnik tarixini, mintaqadagi murakkab etnik jarayonni aniq tasavvur qilmaguncha obyektiv baho berish nihoyatda qiyin. Yurtimizning turli irq va dindagi har xil elatlarning quramasi natijasida shakllangan ajdodlarimiz eng qadimiy davrlardan yozuvlari yuksak darajada madaniyatli ilk davlat yarata olganlar.

O'zbek elatining shakllanishi miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalaridan boshlanib, butun antik davr davomida etnik ildizi, xo'jalik-madaniy hayoti va turmush tarzi bir zamindagi hozirgi O'zbekiston hududida yashagan mahalliy Yevropaga oid aholi bilan, asta-sekin sharqdan mongoloid irqiy elementlarning tarqalib bir-biriga kirishib ketishi natijasida hosil bo'lgan etnik jarayon bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

VI–VIII asrlarda turk xoqonlari bilan O'rta Osiyoning tobora feodallashib borayotgan zodagonlari orasida ittifoq tuzilib, yirik turkiy-siyosiy birlik ta'sirida turli elementlarning qo'shilib ketish jarayoni ancha kuchaydi.

O'sha davrda umumiy til va shevalarda gapiradigan elatlar va qabilalar astalik bilan yaqinlashib, qo'shib, o'zbek va boshqa O'rta Osiyo turkiy etnogeneziga poydevor qo'yib bo'lgan edilar. Bu jarayonning tez sur'atlar bilan rivojlanishi Farg'ona, Sug'd, Shosh va Xorazm, qisman Buxoro aholisi orasida aniq namoyon bo'ldi. Ushbu jarayonga mos tushgan yana bir ijobiy omillardan biri, bu yerga islom dinining kelishi va uning aqidalari mahalliy elat hamda xalqlarning islom mafkurasi asosida o'zaro yaqinlashtirish va do'stona munosabatlarni mustahkamlashga muhim turtki bo'ldi.

Shuningdek, bir vaqtlar shimoldan Movarounnahrda o'rnashib qolgan va mustaqil davlat yaratishga muvaffaq bo'lgan o'zbeklarning keyingi etnik qatlami — islom diniga o'tgan chig'atoylar sulolasi hukmronlik qila boshladi. Bu vaqtda turkiy elatlar va qabilalar ko'pchilikni tashkil qilgan edi. Bu yurtga kelganlar orasida ham turkiy va turkiylashgan mo'g'ul qabilalaridan *jaloir*, *barlos*, *qovchin*, *o'rlatlar* hozirgi O'zbekiston hududida joylashib olib, ularning hammasi, umuman, Chig'atoy deb nomlangan.

O'zbek adabiy tilini keyinchalik Alisher Navoiy rivojlantirib «chig'atoy tili» deb atagan. Kelgindi elatlar mahalliy qadimiy yuksak madaniyatli o'troq aholi bilan qo'shilib, XIV–XV asrlarda butun O'rta Osiyoda qudratli kuch sifatida katta rol o'ynaganlar.

O'sha davrdan boshlab Movarounnahrning turkiy aholisi «chig'atoylar» deb atalgan hozirgi kungacha yetib kelgan chig'atoy turklari etnografik guruhlaridan o'z etnik xususiyatlarini saqlab qolgan *turklar, qarluqlar, barloslar, kaltatoylar, musobozori* kabilari hozirda ham uchraydi.

Navbatdagi eng yirik ko'chuv XV asr oxirlari va XVI asr boshlarida ro'y berdi. Bu davrda siyosiy va iqtisodiy jihatdan ancha bo'shashgan O'rta Osiyo mahalliy hokim va podsholar orasidagi taxt talashishlar, xalq ommasining harakatlari boshlandi, chunki ularning ahvoli og'irlashib ketgan edi. Bu kabi holatlar ko'chmanchi o'zbeklarga qo'l kelgan edi. Temuriylar sulolasining oxirgi hokimlari, jumladan, Andijon hokimi Bobur va Hirot hokimi Husayn Boyqarolar Dashti Qipchoqdan kelgan qudratli Shayboniyxonning ko'p sonli qo'shinlari oldida ojizlik qilib chekinganlar. Natijada hozirgi O'zbekistonning Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo vodiylarida Xorazm vohasi va boshqa hududlarda Shayboniyxon bilan kelgan «O'zbek» nomli turkiy tildagi qabilalar o'rnashib, mahalliy aholi bilan aralashib ketadilar.

Aslida o'zbek atamasi ilmiy jihatdan hali to'liq aniqlanmagan. Dastlab bu so'zni arab muallifi Usam ibn Munqiz (XII asr oxirlarida) asarlarida uchratamiz. Keyin Rashididdin solnomalarida Jaloliddinning harbiy navkarlaridan biri «O'zbek» ismi bilan tilga olingan. Atoqli tarixchi Hamidulloh Kazvinii (XV asr) Oltin o'rda xoni O'zbekning lashkarlarini «O'zbeklar» deb ataydi. Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylar o'zbeklarni Oltin o'rda nomi bilan bog'laydilar. Yana bir boshqa manbalarda ko'rilganda XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Abulxayrxon va uning nabirasi Shayboniyxon qaramog'idagi barcha qabila va elatlar birikmasiga umuman «o'zbeklar» deb nom berilgan. Abulg'oziyning «Shajarai turk»ida yozilganidek, oq o'rda

podshosi To'xtag'ulxon o'lgandan so'ng uch yoshli O'zbekxon taxtga o'tirgan. U ota-bobosining dasturi bilan toki elni zabt etib, har kimni martabasiga loyiq hurmat qilib, in'omlar berdi. Barcha xalq uch sohibi davlatning sababidan sharifi islomga musharraf bo'ldilar. Andin so'ng Abdulg'oziy ta'rificha, barcha Juji elini «O'zbek eli» dedilar.

Bir qancha manba va rivoyatlarda o'zbeklarning genealogiyasi (shajarasi) haqida gapirilib, o'zbek xalqi 92 urug' (qabila) dan tashkil topgan deyiladi. Aslida bu haqiqatga to'g'ri kelmaydi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbeklarning kelib chiqishi kabi ularning etnik tuzilishi ham nihoyatda murakkab va ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot natijasida bir necha marta o'zgarib ketgan.

Tadqiqotchilar XXI asr arafasida o'zbek xalqi tarkibida uchta yirik etnik guruh (subetnos) mavjud bo'lganligini qayd qiladilar. Ulardan birinchisi eng qadimiy davrlardan o'troq holda shahar va qishloqlarda yashab, O'rta Osiyoga milodning I ming yilligi oxiridan ko'chib kelib asta-sekin o'troqlashib ketgan turkiy elatlar bilan aralashgan aholi hisoblanadi. Ularga o'z vaqtida «sart» deb nom berilgan bo'lib, asosan, Farg'ona, Toshkent, Xorazm, qisman Zarafshon vohalarida, umuman, ozmi-ko'pmi va hozirgi kungi O'zbekistonning hamma yerida joylashgan. Ammo ularning eng ko'p qismi Farg'ona vodiysida bo'lib, asrimizning boshlarida u yerda taxminan butun aholining 52,7 foizi joylashgan.

Ikkinchi subetnos Shayboni o'zbeklar kelishidan oldin qadimiy turkiy elatlar bilan turk-mo'g'ul qabilalarining aralashmasidan kelib chiqqan. Ular, asosan, XX asr boshlarigacha urug' qabilaviy an'analarini saqlab sartlarga qo'shilmay yarim o'troq turmush tarzida yashab kelganlar va etnografik adabiyotda «turklar» deb nomlanganlar (B.X. Karmishova, K.Sh. Shoniyozov). Tub aholi hisoblangan bu turklar, asosan, Farg'ona vodiysida, Samarqand, Jizzax viloyatlarida va O'zbekistonning sharqiy qismlarida joylashgan.

O'zbeklarning uchinchi yirik etnik guruhi XV–XVI asrlarda Movarounnahrga ko'chib kelgan Dashti qipchoq o'zbeklarining avlodlaridir.

Mazkur guruh yarim ko'chmanchilik turmush an'analarini saqlab kelgan, chorvachilik hamda dehqonchilik xo'jaligini birga olib borgan subetnosdan iborat. Mazkur guruhlarining boshqa guruhlardan farqi va o'ziga xosliklari ularning irqiy tuzilishida mongoloid belgilarning ancha sezilarli ekanligini, tilida «jo'qchilar» shevasi kuchli va o'z nomini «o'zbek» deb nomlashidadir. Bu guruh turli qabilalardan iborat: *qo'ng'iroq, mang'it, qipchoq, naymon, kenagas, saroy, xitoy, ming, yuz, qirq, qatag'on* va boshqalar. Bu qabila va elatlar Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sherobodaryo, Boysun daryolari havzasida, Nurota va Qurama tog' etaklarida, Xorazm va Farg'ona vohalarida joylashgan. Shulardan eng ko'p sonli qismi 20- yillarda Buxoro amirligida (120 mingdan ko'proq mang'itlar, 35 mingdan ortiq kenagaslar, 86 mingga yaqin qo'ng'iroqlar, Turkiston o'lkasining Samarqand viloyatida 52 ming qipchoqlar, Farg'ona vodiysida 42,5 mingga yaqin qipchoqlar, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida 50 mingga yaqin quramalar) yashaganlari ta'kidlangan.

Mazkur subetnoslar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'ziga xos maishiy urf-odatlar va tildagi xususiyatlari bilan farqlansa-da, biroq yagona o'zbek elati ekanligini isbotlovchi belgilarni saqlab, o'zlarini «o'zbek» deb nomlaganlar. Ular uzoq davrlar mobaynida sart, turk va Dashti qipchoq o'zbek avlodlaridan iborat subetnoslar yarim ko'chmanchi chorva xo'jaliklar, o'troq sartlar bilan namoyon bo'lgan. Keyinchalik turli etnik qatlamlarning qo'shib ketishi jarayoni, ayniqsa, Farg'ona vodiysida, qisman Samarqand va Toshkent uyezdida jiddiy tus olgan va faollashgan.

Sababi shuki, bu yerdagi turkiy qabilalarning ko'pchiligi, Bobur yozganidek, Dashti qipchoq, o'zbeklarning kelishidan oldin o'troq yashaganlar. Oktabr to'ntarishidan keyingi o'n yilliklarda urug'-qabilachilikni unutgan turklar va sartlar Farg'ona vodiysida etnik xususiyatlarini saqlab qolganlar. Dashti qipchoq o'zbeklaridan *yuzlar, qipchoqlar, quramalar* bir oz o'ziga xoslikni saqlaganlar. Lekin *ming, qo'ng'iroq, qirq, qatag'on, saroy* kabi qabilalarning vakillari mahalliy sart bilan aralashib ketganlar. Zarafshon vodiysida joylashgan o'zbeklar

qabilachilik (20 ga yaqin urug'lar) an'analarini yo'qotib, milliy birlikka qo'shilganlar.

Oktabr to'ntarishidan keyin sho'ro hokimiyatining o'rnatilishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan o'zbek xalqining keyingi rivojiga go'yoki «qulay» sharoitlar yaratib berildi. Shoshilinch va to'la-to'kis o'rganilmagan holda hali milliy muammolar oxirigacha hal qilinmagan, mahalliy xalqlarning milliy shakllanish jarayoni pishib yetilmasdan turib bir vaziyatda o'tkazilgan 1924- yilgi milliy chegaralanish natijasida katta xatolarga yo'l qo'yildi. O'zbek millatining rivojiga, ayniqsa, 30-yillardagi va urushdan keyingi yillardagi turli siyosiy nayranglar va qotilliklar katta putur yetkazdi. Bu davrda o'zining mehnatsevarligi va iste'dodi bilan ko'tarilib rivoj topib kelayotgan o'zbek millatining eng zo'r farzandlari, ajoyib ishbilarmonlari, o'z fikrini dadil ifodalaydigan siyosiy arboblardan va ziyolilarning ko'pchiligi qirib, tuhmat, bo'htonlar bilan hibsga olinib yo'q qilib yuborildi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi, o'zining davlati, tili va istiqbol siyosatiga ega bo'lishi uning istiqboli porloq ekanligining garovidir.

Shuningdek, manbada ijtimoiy va oilaviy-maishiy turmushi xalq bayramlari, o'yin va marosimlari, diniy tasavvurlar, urf-odatlar va irimlar, o'zbek milliy madaniyati va ma'naviyati, xalq teatri va milliy raqslari, an'anaviy o'zbek hunarmanchiligi va bozor iqtisodiyotidagi yangicha shakllanish tasvirlanadi.

Nazorat savollari

1. *Shajara so'zi qanday ma'noni anglatadi?*
2. *Shajaraning vazifasi nima?*
3. *Xorazm shohlariga bag'ishlangan «Shajarai Xorazmshohiy» asarining muallifi kim?*
4. *«Temur tuzuklari» kitobida, asosan, Amir Temur haqida nimalar yoritilgan?*
5. *Temuriylar sulolasining shajarasini aytib bering.*
6. *O'zbekistonning dunyo xalqlari bilan qanday qadimiy etnik bog'liqligi bor?*
7. *O'zbeklar asosan necha xil etnoslardan tashkil topgan?*
8. *O'zbek eli shajarasini aytib bering.*
9. *O'zbek tilining til bo'lib shakllanishida kimning alohida roli bor?*

IV BOB. QADIMGI DAVR GERALDIKA SAN'ATI

Qadimgi Misr geraldika san'ati

Qadimgi Misr madaniyati va san'ati bir necha ming yillik davrni qamrab oladi. U quyidagi asosiy bosqichlarga bo'linadi:

Ilk podsholik: I va II sulolalar — eramizdan avvalgi 3000 dan 2800- yillargacha;

Qadimgi podsholik: III va VI sulolalar — eramizdan avvalgi XXVIII—XXIII asrlar;

O'rta podsholik: XI va XII sulolalar — eramizdan avvalgi XXI—XVIII asrlar;

Yangi podsholik: XVIII va XX sulolalar — eramizdan avvalgi XVI—XI asrlar;

Kechki podsholik: XXI va XXXII sulolalar — eramizdan avvalgi XI—IV asrlar;

VII—X sulolalar hukmronligi davri markazlashgan Misr davlatining birinchi inqirozi davridir;

XIII—XIV sulolalar davrida ikkinchi inqiroz yuz bergan davr;

XV—XVI sulolalar davrida mamlakatga giksoslar bostirib kirgan davr.

Giksoslar bilan muvaffaqiyatli kurashib kelgan XVII dagi sulola o'zlaridan keyin biron-bir mahobatli inshootlar qoldira olmadi.

Miloddan avvalgi 5—4- ming yilliklar oxirida Nil vodiysida qabila tuzumi shakllana bordi va davlatchilik yuzaga kelib, yozuvning ilk shakllari vujudga keldi. Bu *piktografik*, ya'ni rasimli yozuvlar edi.

Arxeologlar tomonidan topilgan qazilmalar Misr tasviriy san'ati va madaniyatining ilk davri haqida ma'lumot beradi.

Nil vodiysi aholisi o'sha davrlarda inson vafotidan keyin ham hayot kechiradi, deb ishonar edilar. Ularning fikricha, qabr insonning u dunyodagi doimiy uyi edi. Shuning uchun u foydalangan buyumlar inson o'lgandan keyin o'zi bilan birga ko'milardi.

O'sha davrlardayoq tasviriy san'atda inson obrazi, xususan, ayol va erkak tasvirlari, shuningdek, turli xildagi jonivorlarning, masalan, sher, buzoq, it va hokazolarning tasvirlari bor edi. Mazkur inson va hayvonot tasvirlari o'zining umumlashgan holati va xarakteri bilan farq qilardi.

Naqshlangan idish va devoriy rasmlarning o'ziga xos, ayniqsa, qizil loyli devorga oq bo'yoq bilan tushirilgan tasvirlar Misrning I—II sulolasigacha bo'lgan davrlarda uchrab turar edi. Keyingi davrdagi suratlarda esa idishlarning sirtiga qizil, jigarrang bo'yoqlar ishlatilgan (*6- rasm*). Devor va ko'zalarda, idishlarda insonlarning qomati, jonivor, qushlarning tasvirlari, katta qayiqslarning erkin bo'yalgan obrazlari tasvirlangan. Bu rasmlarda ularning, xarakter holati juda aniq berilgan. Misol tariqasida ibodatdagi ayollar qomati, ov sahnasi va harbiy to'qnashuvlardagi personajlarni keltirish mumkin. Har bir motivda aniqlik, ifoda hukmronlik qilgan.

Devordagi suratlarda oq, qora, qizil va sariq bo'yoqlarda dafn marosimi jarayoni, bundan tashqari ov marosimlari ham tasvirlangan. Bu yerda harbiy jangchilarning kurash sahnasi ham ko'rsatilgan. Alohida sahnalarning neytral fondagi qat'iy kompozitsion ko'rinishlari mavjud bo'lmagan holda erkin bir tarzda devor bo'yicha joylangan.

Bunda ladyalarda ovchi va jonivorlar tasviri bir tomonga yo'nalgan. Sulolagacha bo'lgan davrda ibodat vaqtida qo'llarini ko'tarib olgan personajlar, jang qilayotgan jangchilar, jonivorlarning qomatlarini tasvirlash sxematik, lekin aniq shakllar bilan berilgan.

Exnaton tomonidan o'tkazilgan diniy islohotlar ko'n-gildagidek natija bermagan. Exnaton Fiva qohinlari va quldor aristokratiyaning qudratini vaqtincha pasaytirishga muvaffaq bo'lgan, xolos. Exnatondan keyin taxtga o'tirgan Fir'avnlr islohotlar o'tkazishga ojizlik qilganlar. Xususan, Tutanxamon

Fiva kohinlariga yon berib, Amon islohotini qaytadan tiklashga va hatto o'z ismini o'zgartirib «Tutanxamon» deb atashga majbur bo'lgan. Fiva yaqinidagi «podsho maqbaralari vodiysi» deb atalgan vodiya 1922- yilda topilgan Tutanxamon maqbarasidan badiiy jihatdan g'oyat go'zal juda ko'p buyumlar va tasvirlar topilgan. Bir nechta dafn qutilarining ichiga yana bir quti solingan bo'lib, bu qutilar ichiga qo'yilgan oltin tobutdan Tutanxamonning mumiyolangan jasadi chiqqan. Maqbara ichidan topilgan buyumlar qanday bo'lsa shundayligicha saqlanib qolgan (5, 6, 7, 8- rasmlar). U Fiva qohinlari ta'siriga butunlay berilib ketgan yosh podshoning olib borgan siyosatini juda ravshan tasvirlaydi. Podsho o'tirgan taxtning orqasidan quyosh nur sochib turgani tasvirlangan.

Yunon geraldika san'ati

Yunon san'ati tarixida mil. av. XI asrdan to IX asrgacha bo'lgan davri *gomer davri* deb qabul qilingan. Miken yozuvlarining tahlili nafaqat qadimgi Yunoniston, balki gomer davridagi tasavvurlarimizni ham boyitadi.

Tikenlar haykallarida, pilosliklar yozuvlarida, yodgorliklarida hamda madaniy atributlarida Zevs — momaqaldiraq, Poseydon — dengiz xudosi, Appalon — quyosh va musiqa xudosi, Afina — xudolar xudosi ekanligi uchraydi. Afina — boyqush, Zevs — ho'kiz, burgut shular jumlasidandir.

Gomer davrining iqtisodiy va ijtimoiy tarixi o'zining rivojiga ko'ra ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik tuzumigacha bo'lgan o'tish pog'onalarini namoyon etadi. Hali urug'chilik jamoasida bo'lgan Yunonistonda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi ta'siri ostida xususiy mulkchilik yuzaga keldi, natijada quldorlik tuzumining shakllanishi uchun qulay muhit yaratildi.

Yunonistonning o'zi bir nechta uncha katta bo'lmagan mustaqil viloyatlarga bo'lingan edi. O'tish davri tizimidagi siyosiy shakl harbiy demokratiya bo'lib, u aristokratlar jamoasi

hukumat a'zolari safining ko'payishiga sabab bo'ldi. Xullas, bora-bora davlat yaratildi.

Me'morchilik. Yunon hududida mil. av. IX–VIII asrlarda me'moriy qurilmalar xarobalaridan bu davrda mikenlar madaniyati an'analari davom etganligini ko'rish mumkin. Bular mil. av. X–IX asrlardagi miken davrining megarona chizgilarini esga soladi. Bunday to'g'ri burchakli qurilgan binolarga o'rtasidagi tor yo'lakdan kirilar edi. Greklarning ilk qurilmalarining asosi dag'al toshlardan, devorlari esa xom g'isht va qisman yog'och sinchlar bilan qurilar edi. Yog'och xari to'sinlari, odatda, ichkaridan to'rt yog'och ustun bilan yopilib, orasida tutun chiqishi uchun teshik qoldirilar edi.

Binoga kirish ko'pincha ikki ustunli peshtoq ko'rinishida jihozlangan. Bunday ko'rinishdagi uylar hatto xudoning yashash joyi deb ham hisoblangan.

Ana shunday Yunonistondagi ibodatxonalarning mashhurlaridan biri Spartadagi Artemida Orfi ibodatxonasidir (mil. av. IX–VIII asrlar). U to'g'ri burchakli shaklda bo'lib, ikki teng galereyasining ichi bir qatorli yog'och ustunlardan iborat bo'lgan. Ushbu ustun tayanchlarga boshqa ustunlar bilan tutashtirilar edi.

Ibodatxonalarning *nef* deb ataluvchi gallereyaga bo'linishi, boshqa qadimiy ibodatxonalarda (Krit orolidagi Drerose iboxathonasidagi) uchrar edi. Ibodatxonalarning tashqi ko'rinishi haqida biz Argos orolida saqlanib qolgan terrakotli modeldan bilib olamiz (9- rasm).

Bular bosh fasadda ikki ustunli, peshtoqli va to'g'ri burchakli qurilmadir. Bino ikki tomonga og'gan tom, ikki yon tomoni frontonli ko'rinishga ega. Aynan ana shu me'moriy qurilma shakli kelgusi davrlarda Yunonistonda tiklanadigan ibodatxonalar uchun asosiy me'moriy shakl bo'lib qoldi (10- rasm).

Mil. av. V asrning ikkinchi choragida Yunonistonda san'at gurkirab rivojlandi. Ayniqsa bu vaqtda polignotning Delfdagi va Afmadagi devoriy qurilmalarning taniqli naqshlari mashhur bo'ldi. Delfda Knid shahrida bino peshayvonlarida rassom ikkita ko'p qomatli ulkan kartinalarni yaratdi. Bular «Illion xarobalari»

va «Yer osti podshohligidagi Odissey» nomli asarlar edi. Polignot oʻz shogirdlari Mikon va Panen bilan Afinadagi ibodatxonalarda «Yunonlarning amazonkalar bilan jangi», «Yunonlarning kentavrlar bilan jangi» kabi asarlarini ishlagan. Undan tashqari Mikon va Panenlar mustaqil tarzda «Marafon qarshisidagi jang» devoriy rasmlarini yaratdilar.

Rim geraldika san'ati

Rim tarixi Tibrdagi uncha katta boʻlmagan urugʻ jamoa tarixidan boshlanib, keyinroq, yaʼni mil. av. II asrda Apenin yarim oroli va oxiri Oʻrta Yer dengizi tarixiga aylandi. Oʻsha paytlarda eng yaxshi yerlarni va siyosiy hokimiyatni aristokratiya jamoasi — patritsilar egallab olishdi. Aholining asosiy tarkibini plebeylar, yaʼni oʻrta va kichik yer egalari tashkil etar edi. Keyinchalik shahar aholisining asosiy qismi savdogar va hunarmandlar boʻlib, qullar ozchilikni tashkil etgan.

Mil. av. VI asr oxirida Rim aristokratik quldorlik tuzumiga, yaʼni respublika xarakteridagi davlat koʻrinishiga aylandi. Bora-bora Italiya ham Rim hukumati tarkibidagi yagona jamoaga birlashdi. Buning natijasida qishloq xoʻjaligini rivojlantirish uchun qulay muhit yuzaga keldi. Italiya hududida Rim koloniyalarining uyushganligi asosiy rol oʻynadi. Rimning madaniyati tarixi uchun Janubiy Italiyadagi yunon shaharlarining egallanishi katta ahamiyat kasb etdi. Natijada rimliklar uchun yunon madaniyati, adabiyoti, tili hamda falsafasini yaqindan oʻzlashtirishga sharoit yaratildi.

Meʼmorchilik. Aksariyat qurilgan yodgorliklarning katta qismi Rim shahri respublika va imperatorlik davrida (mil. av. VIII asrda) tarkib topdi. Rimning markazi uchta: Kapitoliy, Palatin va Kvirinal tepaligi bilan chegaralangan botqoqlik tekisligida shakllandi. Ana shu yerda Qadimgi Rim markazi Rim forumi (Forum Romanum) paydo boʻldi. Forum mil. av. II asrda savdo va jamoat maydoniga moʻljallangan.

Keyinchalik birinchi forumga yana beshta forum qo'shildi. Bular (Sezar, Avgust, Vespasiana, Nerva va Troyan singari imperator forumlari) shahar ko'rinishini boyitdi.

Romanum forumi asta-sekin asimmetrik xarakterdagi ko'rinishga ega bo'ldi. Ochiq maydonda birin-ketin joylashgan bu qurilmalar bir-birini to'ldirib turar edi. Forumning respublika davridagi me'moriy majmuasi Afina akropolidan farq qilgan, negaki bularning hammasi yagona badiiy g'oya asosida yaratilgandi.

Respublika davridagi Qadimgi Rim qurilmalari yunon me'moriy orderlari bilan to'liq egallanganligi haqida guvohlik beradi. Bu davrdagi mahobatli qurilmalar, asosan ohaktosh, tufa va qisman marmardan qurilgan. Saqlanib qolgan bu me'moriy yodgorliklar orasida eng mashhurlari mil. av. II—I asrlarda qurilgan Vesta xudosiga bag'ishlangan uch yumaloq ibodatxonadir. Ulardan biri Rim markazidagi Romanum forumida, ikkinchisi esa Tibr daryosi bo'yidagi Boarium (uni ho'kizlar bozori deb ham atashgan), uchinchisi Rimdan sharqqa qarab 30 km naridagi Tivolida (qadimgi Tiburda) qurilgan. Bu ibodatxonalarda rimliklar tomonidan sevib qolingani va Yunonistondan qabul qilib olingan *korinf uslubi* qo'llanilgan.

Tasviriy san'at. Rim san'ati etrusk va yunon san'ati ta'sirida shakllangan bo'lsa ham, biroq o'zining o'ziga xos xarakterli uslubini ishlab chiqdi. Yunoniston tasviriy san'ati xudolar, afsonaviy qahramonlar, atletlar obrazlaridan iborat edi.

Yunoniston rangtasvirida ko'proq afsonaviy mavzulardagi asarlar yaratilar edi. Rimda esa aniq voqealar haqida hikoya qiluvchi asarlar erta rivojlandi. Shuningdek, Rim uchun tipik bo'lgan tarixiy hikoya qiluvchi relyef ham ayni shu vaqtda yuzaga keldi.

Respublika davrining san'ati me'morchilikning uncha ko'p bo'lmagan yodgorliklari, haykaltaroshlik va, asosan, portret obrazlari — Pompey hamda Gerkulanumning (mil. av. II—I asrlar) devoriy rangtasvirlari orqali ma'lum.¹

¹ М.В. Доброклонский и А.П. Чубова «История искусства зарубежных стран». «Первобытное общество, древний восток, античность» М.Изд. «Изобразительное искусство». 1979.

Vizantiya geraldika san'ati

330- yilda Vizantiyada Rim imperiyasining yangi poytaxtiga asos solindi. Yangi poytaxt imperator sharafiga Konstantinopol deb nomlandi.

395- yili imperiya g'arbiy va sharqiy qismga bo'linib ketdi. Bu ikki davlatning taqdiri turlicha shakllandi. Quldorlik jamoasining inqirozi, varvarlarning bosib kelishi V asr oxirida G'arbiy Rim imperiyasini halokatga olib keldi. Biroq imperiyaning sharqiy qismida davlatchilik saqlanib qoldi. Natijada yirik, kuchli feodal imperiya — Vizantiya shakllandi va u ming yillar davomida faoliyat ko'rsatdi. Biroq 1453- yilgi turklarning siquvi ostida u ham quladi.

Ammo Vizantiyaning o'rta asrlar madaniyati tarixidagi roli nihoyatda katta bo'ldi. Uning san'ati va madaniyati nafaqat slavyan dunyosi mamlakatlarida, balki Sharqiy va G'arbiy Yevropada hamda, birinchi navbatda, Italiyada sezilarli iz qoldirdi. San'atning kichik shakllari sohasida va me'morchilikning ba'zi bosqichlarida yaqin sharq bilan uzviy aloqalari kuzatilgan. Vizantiyada va ayniqsa, Konstantinopolda antik an'analar saqlanib qolgan. San'at turlari orasida rangtasvir va mozaika hamda ikona san'ati muhim o'rinni egallagan. Inson tanasining tasviri hamda matolardagi naqshlarda Ellin an'analari saqlanib qolgan bo'lsa-da, asosiy e'tibor, tananing tashqi ko'rinishiga emas, balki insonning ichki va xristiancha ilohiy o'xshashlikka xos bo'lgan ma'naviy obraziga qaratilgan.

Vizantiyada aynan san'atning shakllarida diniy dunyo-qarashlar hukmronligining nihoyatda singib ketganligini ko'rish mumkin edi. Buning ifodasi me'moriy shakllardagi xochli gumbazlarda namoyon bo'lgan.

Vizantiya san'atining shakllanishi Rim imperiyasining viloyatlarida yuz berdi. Sababi, qadimdan yunon ellinistik san'ati old Osiyoning qadimiy badiiy, madaniy an'analari bilan bir-biriga singib borgan. Vizantiyaning yangi poytaxti Konstantinopolda IV—V asrlarda turli xalqlarning badiiy madaniyati elementlari qo'shib ketgan edi. Shaharning keng ko'lamli

maydonlari, mahobatli ustunli bezaklari, imperator haykallari antik Rimni eslatar edi (11, 12- rasmlar). Shaharning o'zi V asrning boshlarida qad rostlagan murakkab mudofaa qurilmalari tizimi bilan himoyalangan. Uning devorlari ikki qatorli chuqur handaqlar bilan o'ralgan, ko'p sonli minoralari bilan va fuqarolar uchun harbiy maqsadlarda qo'llaniladigan bir nechta darvozalardan tashkil topgan murakkab me'moriy tizimga ega edi.

San'atdagi antik an'analar imperiyaning Aleksandriya va Antioxiya kabi sharqiy viloyatlarida ham namoyon bo'ldi. V–VI asrlarda Antioxiyadagi binolarning pollaridagi mozaikalar ko'p tamoyillari bo'yicha antik obrazlarni hosil qilgan. Shuningdek, uncha katta bo'lmagan viloyatlar, shaharlar va sharqiy viloyatlarda mahalliy badiiy madaniyat shakllanib rivoj topdi.

Nazorat savollari

1. *Qadimgi Misr san'atida qanday geraldika qo'llangan?*
2. *Tutanxamon maqbarasida geraldik tasvirlar qo'llanilganmi?*
3. *Qadimgi Yunonistonda geraldikaning qanday turlari ishlatilgan?*
4. *Vizantiya me'morchiligida qanday geraldik tasvirlar qo'llanilgan?*

V BOB.

O'RTA ASRLAR GERALDIKA SAN'ATI

V–VIII asrlarda Yevropa san'ati

Vizantiyadan farqli o'laroq ko'p vaqtlar davomida qadimgi Rimdan meros bo'lib qolgan G'arbiy Rim davlat mahkamasi beshinchi yuz yildayoq inqirozga uchragan edi. Natijada bir vaqtlar gullab-yashnagan imperiya o'rnida endi bir nechta mustaqil davlatlar paydo bo'ldi.

Me'morchilik. Davlatning ilk me'morchiligi haqida Rim imperiyasining xarobalari to'g'risidagi yozma manbalardan bilamiz. Italiya hududidagi yodgorliklardan dastlabki 526–530- yillarda qurilgan qirol Teodorixaning Ravennadagi maqbarasi hisoblanadi. Bu me'moriy qurilma ikki qavat qilib qurilgan ikki xonadan iborat. Qurilmaning siklonik xususiyati uning gumbazining yirik quyilmadan tashkil topganligidir (13-rasm).

Hozirgi Fransiyaning uncha katta bo'lmagan hududida bir qancha cherkovlar, binolar saqlanib qolganligi diqqatga sazovordir. Ular yarim silindr shaklidagi gumbaz bilan yopilgan to'g'ri burchakli maydon va unga tutashgan uncha katta bo'lmagan apsidlarni ifodalaydi. Devorlardagi qo'polroq bezatilgan ustunlar faqatgina konstruktiv emas, balki bezak maqsadlarida ham ishlatilgan (14- rasm).

Badiiy hunarmandchilik. V–VIII asrlarda G'arbiy Yevropada tasviriy san'at yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa-da, naqsh bezakli san'at turlari haddan ziyod jozibadorligi bilan farq qilardi. Bizgacha yetib kelgan san'at asarlarining orasida eng ko'p tarqalgani badiiy hunarmandchilikdir. Ayniqsa metallardan mahsulot tayyorlash, qimmatbaho toshlardan bezaklar yasash, rangli oyna va emal bilan boyitish qimmat baholanar edi. Hozirda ularni Qora dengiz bo'ylaridan Britaniya orollarigacha bo'lgan hududlardagi eski xaroba va qabrlardan topishmoqda. V–VIII

asrlarda Yevropada o'rnashib qolgan xalqlarning hayotida bu buyumlar katta rol o'ynagan. Qadimiy rivoyatlar bilan bog'liq qimmatbaho taqinchoqlar qirol va boy a'yonlarning asosiy boyliklari sanalgan. Xristianlikning paydo bo'lishi bilan urf-odatga ko'ra dindorlarga va ibodatxonalarga bu qimmatbaho buyumlar hadya qilinar yoki hukmdorlar vafot etganlaridan keyin ularning qabrlariga ko'milar edi. Keyinroq qimmatli ashyolardan tayyorlangan buyumlardan ibodatxonalarni jihozlashda foydalanilar edi. Bunday ashyolar orasida ko'p hollarda «yarimxrom» fibulalar (ko'ylak to'g'nag'ichi) tez-tez uchrab turar edi. Bundan tashqari to'quv asboblari, bezakdor qurollar, turli xil taqinchoqlar, idishlar, xochlar, cherkov kitoblari uchun g'iloqlar uchrar edi. Bunday buyumlarga tilla, oltin, mis, qizil shisha yoki rubindan ishlangan buyumlar xarakterli edi. Misol tariqasida Chezina (Shimoliy Italiya)dan topilgan qanotlari yozilgan burgut shaklidagi fibulalarni keltirish mumkin. Shu kabi fibulalar vestgotlar Ispaniyasida ham tayyorlangan. Ulardan bir qanchasi 1858- yili Toledo yaqinidagi Gvarrazarda topilgan edi. Gvarrazar topilmalari tarkibiga bir necha xil tojlar (qirol Resesvintning toji va boshqalar) kirar edi. Hozirgi kunda bular Madriddagi milliy arxeologiya muzeyida va Parijdagi Kluni muzeyida saqlanadi. Mazkur qimmatli buyumlar cherkovlarga hadya qilinib, ularning peshtoqlariga ilib qo'yilar edi.

Franklar qirolligidagi ustalar mohir san'atkorlar sifatida yuqori pog'onalarga erishgan edilar. V asrda ishlangan qirol Xilderik qabridan topilgan qilichda qizil inkrustatsiyalangan oltindan unumli foydalanishgan. Sen Deni (570- yilga yaqin) abbatligidagi Arnegudlar maqbarasidan topilgan ko'pgina taqinchoqlar ham o'zining nafis va bejirim ishlanganligi bilan ajralib turadi.¹

Tilla buyumlarning mahorat bilan ishlangan shakllari franklar davrining qiroli Dagobert (629–639- yillarda) hukmronlik qilgan davrda yuqori pog'onaga ko'tarildi. Qirol zarbxonasida boshliq

¹ Н.Г. Несселитраус. «История искусства зарубежных стран». М.Изд. Изоб. Иск. 1982 г.

vazifasida (583—665- yillar) ishlagan yepiskop Eligiyning yozib qoldirgan ma'lumotlariga ko'ra qirol saroy xazinasiga qarashli ustalar obro'sini nihoyatda sharaflagan. Eligiya ustaxonasi emal va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlari bilan shuhrat qozongan. Ular orasida Eligiynomiga yozilgan Sen-Denimonastirining mehrobi uchun ishlagan xoch nihoyatda mumtoz hisoblangan.

XV asrda mazkur ulug' dargoh uchun niderland rangtasvirchisi tomonidan yaratilgan «Avliyo Jilya ibodati» surati nihoyatda mashhurdir. Hozir u Londondagi milliy galereyada saqlanmoqda.

Yevropaning shimolida joylashgan Skandinaviyada buyumlarni «yarim xrom uslubida» ishlab chiqarish rivoj topmadi. Bu yerda badiiy ijodiyotning eng ko'p tarqalgan turi, maishiy maqsadlarda va me'morchilikda ko'p qo'llaniladigan yog'och o'ymakorligi nihoyatda rivojlangan. Skandinaviya san'ati namunalaridan Oslo (Norvegiya) yaqinidagi Osebergda o'tgan asrning boshida topilgan yog'och kema-dagi qabrlarga qo'yilgan buyumlar misol bo'la oladi.

Bu yerda (850- yilda) barvaqt olamdan o'tgan yosh qirolicha Ose ko'milgan, deb taxmin qilinadi. Qabrdan o'ymakor naqshlar bilan bezatilgan arava, chana, matolar topilgan. Vikinglar tomonidan kemalar tumshug'iga dahshatli ruhlardan saqlanish va dushmanlarni qo'rqitish uchun o'rnatilgan yog'ochdan yasalgan hayvonlarning niqoblari diqqatga sazovordir. Yog'och o'yma niqoblarda ishlatilgan, bir-birini tishlayotgan, bir-biriga yopishgan jonivorlar ko'rinishidagi tasvirlar mahorat bilan ifodalangan.

Roman davri geraldikasi (XI—XII asrlar)

Buyuk Karl imperiyasining qulashi alomatlari imperatorning hali hayot davridayoq sezilgan edi. Uning vorislari yordamida esa bu jarayon yanada kuchaydi. IX asrning ikkinchi yarmida Karlning o'g'li va nabirasi hukmdorlik qilgan vaqtda ulkan mamlakat hududida yashovchi arablar, vengerlar hamda normanlarning o'zaro urushlari ham qo'shilgan edi.

Yevropa bu vaqtda nihoyatda og'ir davrni boshidan kechirayotgan edi. Ko'plab monastirlar, shaharlar, qal'alar xonavayron bo'lgan, me'morchilik yodgorliklari buzilgan, tasviriy va amaliy san'at asarlari talangan edi. Badiiy ijod tanazzulga yuz tutgan edi. IX va X asrlarning oxiri G'arbiy Yevropa san'ati tarixining eng qora davri hisoblanadi. Faqatgina G'arbning eng asosiy g'animi bo'lgan normanlarning Fransiya shimolida o'troqlashib qolishi G'arbiy Yevropaning qaytadan tiklanishiga sharoit yaratdi. Bu davrda ko'pgina mamlakatlarda tamomila feodal munosabatlarga o'tgan iqtisodiy jonlanish boshlangan, shu bilan birga madaniyatda ham ko'tarilish yuz berdi. Keyingi yillarda G'arbiy Yevropaning deyarli hamma joyida san'atning, madaniyatning riojlanishiga imkon yaratildi. San'atning bu yangi davriga *roman uslubi* deb nom berildi. Bu atama XIX asrda XI–XII yuz yilliklar me'morchiligining qadimgi Rim me'morchiligi bilan (qisman yarim aylana arklar va ravoqlarning qo'llanilishi) bog'lanishi natijasida kelib chiqdi.

«Roman uslubi» atamasi «roman tillari» atamasiga o'xshash bo'lib bu davr san'atining bir tomonini aks ettirsa ham biroq undan butun jahon foydalana boshladi. Asosan roman davri XI–XII asrlarni o'z ichiga oladi. Bunda XI asr roman san'atining erta davri, XII asr esa yetuk davri hisoblanadi. Biroq alohida mamlakatlar xronologik (ramkalar) qoliplari Yevropaning mamlakat va viloyatlari bilan to'lig'icha mos tushmaydi. Italiya va Germaniyada bu usul XIII asrning asosiy qismida ustunlik qilgan bo'lsa, aksincha, XII asrning ikkinchi yarmida Fransiyaning shimoli-sharqiy qismida gotik davri yetakchi mavqega ega bo'lgan. XI–XII yuz yillikdagi Yevropa me'morchiligi va san'ati turli xil mahalliy maktablarning ko'pligi bilan ajralib turar edi. Aynan shu vaqtda o'ziga mahalliy badiiy an'analarni bo'ysundirgan umumyevropa uslubi paydo bo'ladi.

XI–XII asrlar Yevropa san'ati va madaniyatining mamlakat va viloyatlar bilan nihoyatda kengroq tarzda munosabatlar qurishi uchun sharoit yaratildi. Buni amalga oshirish ishlari cherkovlar zimmasiga tushdi.

XI–XII asrlarda cherkov hal qiluvchi kuch bo‘lib qoldi. Cherkovlarning o‘sha davr ma’naviy dunyosiga bo‘lgan ta’siri cheksiz edi. Uning qo‘lida ulkan moddiy mablag‘lar to‘planishi, ayniqsa, monastirlar imkoniyatining sezilarli darajada ortishiga olib keldi. Ko‘pgina monastirlar umumiy qoida bo‘yicha diniy uyushmaga qarashli bo‘lib, u esa, o‘z navbatida, faqatgina bosh ruhoniylar hukmini e’tirof etuvchi monastirga bo‘ysunar edi.

Shu tarzda XI asrda Umumiy Yevropa monastirlar birlashmasi va eng qudratli Kluni burgund abbatligi tashkiloti paydo bo‘ldi. Cherkov san’at asarlarining bosh buyurtmachisi bo‘ldi. Uning ulkan boyliklari, imkoniyatlari oldida hattoki hukumat vakillari ham kuchsiz bo‘lib, bu sohada yetakchi rol monastirlarga taalluqli bo‘lib qoldi. Ularning faolligi shu darajada ediki, Fransiya, Angliya, Ispaniya, Germaniyada roman san’ati faqat monastirlarga xizmat qilardi. Roman davrining asosiy san’at turi me’morchilik bo‘lib, bunda ashyoviy va moddiy boyliklar cherkovlar qo‘lida bo‘lganligi sababli roman me’morchiligi cherkovga xizmat qilardi. Shuningdek, uning uslubiy shakllari fuqarolar me’morligiga ham ta’sir qilgan edi. Yevropadagi feodal tuzumning parchalanishi ko‘plab mahalliy maktablarning paydo bo‘lishiga olib keldi (15, 16- rasmlar).

Me’morchilikning asosiy vazifasi toshdan cherkovlar va ibodatxonalar qurish edi. Uning asosiy uslubi «bazilika» uslubi sanalgan. Ammo ilk yodgorliklardan farqli bu davrning bazilika loyihasi va kompozitsiyasi ancha murakkablashgan. Ruhoniylar uchun mo‘ljallangan ibodatxona sharqiy qismi kengaytirilgan. Uning bu qismi yana qator arklarni hosil qilardi va ba’zida uning hamma loyihasi murakkablashar edi (bunday qurilish ko‘proq Fransiyada kuzatilgan).

Gotika davri geraldikasi

«Gotika» atamasi roman san’ati tushunchasiga nisbatan shartlidir. U, asosan, Italiyada paydo bo‘lgan.

Ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida gotikaning taraqqiyot davri XIII–XIX asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davr uchun shaharlarning

tezlik bilan rivoj topishi xarakterlidir. Natijada kelgusidagi gotika san'atida feodal unsurlari bilan byurgerlar madaniyatining kuchli qirralari uyg'unlashdi. Endi ijodiy faoliyat monastirlardan sexlar tashkilotiga birlashgan qo'li gul ustalar qo'liga o'tgan edi. Bunday holat gotika san'atini roman san'atidan ikki jihatdan farqlashga imkon berdi. Birinchisi ratsional holatlarning kuchayishi bo'lsa, ikkinchisi, realistik tendensiyalarning kuchliligi edi.

Ratsionalizmning kuchayishi, ayniqsa, o'ziga xos tizimga asoslangan konstruksiya va bezakli me'morchilik sohasida namoyon bo'ldi. Bu tizim Fransiyaning katta shaharlarida qurilgan soborlarda shakllandi. Fransiya gotika stili XII asrning birinchi yarmidayoq kuchli shakllandi. Bu soborlar shaharlarning fahri bo'lib to'g'ridan-to'g'ri diniy maqsadlar uchun xizmat qilar edi. Ba'zan ulardan fuqarolarning jamoa yig'ilishlarida foydalanilar edi. Gotik qurilmalarning konstruksiyasi quyidagi tizimga ega bo'ldi. Ya'ni, u o'zida binoning uchta asosiy unsurlarini uyg'unlashtirgan sinchlar asosida yaratilar edi. Bular quyidagilar:

1. Nayzasimon shakldagi gumbaz.
2. «Arkbutan» deb nomlanuvchi tizim.
3. Qudratli kontrforslar.

Bazilika turi roman uslubi bilan taqqoslanganda nihoyatda soddaligi bilan ajralib turgan. Asosiy uchi bir qator to'g'ri burchakli bo'limlarga bo'linadi. Ularning har biri diagonali bo'yicha kesishuvchi arklar (nervyur) bilan yopiladi. Bu og'irlikni tik tayanchlar (ustunlar) ko'tarib turadi. Tashqi devorlariga esa tutashgan asosiy bosim beriladi. Ular kontrforslarga devordan o'tib, tomning tepasiga tashlangan past yon nervyurga tayanadi.

Shunday tizimda nervyur va yon neflarning bo'laklari yopiladi. Nervyurlar orasidagi qubbalar qismi (kemachalar) yengilligi bilan ajralib turadi va og'irligi deyarli bo'lmaydi. Kontrforslar bilan devor orasidagi qismlar ham yengildir. Arklarning nayzasimon shakli, yarim aylanali qubbalar nayzasimon ko'rinishi gotika me'morchiligining konstruksiyasini ifodalaydi. Nayzasimon qubba ravoq deraza,

eshiklarda, peshtoqlarda hamda bezash maqsadlarida ham qo'llaniladi.

Me'morchilikdagi gotika uslubiga eng ko'p tarqalgan tashqi bezakdor shakllardan kontrforslardagi uchi o'tkir minoralar, deraza va eshiklar tepasidagi baland peshtoqlar, minorachalarning yuqorigi qismi, shuningdek, arkbutanlar va minorachalarning qovurg'alari bo'yicha uslubiylashgan barglari (krabblar) taalluqlidir. Bularning ichida eng ko'p tarqalganlari uch pog'onaga (yarusga) bo'lingan ikki minorali fasaddir. Ular nihoyatda boy tarzda bezatilgan peshtoqqa ega bo'lib, tepasida katta doiraviy deraza (atirgul) joylashgan. Qavatlar bo'yicha uch qatorga taqsimlanish o'rta qubbaning ichida ham qo'llanilgan. Arkalarning qavati tepasida uncha baland bo'lmagan bezakdor galereya (triforiy) joylashgan. Uning tepasida esa soborning asosiy qismiga yorug'likning to'g'ridan-to'g'ri tushishini ta'minlovchi juda katta deraza-atirgul joylashtirilgan. Deraza, ya'ni atirgul toshlar bilan bezatiladi. Ularning oraliq masofalariga esa rangli shisha (vitraj)lar o'rnatilgan (17, 20- rasmlar).

Gotik cherkov fasadi va boshqa qismlaridagi haddan tashqari ko'zga tashlangan shakllar, fasadni jihozlovchi haykallarning ko'pligi uning toshdan to'qilgan kashta bilan o'ralgandek taassurot qoldiradi. Uning ichki jihozlanishida esa tantanavor ulug'vorlik kasb etadi. Rangli shisha vitrajdan o'tayotgan yorug'lik tashqaridagi ichki bo'shliqdagi jo'shqinlikni yanada kuchaytiradi.

Tasviriy san'at turlari orasida gotika davrida katta ahamiyatga ega bo'lgani haykaltaroshlikdir. Kechki roman plastikasining yutuqlari asosida shakllangan gotik haykaltaroshligi me'morchilik bilan uzviy aloqada rivojlandi.

XII asrning o'rtalarida aylanma plastikaning ilk yodgorliklari paydo bo'ldi, biroq XIII asr boshlarida gotika haykaltaroshligi yetuklik davriga qadam qo'ydi. 30–40-yillarda uning eng gullagan davri boshlandi. Gotika haykaltaroshligi katta soborlar qurilishi bilan bir vaqtda rivojlandi. Bu sohada, ayniqsa, har birida ikki mingdan kam bo'lmagan haykaltaroshlik asarlari bo'lgan. Shartr, Amyen

va Reymsdagi fransuz soborlari alohida o‘rin tutadi. Syujet tanlashda mazkur majmua cherkovlar tomonidan o‘rnatilgan qat’iy qoidalarga bo‘ysungan. Sobor fasadlaridagi (old qismida) tasvirlar o‘sha davrdagi diniy dunyoqarashlar tizimini ifodalaydi (18, 19, 20- rasmlar).

Ibodatxonaning umumiy g‘oyasi asosida quyoshning botishi tomoniga qaratilgan g‘arbiy fasad «Dahshatli qiyomat qoyim» mavzusiga bag‘ishlangan. Uning markaziy maydonidagi tasvirlar quyidagicha: yuqorida o‘z jarohatlarini ko‘rsatayotgan Iso payg‘ambarning o‘tirgan holati, uning yon tomonlarida Bibi Maryam hamda Evangil Ioann (ba‘zan Ioann Krasitel), ularning atrofida esa farishtalar tasviri. Ularning yonida insonlarning yaxshi-yomon ishlarini sarhisob qiluvchi Mixail Arxangeli, chap tomonda jannatga kirayotgan taqvodorlar tasviri, o‘ng tomonda esa gunohkorlar ustidan g‘olibona turgan Iblis va jahannamda azoblanayotganlar; yanayam pastroqda ochilib ketgan qabrlar va murdalarning qayta tirilishlari sahnasi tasvirlangan.

Timpanlar tagida, kiraverishda ikki tomonda Iso payg‘ambar va avliyolar haykallarini uchratish mumkin. Peshtoq yonlaridagi Bibi Mariyam timpani «Uspeniya», «Bibi Mariyamning samoga ko‘tarilib ketishi», «Toj kiydirish» sahnalari bilan to‘ldirilgan. Avliyolarga bag‘ishlangan peshtoqlardagi lavhalarni tasvirlashda ular to‘g‘risidagi xalq orasida keng tarqalgan afsonalardan foydalanilgan.

Dunyoning yaratilishi haqidagi umumiy tasavvurlarni o‘zida mujassamlantirgan gotik sobori nafaqat diniy syujetlarni, balki real dunyo haqiqatini ham aks ettirar edi.

Yil oylarining o‘n ikki burji yoki qishloq xo‘jaligi sahnalari ham o‘z aksini topgan.

Allegorik figuralarda inson ma‘naviy hayotining turli xil sohalari, grammatika, ritorika, arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa fanlari aks etgan. Qirol, ritsar, hunarmand va dehqonlarni tasvirlash orqali feodal jamiyatning iyerarxiyaviy tuzumi ko‘rsatilgan.

Gollandiya va Germaniya geraldikasi

XVI asrning birinchi yarmida Niderlandiyaning iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Kapitalizmga xos munosabatlar, ayniqsa, Gollandiya, Zellandiya, Utrext va mamlakatning boshqa hududlarida rivojlandi. U yerlarda, ayniqsa, dengizda suzish va baliqchilik bilan shug'ullanish katta ahamiyatga ega bo'ldi. Gollandiya shimoliy mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borar edi. Antverpen shahrining raqobatdoshi bo'lgan Amsterdamning ahamiyati borgan sari orta bordi.

Me'morchilik sohasida Uyg'onish davri (Renesans) elementlari Niderlandiyada XV asrning oxiri va keyingi yuz yillikning birinchi yarmida paydo bo'la boshladi. Italiyaning Uyg'onish davri Niderlandiya me'morchiligiga ta'sir qilmasa ham o'zga yo'l — amaliy san'at asarlari, gravyura va rangtasvir orqali kirib keldi. Shuning uchun Niderlandiya binolarida Italiya renesansining turli xil ko'rinishlarini kuzatish mumkin. Tashqaridan qabul qilingan bu shakllar dekorativ bezaklarda qo'llanilgan. Shu bilan birga ularning qo'llanilishi binoning odatiy bo'lib qolgan gotik konstruksiyasi eski uslublariga xalaqit qilmagan. Ustunlarning order uslubi elementlari, renesans rahlar oddiy o'rta asr binolariga o'rnatilar edi. Natijada klassik mutanosiblik sezilarli darajada o'zgardi. Nihoyatda baland peshtoqlar zinapoya shaklida qurila boshladi, fasadlarda erkerlar, yarim aylana shaklidagi fonarlari ajralib turadi. Bu borada ko'psonli binolardagi sexlar, savdogarlik birlashmalari, maydonlar o'ziga xos xarakterini saqlab qolgan.

Germaniyada gotika san'ati Fransiya gotikasidek barqarorlik va birlikka ega emas edi. Fransiyada feodalizmning rivojlangan sharoitida markazlashgan monarxiya davrida Germaniyada siyosiy parchalanish davom etardi. Shtaufenlar sulolasining qulashi (1254–1275- yillar) feodallarning uzoq davom etgan hukmronlik davrini boshlab berdi.

Xuddi Fransiyadagidek Germaniyaning gotik me'morchiligi avvalambor shahar me'morchiligi bo'lib sanalgan. XIII asrda

Germaniyaning yirik shaharlarida katta soborlar qurildi. Nemislar me'morchiligi fransuzlarning ta'siri ostida shakllandi. XIII asrning birinchi o'n yilligida Germaniya ustalari fransuzlarning gotik san'atlarini tiklash maqsadida fransiya ustaxonalarida ishladilar. Vatanlariga qaytgach, ular bir qancha yangi shakl va konstruktiv usullarni keyingi amaliy faoliyatlarida qo'lladilar. Ammo Germaniyaning bir qancha ilk yodgorliklarida fransuz me'morchiligining ta'siri ko'ringan bo'lsa ham nemislar gotika san'atida taqlidiylik sezilmas edi. Ko'plab nemis ibodatxonalari fransuz namunalaridan tubdan farq qiladi.

Gotika uslubining taniqli soborlaridan bo'lmish Keln sobori (XIII–XIV asrlar XIX asr o'rtalarida qayta qurilgan) Amyen soborida o'zining prototipiga ega (21- rasm).

Germaniya me'morchiligidagi o'ziga xos tipik xususiyatlardan baland minoralarning o'tkir uchligi va vertikalizm yorqin ifodalangan.

Germaniya gotika shakllari bilan bir qatorda ko'psonli mustaqil yechimlarni ifoda etgan. Masalan, bir minorali bosh fasad shu yerda ishlab chiqilgan. Freyburg (XIII–XIV asrlar) va Ulmdagi (XVI–XVI asrlar) minoralar shular jumlasidandir. Va, nihoyat, shimoliy Germaniyada g'ishtli me'morchilikning o'ziga xos mustaqil uslubi ishlab chiqilishi munosabati bilan ko'plab inshootlar o'zidagi vazni og'ir shakllari bilan ajralib turadi.

Cherkov binolaridagi yassi devorlar, deraza va eshiklar oralig'ida nayzasimon bo'linishlar alohida xususiyatga ega.

Nazorat savollari

1. Vizantiya san'ati geraldikasi haqida gapirib bering.
2. O'rta asr saroylarida qanday geraldik tasvirlarni ko'rish mumkin?
3. O'rta asr ibodatxonalaridagi geraldik tasvirlarga misol keltiring.
4. O'rta asr amaliy san'atida geraldika qo'llanilganmi?
5. Roman davri san'ati geraldikasi haqida gapirib bering.
6. Soborlardagi tasvirlarda, asosan, nimalar aks etgan?
7. Ibodatxonalardagi tasvirlarda qanday geraldik ko'rinishlarni kuzatish mumkin?
8. Saroylardagi tasvirlarda aks etgan geraldikada kimlar ifodalangan?
9. Cherkovlar fasadidagi bo'rtma tasvirlarda qanday geraldik tasvirlarni kuzatish mumkin?
10. «Gotika» atamasining ma'nosini ayting.

11. Gotika me'morchiligining roman me'morchiligidan farqi nimada?
12. Gotika qaysi mamlakatlarda rivojlandi?
13. Gotika me'morchiligida geraldikaga xos qanday belgilar mavjud?
14. Gotika me'morchilik san'atida haykaltaroshlikning o'rni qanday?
15. Umumyevropa gotik soborlari tipi qanday shaklda bo'lgan?
16. Ustunli tipdagi geraldikada nimalar tasvirlangan?
17. Germaniya gotika me'morchiligining Fransiya nisbatan xarakterini ayting.

VI BOB. RUS SFRAGISTIKASI VA GERALDIKASI

Markazlashgan rus davlati davridagi muhrlar

Markazlashgan Rus davlatining tashkil etilishi hukumat organlarining mustahkamlanishiga olib keldi. Markaziy mahalliy tashkilotlarning soni ortib borib, ish yuritish murakkablashdi. Markazlashgan rus davlatida ishlab chiqarish jarayonining asta-sekin rivojlanishi tufayli mamlakat shahar va viloyatlarining, shuningdek, markaziy va mahalliy mansabdor shaxslar muhrlariga ega bo'la boshladi.

Shu davr muhrlarining asosiy qismi hujjatlar bilan saqlanar edi. Amaliyotdagi qadimgi metall muhrlar asta-sekin muomaladan chiqarilgan va mastik muhrlar bilan almashinilgan.

Gerblarning kelib chiqish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Avvallari ularning o'rniga har xil tamg'a va totemlarning tasvirlari xizmat qilgan. Ular diniy marosimlar hamda xususiylik ramzlarini ifoda qilgan.

«Gerb» atamasi juda tor ma'noda ham qo'llaniladi. U G'arbiy Yevropa geraldikasi an'analari va ma'lum qoidalar asosidagi kompozitsion yechimni aks ettiruvchi tasvirlardan iborat bo'lgan.

Gerblarning eng so'nggilari G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlar, ya'ni XI–XIII asrlarda paydo bo'lib, salib yurishi davrlari bilan bog'liqdir. O'sha vaqtda ritsarlarni faqat maxsus belgi, ya'ni gerbdan tanish mumkin bo'lgan. Ayni ana shu davrlardan geraldika, ya'ni gerblarni tuzish san'ati kelib chiqqan. Ritsarlik geraldikasining gullagan davri XIII–XIV asrlarga to'g'ri keladi. O'sha vaqtlarda geraldik (emblemalar) ramzlar hayot jarayoniga aylangan edi. Ularni kiyimlarga tikib, bayton, uylar, pechlar, flyugerlar va boshqa ko'plab turli buyumlarni bezaganlar. Gerblar rang va shakli bilan

farqlanib, maxsus qoidalar bo'yicha yaratilgan va o'ziga xos atamalar bilan nomlangan. Uning har bir unsurlari — rangi, shakli ma'lum bir ma'noni bildirar edi. Masalan, rangi bo'yicha gerb egasining millatini, xochning mavjudligi esa uning qaysi urug'dan va qaysi salib yurishida qatnashganligini: masalan, qo'llarida xoch rasmi tushirilgan bo'lsa, vafodorlikni, sher ramzi tushirilgan bo'lsa jasurlik va bag'rikenglikni, laylak esa hushyorlikni ifodalagan.

Bu o'sha davrlarning o'ziga xos obrazli tili bo'lgan edi. Geraldik unurning jamlanganligi natijasida geraldika alifbosi hosil bo'lar edi. Har bir yuqori tabaqa vakillari geraldik ma'lumotni egallashi va har qanday gerbni «o'qiy» olishi shart edi.

XV asrda gerblarni tasdiqlash hukmdorlar tasarrufida edi. U vaqtda gerblarga qo'shib maxsus guvohnoma, gerbli yorliq, davlat idoralarida esa maxsus geraldika masalalari va muammolari bilan shug'ullanuvchi uyushma paydo bo'lgan. XIV asrdayoq uyushmalarning tuzilishi boshlanadi. Ular «gerbovniklar» deb atalgan. Ularning ichida eng qadimiysi 1320- yilda yaratilgan Syurix gerbovnigidir.

G'arbiy Yevropada turli ko'rinishdagi gerblar — davlat, shahar, urug'chilik gerblari shakllangan edi. Gerb o'zida siyosiy ma'noni anglatardi. Shahar gerbi shaharning rivojlanish darajasi, uning suvereniteti va siyosiy huquqining ko'rsatkichi bo'lgan. Gerb dvoryanlar uchun ularning ulug'vorliklari, tabaqalanishini gavalantiradi. Masalan, XVI asrda Parijning tillafurush hunarmandlari qirol Filipp Valuadan qirollik nilufar guli, oltin xoch va hunarmandning an'anaviy ramzini ifodalovchi ilohiylashgan oltin idish va toj tasvirlangan gerb qabul qilib olishgan.

O'sha vaqtlarda «Shikoyatlar va talablar» deb nomlanuvchi davlat gerblari guruhi alohida siyosiy ma'noga ega edi. Mazkur guruh o'z tarkibiga bir vaqtlar shu davlat qo'l ostida bo'lgan va qachonlardir unga qaram o'zga davlat, mamlakat, yer va shaharlarning geraldik tasvirlarini kiritib olgan edi. Masalan, Daniya qirol i Xristian II 1520- yilda bir vaqtning o'zida Shvetsiya qirol i ham bo'lgan edi. Daniya gerbiga shvedlarning havorang

fondagi uchta tilla toji tasvirlangan gerbi kiritilgan edi. Vaqti kelib Shvetsiya yana Daniyadan ajralsa-da, Daniya ramzli nishoni shvedlarning nishonini saqlashda davom etdi. Va bu shikoyatlar gerbi bo'lgan edi.

Patronatlar (himoya ostiga oluvchilar)ning gerblarida sof feodal munosabatlarga alohida urg'u berilar edi. Bu nishonlarda oila, qavm va shaharlarning gerblari kiritilgan. Odatda bunday gerblar qandaydir bir hukmdor tomonidan halol xizmatlarni taqdirlash sifatida berilar edi. Ba'zan gerb tarkibiga o'sha qavmning o'z hukmdoriga ko'rsatgan xizmati belgisi kiritilar edi. Bularning hammasi ramz tasvirining tarixidir.

1329- yili Shotlandiya qiroli Robert Bryus o'lim to'shagida yotgan chog'ida bahodir ritsar Qora Duglasning yuragini o'sha vaqtda muqaddas yer hisoblanmish Falastinga ko'chirishni topshirdi. Chunki Qora Duglas mavrlar bilan bo'lgan shiddatli olishuvda umrining oxirgi soniyalarigacha o'z qirolining yuragi solingan qutini ushlab turib jon bergan edi. Shundan beri Duglaslar avlodi gerblarining nishonida qirollik tojini ulug'lovchi yurak va «Ijro qilmoq yoki o'lmoq»¹ degan shior bitilgan.

Yevropada ritsarlarning qalqon va bayroqlarida paydo bo'lgan geraldik emblemalar asta-sekin o'zga sohalarda namoyon bo'la boshladi: masalan, ularni muhrlarda, tangalarda, me'moriy yodgorliklarda va qabr ustilarida ko'rish mumkin.

Mahalliy geraldikaning o'ziga xosligi shundaki, uning ildizlari asrlar qa'riga borib taqaladi. Gerbga o'xshash emblemalar miloddan avvalgi oxirgi asrlarda uchragani sababli bu emblemalar qadimgi rus davlatining geraldik ramzlariga aylandi.²

Rossiyada geraldikaga qiziqish XVII asrning ikkinchi yarmida podsho Aleksey Mixaylovich davrida paydo bo'ldi. Bunga qo'shni mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlarning

¹ Н.Г. Несселиштраус. «История искусства зарубежных стран». М.Изд. Изоб.Иск. 1982 г.

² В.С. Драчук «Рассказывает Геральдика». Издательство «Наука» М: 1977.7-22 betlar.

kengayishi va ularning davlat gerblarini bilish sabab bo'lgan edi. 1672- yil rus podshosining tituliga kiruvchi qo'lyozma «Titulyarnik» tuzildi. Unda hamma buyuk knyazlar va podshoh hamda 33 ta davlat gerblari tasvirlangan edi. «Titulyarnik» o'zida rus podshohining Yevropa monarxlari orasidagi yuqori mavqeini ko'rsatishi kerak edi.

XVI asr oxirida rus dvoryanlari muhrlarida geraldik tasvirlarni qo'llashni boshladilar. Ba'zan dvoryanlar biron-bir qavmga mansub bo'lmaganliklari uchun ko'p elementlarni Polsha – Litva gerblaridan o'zlashtirdilar.

Pyotr I podsholigi vaqtidan boshlab rus gerblarining rasmiy reglamentatsiyasi va Geroldiya tashkil qilindi. Uning vazifasiga urug'dosh va mahalliy gerblarni tuzish kirgan edi. XVIII asrning boshida esa gerbli muhr «haqgo'y va qadimgi qavmlar» vakilining eng muhim ajralmas belgisi bo'lib qoldi.

Geraldika, asosan, G'arbiy Yevropaning asosiy geraldik an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Biroq rus geraldikasida G'arbiy Yevropadan qabul qilingan maxsus uslubiy til yo'q edi. Gerblarni tasvirlash batafsil bo'lsa ham, ranglari va geraldik tasvirlar oddiy so'zlar bilan nomlangan edi.

XVIII asrning ikkinchi choragida asosiy e'tibor dvoryan gerblariga qaratilgan. 1723- yili Senat Rossiyaning hamma shaharlarida mahalliy sud tashkilotlari uchun har bir shahar o'zining gerbiga ega bo'lishi shartligi haqidagi maxsus farmoni e'lon qilindi.

Rossiya shahar geraldikasining o'ziga xosligi shunda ediki, unda tasvir aniq va realistik bo'lishi bilan birga u o'zidagi mistik ramziylik yoki sharqona bezakdorlik bilan ajratib turishi kerak edi. Rus geraldikasining talablari bo'yicha gerb shahar tarixini, ahvolini, iqtisodiyotini, an'analarni, shu bilan birga avliyolar marosimlarini yoki jonzotlarni tasvirlashi kerak edi. 1730- yili 88 ta shahar gerblarini tasdiqlash haqidagi farmon chiqdi.

XVIII asr davomida maxsus dvoryanlik va uning darajasini belgilovchi yuzlab gerbli diplomlar berilgan. Bunday gerblar ba'zan yangi dvoryanlar tomonidan taqdim etilgan chizgilar yoki «ritsarlik tamoyilining nishon va ramzlari bo'yicha

tuzilgan. Bunda qadimgi dvoryan qavmlari ham o'zlarining geraldik ramzlarini tartibga keltirganlar.

Qadimgi rus dvoryanlari qavmlariga taalluqli gerblarning nishonlari G'arbiy Yevropaning nazariy geraldikasiga mos kelmas edi. Rus geraldikasining tadqiqotchisi A. Lakiyerning fikricha, rus gerblari o'zining tarixi va nazariyasiga ega. Mazkur gerblardagi ramzlar tarixi IX asrda yashagan rus knyazi Vladimir knyazlik qilgan davrga borib taqaladi. Bunday gerblarga qarab uning qaysi qavmga mansubligini, qavm boshlig'ining kimligini bilish mumkin edi.

Rus urug'chilik gerblarini hisobga olish uchun 1797- yil Pavel I butun Rossiya imperiyasining umumiy dvoryan urug'larining Gerbovnigini tuzish topshirig'ini berdi. Uni tayyorlash 1917- yilgacha davom etdi. Hammasi bo'lib, Gerbovnikning 20 ta qismi tuzilib, uning tarkibida 5 mingdan ortiq gerblar mavjud edi.

Rossiyada jami 10 mingdan ortiq gerbovnik bor edi. XVIII asr oxirida gerblar bo'yicha maxsus amaliy qo'llanmalar paydo bo'ldi. Ularning qatoriga Nestor Maksimovich-Ambodikning «Tanlangan ramzlar va nishonlar» va I.X. Gattererning «Chizilgan gerbshunoslik» kabi kitoblarini keltirish mumkin. Bular Yevropada chop etilgan tarjimalar bo'lgani uchun rus gerblarining maxsus sohasini namoyon etmas edi.

A. Lakiyerning «Rus geraldikasi» nomli 1855- yilda chop etilgan kitobi, gerblarning qadimiy tarixiga bag'ishlangan ilk ilmiy izlanishlar mahsuli edi. Asar XIX asrning oxirlaridayoq noyob manba bo'lib qoldi. Muallif o'zining tadqiqotida rus gerblari evolyutsiyasini davlat tarixi bilan bog'lashga intildi va uning kelib chiqish tarixi hamda milliy xarakterini isbotlashga harakat qildi.

Faqat 40 yildan so'ng, XIX asrning 90- yillarida P.P. Vinklarning ikkita ma'lumotnoma qo'llanmasi nashrdan chiqdi. Uning birinchisida bir qancha dvoryanlarning gerblari, ikkinchisida esa shahar nomlarining alfavit tartibida joylashgan shahar gerblarining atlasi, guberniyalar, posadlar va viloyatlarning 1900- yilgacha tasdiqlangan gerblari joy olgan edi.

XX asrning boshlarida geraldika muammolariga, uning tarixiga qiziqish bir qancha jonlandi. 1908- yil Moskvadagi me'moriy institutda o'qilgan Yu.V. Arsenyev ma'ruzalari chop etildi. Ularda, asosan, G'arbiy Yevropa geraldikasi tarixi o'rin olgan. Muallif qaysi mamlakatlarda geraldika rivojlangan bo'lsa, o'sha mamlakat tarixida o'ziga xos kalit bo'lib xizmat qiladi va geraldikani bilish sfragistikani¹, numizmatikani (tangalar haqidagi fan), paleografiya, diplomatikani o'rganish vaqtida yordam beradi.

1912–1913- yillarda V. Belinskiy «Rus geraldik lug'ati» yaratgan. Lug'at xuddi geraldik ensiklopediyadek tuzilgan bo'lsa ham, undagi geraldik figura va nishonlar alfavit tartibida joylashtirilgan, matnlarning ma'nosi geraldikaga oid bo'lgan. Biroq ushbu lug'at faqat «G» harfigacha tuzilgan.

Afsuski, geraldik lug'atni yaratish g'oyasi hozirga qadar amalga oshirilmagan. Ko'p sonli mutaxassis va asosan marka, nishonli belgilar, tangalar va boshqalarni yig'uvchilarda ehtiyoj nihoyatda kattadir.

XX asrning ikkinchi o'n yilligi boshida geraldika sohasidagi anchagina muhim ishlar V.K. Lukomskiyga taalluqli. U yordamchi tarix sohalari bo'yicha yirik mutaxassis edi. V.K. Lukomskiy o'zining inqilobgacha bo'lgan davrdagi ishlarida alohida gerbli tasvirlarni e'lon qiladi va boshqa geraldikachilar bilan birgalikda Rossiya dvoryanlari gerblarini yaratadi.

V.K. Lukomskiyning rus geraldikasiga taalluqli mehnatlari hozirgi kungacha o'zining ilmiy qadr-qimmatini yo'qotmagan. 1911- yil V.K. Lukomskiy tomonidan «Rossiyaning geraldik badiiyligi» tadqiqoti e'lon qilindi. Unda rus gerblarining yaratilish tarixi haqida ocherk hamda geraldikaning arxiv ashyolari o'rin olgan. Muallif unda qadimiy gerblar badiiy ijrosining darajasiga baho beradi.

1917- yilgacha gerblar xususiy mulk belgisi sifatida turli xil buyumlarda — idishlarda, suratlarda, bayroqlarda tasvirlangan. Gerblar hozirgacha o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Gerblar muhrlarda joylashtirilar ekan, geraldika sfragistika bilan uzviy

¹ *Sfragistika* — muhr haqidagi fan.

aloqadadir. Bu aloqa shunchalik ahamiyatliki, ularni ajratish mumkin emas.

Sfragistika va geraldika tarixiy fanlar yordamchisi bo'lmish numizmatika bilan ham uzviy bog'langan. Tangalar — sifatli toza metall va og'irligi davlat hokimiyati tomonidan tasdiqlangan pul belgilaridir. Pul belgilarining tasdiqlanishi hujjatlarning tasdiqlanishi bilan umumiylikka ega. Shuning uchun muhr va tangalarda ko'p hollarda gerb tasviri beriladi. Numizmatika geraldika va sfragistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirgani uchun ham sfragistikani o'rganish vaqtida geraldika va numizmatikaga murojaat qilib turishga to'g'ri keladi.

Sfragistika va geraldikani manbashunoslikning asosiy masalalaridan ajratib o'rganish mumkin emas. Tarixning boshqa paleografiya, xronologiya, metrologiya kabi yordamchi fanlari sfragistika va geraldikaning haqiqiy yoki qalbaki yozma manbalari, ularning paydo bo'lgan vaqti haqida fikr yuritishga yordam beradi. Muhr qo'lyozmaning tashqi alomatlaridan biri hisoblanadi. Tashqi alomat qo'lyozmaning hamma masalalari bo'yicha yakuniy javob bera olmaydi. Masalan, haqiqiyliigi, vaqti, joyi, ilk matni, muallifi, kelib chiqishi. Qo'lyozmaning kelib chiqishi haqidagi masalani yechish uchun avval yodgorlikning mazmunini ochib berish o'ta muhim. Muhr manbaning kelib chiqishi haqidagi masalani yechish chog'ida asos bo'lishi mumkin. Shuning uchun yozma manbalar bilan ishlovchi tarixchilar asosiy e'tiborni hujjatlarda saqlangan muhrlarga jalb etishlari mumkin. Muhrning mavjudligi manbaning haqqoniyligini aniqlovchi dalil hisoblanadi. Muhr hujjatga yuridik kuch berishga xizmat qiladi. Shuning uchun ko'rib chiqilayotgan muhrdagi alomatlar boshqa davlat muhrlari bilan mos kelsa, nafaqat muhrning, balki shu muhr tasdiqlagan hujjatlarning haqiqiyliigi haqida gapirish mumkin. Aksincha, muhrdagi belgilar boshqa muhrdagi belgilarga mos tushmasa, u holda manbaning haqiqiyliigi haqida gumon qilish mumkin.

Boquv — feodal parchalanish davrida markazlashgan davlat tuzish vaqtidagi mahalliy boshqaruv tizimi edi. Knyazlar o'z

boyarlarini shahar mahalliy hukmdorlari etib tayinlanganliklari bilan madad berishardi. Boquvchilar joylarda hamma soha bo'yicha — boshqarma, sud, soliq to'lovlari, politsiya va boshqalar ustidan nazoratga ega edilar. Ular ta'minlanganliklari evaziga mahalliy xalqdan tabiiy va pullik boquv olishgan, shuning uchun boquvchilar boquvga davlat xizmati emas, balki shaxsiy boylik manbai deb qarar edilar.

Tarixga nazar

Ibtidoiy jamoa davridayoq ajdodlarimiz qoyalarga, katta toshlarga sodda ish qurollari yordamida turli jonzorlar tasvirlarini o'yib ishlaganlar. O'sha davrdagi qabilalar aynan shu tasvirlarga sig'inganlar. Chunki ular bu hayvonlarni o'zlarining hamqavmlari — totemlari deb bilganlar. O'sha davrlardan oq tadqiqotchilar ushbu tasvirlarda gerblarga o'xshash obrazlarni ko'rganlar.

Qadimiy gerblarda urug', jamoa va oilaviy xususiy mulk belgilari bo'lgan. Masalan slavyanlarda «chegaralar», «bayroqlar», turkiy xalqlarda esa «tamg'alar» bo'lgan. Bu kabi soddalashtirilgan belgilar o'tgan asrgacha vatanimiz hududlarida saqlangan. Masalan, hunarmandlar o'z mahsulotlariga, dehqonlar esa qishloq xo'jaligi qurollariga, chorvaga belgi qo'yganlar.

Dastlabki gerblar o'rnida qadimgi davlatlarning tanga-laridagi, nishonlaridagi emblemalar xizmat qilgan. Miloddan avvalgi III ming yillikda shumer davlatlarida sher boshli burgut tasviri, Misrda — ilon, Armanistonda — toj bilan ulug'langan sher ramzlari tasvirlangan gerblar mavjud edi. Qadimgi Yunoniston shaharlari ham o'z gerblariga ega bo'lganlar. Masalan, Afina gerbida boyo'g'li, Rodosda — atirgul, Samosda — tovus, Korinfda — qanotli ot, Vizantiya imperiyasining gerbida esa ikki boshli burgut ramzlari tasvirlangan.

Qadimgi dunyo ko'pgina o'sha davrlar adabiyoti, san'ati va me'moriy yodgorliklari haqida so'zlovchi ramzlarni qoldirgan. Misrlik va turklarda, yunonlar va rumliklarda simvolik ramzlar allaqachon keng tarqalgan edi.

Nishonlar bilan nafaqat mamlakat va shaharlar, balki o'zining ijtimoiy kelib chiqishi va mulkdorlik darajasi bilan ajralib turuvchi shaxslar ham foydalanishgan.

Gomer, Pliniy va Vergiliy asarlarida jangchilar, qahramonlarning harbiy qurollari haqida batafsil yozib qoldirilgan. O'sha davrdagi ko'plab qalqonlar va dubulg'alar yorqin ramzlar bilan jihozlangan. Iskandar Zulqaynarnning dubulg'asida dengiz otchasi, afsonaviy Axillesaning dubulg'asida esa sher ramzlari tasvirlangan.

Biroq bu ramzlar faqatgina insonlarning shaxsiy ramzlari bo'lgan. Avloddan-avlodga meros qilib o'tkazilmaganligi uchun bunday ramzlarni gerblar deb bo'lmaydi.

Davlat yoki shahar gerblari mahalliy, falsafiy, siyosiy muhim tarixiy voqealarni o'zida mujassam etar edi.

O'rta asrlarda paydo bo'lgan ba'zi bir shahar gerblari hozirgacha saqlangan. Florensiya gerbida — qizil nilufar, Parijniki — to'ra, Londonning gerbida esa xoch va qilich tasvirlangan.

Musulmon xalqlarining gerblarida turli xil geometrik yoki bezakdor naqshlardan foydalanilgan. Gerblar yaratilgunga qadar uzoq yo'lni bosib o'tishlariga to'g'ri kelgan. Haqiqatan ham ular rivojlanishning uzoq yo'llarini, ya'ni qadimiy urug'chilik belgilardan tortib, avloddan-avlodga otuvchi rivojlanish yo'lini bosib o'tdilar.

Sarmatlardan Bosporgacha

Har qanday qadimiy ramziy belgilar ularni tadqiq etuvchi mutaxassislarda bahs-munozaralarga sabab bo'lgan.

Ko'plab kitoblar, ilmiy ishlarda skiflar, sarmatlar, Bospor podsholigi aholisi va Qora dengiz bo'yining antik shaharlari haqida yozilgan.

Biroq bizgacha deyarli kam yozma manbalar, xususan, rum va yunon mualliflarining Qora dengiz bo'ylari tarixi bo'yicha ayrim manbalari yetib kelgan.

Tarixdan bizga qadimgi qabila va xalqlardan turar joy qoldiqlari, qabrlar, maishiy buyumlar, madaniyat yozuvlari

yodgorlik bo'lib qolgan. Ularning ichida oradan ikki yuz yil vaqt o'tsa ham Qora dengizning sirli yodgorliklari olimlar nigohini hamon o'ziga jalb qilib keladi. 1917- yilgacha ularni o'rganish rejali va bir tizimda bo'lmagani uchun muhrga belgilarning noaniq chizgilari tushar edi.

Olimlar bu belgilarni har xil talqin etardilar, ba'zi birlari ularni xat, iyeroglif ko'rinishida qabul qilsalar, boshqalari monogramma yoki bezakli naqshlar, uchinchilari esa diniy ramzlar ko'rinishida tushunar edilar.

Bosqichma-bosqich, ko'p yillik izlanishlar natijasida bu obrazlarning o'zgacha ekanligi ma'lum bo'ldi. Ularning hammasi uchta asosiy guruhga bo'linadi. Eng katta qismini sarmat nishonlari tashkil qiladi (22- rasm). Ular Qora dengiz sarmat qabilalari tomonidan yozilib amalda qo'llanilgan va rumliklar davrida keng tarqalgan. Ikkinchi guruh — Bosporning murakkab podsho gerblari — Tiberiya, Evpatoriya, Savromat II, Reskuporid III sirasiga kiruvchi gerblardan iborat (23- rasm). Gerbsimon tasvirlarning uchinchisi geraldik va afsungarlik xarakteriga ega bo'lgan gerblar tashkil qiladi (24- rasm).

Sarmat nishonlari bilan boshqa xalq nishonlari o'rtasida o'xshashlik holatlari tez-tez uchrab turadi. Bunga sabab, ko'pgina sarmatlarning ilk nishonlarida aynan urug'chilik belgilari tasvirlanganligidir. Keyinroq sarmatlarning geraldik ramzlarida atrof-muhitni o'rab turuvchi predmetlar tasvirlangan.

Sarmat nishonlarini turli xil maqsadlarda qo'llashgan: masalan, ayni bir hudud yoki shaharda yashovchi odamning shaxsini tasdiqlash uchun; bunday holda belgilar g'orlarga, turar joy yoki shahar devorlariga tushirilgan. Yaylov yoki suv havzalari belgilarini katta tosh va suv yaqinidagi predmetlarda o'yanlar; uy-ro'zg'or buyumlarini belgilashda buyum egasining nishonidan foydalanganlar.

Ushbu ramzlardan afsungarlik maqsadlarida ham foydalanilgan. Lekin ba'zan rasmlar bilan belgilarning birlashishi yoki qaytarilishi, o'z navbatida, diniy maqsadlar uchun xizmat qilayotganini ko'rsatib turar edi. Shunday holatlar

bo'lganki, nishonlar shunchaki mexanik tarzda, hech qanday maqsadlarsiz tushirilgan.

Oddiy chizgilar ham sarmat nishonlari bilan bir qatorda, geraldik xarakterdagi sarmatlar ramzi bo'lib qolishi mumkin edi.

O'sha davr mualliflarining (Plinit, Ammian Marsellin va boshqalar) guvohlik berishlaricha ba'zi bir qabilalar, shu qatorda sarmatlar ham ijtimoiy kelib chiqish alomatlarini tasvirlashda maxsus geraldika — tatuirovkalardan foydalanganlar.

Arxeologlar qazish ishlari vaqtida kamar, to'qalardagi juda qiziq nishonlarni, turli xil hunarmandchilik buyumlarni topadilar. Ushbu topilma sarmat podshohlarining gerbli belgilari yoki o'sha davr ustaxonalari faoliyati haqida tasavvurlar bergan.

Arxeologik qazilmalar natijasida turli hududlarda topilgan, ammo aynan bir xil ramziy tavsirga ega bo'lgan sarmatlarning zeb-u ziynatlari, taqinchoqlari o'sha davrda mohir ustalar tomonidan ijod qilinganligini tasdiqlaydi.

Sarmat an'analari Bospor podsholigi nishonlariga birinchi marta Dinamiya hukmronligi davrida kirib kelgan. Tangalardagi tasvirlar ajoyib yunon monogrammasini aks ettirgan.

Bospor podshosi Fofors nishoni uning yaqin qarindoshlariga taalluqli tangalarda uchraydi. Fofors shaxsiy nishonining shaklini aniqlash qiyin.

Bospor podshohlari etib, hukmronlik qilayotgan sulolaga taalluqli bo'lmasa ham sarmatning taniqli vakillaridan saylangan. Bu davrdagi nishonlarni bospor shahrining gerblari bilan bir qatorda bel tasmalarida va tosh taxtachalarda, bospor yoki davlat ahamiyatiga ega bo'lgan alohida yodgorliklarda uchratishimiz mumkin.

Maxsus taxtachaga tushirilgan nishonlar bospor podsholarining shaxsiy nishoni bo'lmay, podsho noibi yoki qabila yo'l boshchisining (sarmatlardan kelib chiqqan) nishoni bo'lishi ham mumkin edi. Misol tariqasida taxtachadagi Evpateriya yozuvini keltirishi mumkin. Ulardan biri podshoh Tiberiy Evpatorga, boshqasi esa kelib chiqishi sarmatlardan bo'lgan taniqli shaxsga tegishli bo'lgan.

Podsho Remetalkuga Tiberiy Evpator gerbiga o'xshash gerb taalluqli bo'lgan. U Tiberiy Evpator gerbidan faqat yuqori qismining to'rtburchakligi bilan farq qilgan (24- rasm).

Bospor podsholari gerblarining shakli borgan sari murakkablashib bordi. Gerb egasining nomi o'zgargan sari gerbning o'zi ham o'zgarardi: gerbning yuqori qismining o'zgarishi uni egasining qarindoshlik darajasiga bog'liq edi. Pastki qismi esa hamma uchun umumiy bo'lgan. Ko'pincha uning ikkala qismining mutanosibligi ushbu tasvirlar tushirilgan yodgorlik o'lchamiga bog'liq bo'lgan.

Gerblarning uchinchi guruhiga geraldik va ilohiy xarakterdagi naqshlar bilan tasvirlangan gerblar kiradi.

Rivojlanishning ilk bosqichida bu naqshlar geraldik xarakterga ega edi. Keyinchalik ramziy naqshlar yanada bezakdor bo'lib bordi. Shunday qilib, geraldik nishonlarni o'rganish vaqtida ulardagi ramziy ornamentlar oydinlashdi, ya'ni asta-sekin ornamentlashib bordi.

Ramziy naqsh o'zida nimani namoyon etardi? Bizga ma'lum bo'lgan bezaklarning ko'pchilik turi Quyosh bilan bog'liq doiraviy ko'rinishga ega. Nursimon qirqimlar, radikal holatga yo'naltirilgan motivlar ham ma'lum bir ma'noni ifoda etgan.

Ko'zgulardagi ramziy naqshlar turli xil g'oyalarni birlashtirgan, masalan, tamg'ali, bezakli (dekorativ) va ilohiy.

Gerbsimon belgilarning rivojlanib borishi ularning ramziy naqshlar tomon o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Sarmat nishonlari sarmatlar jamoasida ma'lum bir ma'lumotlarni uzatishda qo'llanilar edi. Ramziy tasvirlar shularga asoslanib shakllandi, deyishga asos bor. Shuningdek, qadimgi rus knyazlarining taniqli belgilari ham geraldikaning shakllanishida katta rol o'ynadi.

Qadimgi rusda gerblarning shakllanishi

Qadimgi ruslar yashagan hududlarda va hozirgi Vengriyada katta miqdorda belbog' to'plamlari va boshqa gerbsimon tasvirlar ifoda etilgan ashyolar topilgan (25- rasm).

Ma'lumki, Bosporda nafaqat murakkab balki ko'plab turli xil sarmat nishonlari ham mavjud bo'lgan, ular shu qadar ko'p bo'lganki, turli xil qirol gerblarining ichida ko'rinmay ketar edi. Faqat uncha ko'psonli bo'lmagan qirol gerblarining kelib chiqishi mahalliy bo'lgan, xolos.

O'sha vaqtda boshqa belgilar keng miqyosda qo'llanilsa-da qirol gerblari faqatgina Bospor hududida ishlatilgan.

Rum ustalari o'z mahsulotlariga nishonlar yordamida belgi qo'yar edilar. O'sha davr qirol ustaxonalaridagi ustalar qirol gerbini, xususiy ustaxona ustalari esa o'zlarining shaxsiy gerblari orqali muhrlardilar.

Ilk O'rta asrlarda holat o'zgardi. Vaqt o'tishi bilan Bospor hayotida varvarlar (boshqa yurt odami) ahamiyatli o'rinni egallay boshlaydi. Bosporning varvarlashtirilishi bilan bir vaqtda Bospor qirolligining inqirozi kuchaya bordi. Milodning 336- yilida Bospor podsholigi tangalarni zarb qilishni to'xtatdi.

Milodiy III asr o'rtasida Bosporni ikki qirol boshqarardi. Ulardan biri Farsanz ismli varvar edi. Farsanz uncha ko'p hukmronlik qilmagan bo'lsa-da, Bospor podsholigi yana yuz yildan ortiq yashadi. U varvarlar muhitiga singib ketdi, o'ziga xos qiyofasini yo'qota boshladi.

Bosporda quldorlik tuzumi qulasa ham, u yerdagi hunarmandchilik yo'qolmadi. Hatto xunlar bostirib kirsam ham, ba'zi shahar va qishloqlarda aholi turar joylari saqlanib qoldi. Bu haqda Pantikapeyada, Fanagoriya, Tiritaki, Taman yarim orolidagi olib borilgan qazilmalar guvohlik beradi.

Sharqdan Qora dengiz bo'ylari adirlariga kelgan xunlar o'zlari doim urush olib borsalar ham Bospor ustalarining mahsulotlariga qiziqish bilan qarar, chunki mazkur hunarmandlarning ijod namunalari xorijda ham shuhrat qozongan edi. Yozma manbalar Qora dengiz bo'ylaridagi bozorlarni Bosporlik hunarmandlar o'z mahsulotlari bilan to'ldirib tashlaganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Mazkur hunarmandlar asli kim bo'lgan? Taxminlarga ko'ra ular sarmatlar, alanlar edilar. Chunki bu vaqtda Bospor va unga yondosh hududlarda sarmat-alan qabilalari yashar edilar.

Yangi sharoitda ular butunlay mustaqillikka erishdi, o'zlarining mustaqil ustaxonalariga ega bo'ldilar. Hatto o'z mahsulotlarini qirol gerblarisiz tayyorlash imkoniga ega bo'ldilar.

Belbog' to'plamlari qayerdan kelib chiqqan? Ko'plab soha tadqiqotchilarining fikriga ular sarmatlarning «ixtirosi». Buning boisi Qora dengiz hunarmandlarining katta qismini asosan sarmat-alanlar tashkil etgan edi, yunonlar esa bu vaqtda varvarlar madaniyatining ko'plab qirralarini o'zlarida mujassam etgan.

So'zsiz, sarmat hunarmandlari o'z mahsulotlariga sarmatlar gerbini qo'yganlar. Ammo varvarlashgan yunon aholisi vakillari sarmat belgilaridan ham foydalanganlar.

Shunisi qiziqki, belbog' to'plamlari, belning kumush to'qalari nafaqat Qora dengiz bo'ylari adirlarida balki Kavkazda, shuningdek, G'arbiy Yevropa, Dunay va Ispaniyada olib borilgan arxeologik qazilmalarda ko'plab uchraydi. V–VII asrlarga xos bo'lgan belbog' to'plamlari qadimgi Rus yerlarida ham topilgan. Sababi o'sha davrdagi Rus harbiylari Qora dengiz bo'yi, Vizantiya va Ruma qilgan harbiy yurishlarida qatnashganlar. Ular harbiy burchni nihoyatda ramziylashtirish uchun yurish oldidan o'zlarini belbog'lar bilan bezatishganlar.

O'sha davr papirus buyumlaridagi qiziqarli yozma ma'lumotlar saqlanib qolgan: vizantiyalik jangchilar belbog'lariga katta ahamiyat berishgan. Hatto Kiyevdagi 1073- yildagi qurilishda ibodatxona uzunligini o'lchashda belbog'dan foydalanilgan. Ehtimol u paytda belbog'lar bilan qandaydir ramziy diniy marosimlar bog'langan bo'lishi mumkin, chunki marosim oldidan har bir jangchi belbog'ni yechishi shart edi. Shunisi qiziqki, XI asrda zodagonlarning knyazlik belgilari tushirilgan belbog'lari mashhur edi.

Belbog' taqib yurish odati ruslarda keng tarqalgan edi. Erkaklar kumush bilan bezalgan dabdabali belbog'larga ega bo'lganlar.

O'rta Dnepr bo'yida arxeologlar tomonidan gerbsimon ikki va uch tishli nishonlar topilgan.

Qadimgi rus knyazlarining nishonlari

Qadimgi rus knyazlarining xususiy mulklari sifatida qo'llanilgan geraldik belgilari haqidagi ma'lumotlar X asr o'rtalariga taalluqlidir. Ilk ma'lumotlar Ibn Miskaveyxga mansub bo'lib, ruslarning 943–944- yillarda Berdaga qilgan safarlari haqidagi hikoyalarda aytilgan.

Qadimgi rusda shaxsiy mulkka tajovuz qilish, knyaz nishonini o'zlashtirish yoki knyazlik gerbini o'ziniki bilan almashtirish jinoyat hisoblangan. Afsuski yozma manbalarda bu gerblarning tasviri berilmagan. Qadimgi rus knyazlar gerblarining chizgilarini ko'rishga bizga numizmatika, sfragistika yordam beradi.

Qadimgi rus knyazlarining geraldik belgilari nafaqat tangalar, muhrlar va taqinchoqlarga, balki boshqa buyumlarga: masalan, uzuklarga, qurollarga, bayroqlarga tushirilgan. Mazkur topilmalar asosida qadimgi rus gerbidagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

Haqiqatan o'rta asr gerbsimon chizgilar ikki tishli tasvirlarni, ba'zan esa uch tishli tasvirlarni ifoda etadi. Shunday belgilar qadimgi rus knyazlarining gerblarida ham kuzatiladi. Ularning asosini aynan ikki tishli va uch tishli tasvirlar tashkil qiladi.

Shunisi qiziqki, ikkala guruhning bosh yo'nalishi bo'lib ikki tish xizmat qiladi. O'rta asrning ikki tishli tasvirlari X–XII asrlar tasvirlaridan bir qancha marta ajraladi. O'rta asrniki uzun o'qqa ega, X–XII asrlarda qisqa va pastga uncha katta bo'lmagan o'simtalar ko'rinishiga ega. Belgining kattaligi (shu jumladan, o'qning uzunligi) u yasalgan buyumning shakli va o'lchamiga bog'liq edi.

O'rta asrning tasvirlari va qadimgi rus knyazlarining gerblari orasidagi farq sezilarli darajada ekanligini e'tirof etish zarur.¹

Shu narsa ma'lumki, qadimgi rus knyazligi gerblari nasldan nasilga o'tib rivojlangan yoki hukmdorlar o'zgarishi bilan o'z shaklini o'zgartirgan. O'zgarishlar kichik belgilar qo'shish yoki olib tashlashi bilan ifodalangan.

¹ В.С. Драчук «Рассказывает Геральдика», Издательство «Наука» М: 1977.7-30-31-32-33-34- bet.

Ba'zida bu qo'shimchalar muhim ahamiyatga ega emas, yoki ular toza bezakdorlik maqsadida qo'llanilar edi. Bu holat Tanaisdan topilgan taxtach shaklidagi toshda, Savromat II gerbida kuzatiladi.

O'rta asrga taalluqli bezakdor tasvirlarni qadimgi rus gerblari va tangalariga taqqoslanganda, ma'lum farqlarni sezamiz va bu farqlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotning qanday kechganidan guvohlik berib turadi.

Qadimgi rus knyazlarining gerbida to'liq o'xshash gerbsimon tasvirlar topilgan. Masalan, Priladojye va Suzdalning atrofida topilgan gerblar Poltava viloyatining Pereshshepinsk konida topilgan va Yaroslav Mudriyning tasviri tushirilgan gerbi bilan o'xshash (26- rasm).

Qadimgi rus knyazlarining gerblarida ayni vaqtda mulkdorlik belgisi ham bo'lgan, yana xuddi ana shunday o'xshashlik Bospor podsholarining murakkab gerblarida ham uchraydi.

Milodiy VII asrdan qabila nomlanishlari o'rniga geografik nom berila boshlandi.

IX asrda taix sahnasiga qadimgi rus davlati chiqadi. Qadimgi rus davlati yaxlit birlashgan, allaqachon o'z kuch-qudrati bilan bir davlat sifatida o'zini namoyon etdi.

Nazorat savollari

1. *Qadimgi sarmatlar geraldikasidan namunalar keltiring.*
2. *Bronza davri geraldikasi qanday ko'rinishlarda bo'lgan?*
3. *Bospor podsholigida sarmatlarning geraldikasiga qanday ramziy shakllar asos bo'lgan?*
4. *Qadimgi rus geraldikasi qanday ramzlarda aks etgan?*
5. *Qoradengiz bo'ylarining mahalliy aholisi vakillari usta hunarmandlarini kimlar tashkil etgan?*
6. *Gerbsimon belbog'lar kimlarga mo'ljallangan edi?*
7. *Qadimgi rus gerblaridagi geraldik tasvirlarda nimalar aks etgan?*
8. *Qadimgi rus geraldikasining rivojlanish evolyutsiyasini ayting.*
9. *Qadimgi rus knyazlari gerblari shakllarining o'ziga xos xarakterini tushuntiring.*

VII BOB. MUHR VA GERBLARNING KELIB CHIQISHI

Muhrlarning tashqi ko‘rinishi

Muhrlarning kelib chiqishi qadimiy dunyo madaniyati bilan bog‘liqdir. Muhrlarni ibtidoiy odamlar o‘ziga taalluqli buyumlarga qo‘yishgan. Ibtidoiy davrlardagi har bir qabila, jamoa qandaydir bir jonzotning ismini qabul qilib, uni qabilaning bosh asoschisi, ya‘ni totem sifatida qabul qilgan.

Bunday belgi u yoki bu qavmni bir-biridan ajratib turuvchi belgi hisoblangan.

Insoniyatning rivojlanishi, xususiy mulkning paydo bo‘lishi jonzotlar tasvirining o‘zgarishi, mehnat qurollari yoki belgilarning maishiy xarakterining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Asta-sekin qabila belgisi oilaning xususiy mulkiga, maxsus buyumlariga qo‘yila boshladi.

Yozuvlarning paydo bo‘lishi belgilarning o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. Juda ko‘p hollarda oila boshlig‘i ismining bosh harfi belgi bo‘lib qabul qilingan.

Rus tadqiqotchilaridan biri P.S.Efimenko 1874- yil «Yuridik belgilar» haqidagi maqolasini nashr qildi. Maqolada Arxangelsk guberniyasi qadimgi aholisining mulkiy belgilari haqida ko‘plab ma‘lumotlar keltirilgan.¹ Bu aholi orasida ruslar, karellar, saamlar (loparlar) va neneslar bo‘lgan. Ruslarda bu belgilar «bayroqlar», «dog‘lar», «belgilar», «belgilanganlar», «chegaralar», «tamg‘alar» deb atalgan. Rus aholisi belgilarida, asosan, to‘g‘ri chiziqlar, chegaralar ustunlik qilgan. Boshqa xalqlarda mulk belgilari aylana shaklida bo‘lgan. Bu belgilar u yoki boshqa buyumlarning aniqlovchi shartli belgilari bo‘lib xizmat qilgan. Ba‘zan rus aholisida chegara, xoch, zag‘izg‘on

¹ В.С. Драчук «Рассказывает Гერальдика», Издательство «Наука» М: 1977.

panjasi, qarg'a panjasi va boshqa belgilar uchragan. Bunday belgilarga, odatda, uy xo'jayinlari ega bo'lardilar (27, 28-rasmlar). Ota qaramog'ida yashayotgan to'ng'ich o'g'illar umumiy oilaviy belgidan foydalanishgan. Biroq agar o'g'il otadan ajralib chiqib, alohida xususiy xo'jalik yurita boshlasa, u holda o'zi uchun yangi xususiylik belgisini tanlar edi. Mazkur belgida avvalgi oilaviy belgi alomatlari aks etar edi.

XI–XII asrlardagi nasldan-naslga o'tadigan kulollik buyumlarining mulkchilik belgilari tobora murakkablashib bordi. Odatda kulollik ishi meros sifatida otadan o'g'ilga o'tar edi. Xususiylik belgisi sobiq sho'rolar hududida yashagan qator xalqlarga ham taalluqli. Kavkaz, Qrim, O'rta Osiyo xalqlarining xususiylik belgisi saqlanib qolgan. Masalan, Kavkazda yashovchi kabardin xalqlari tamg'alari avlod va oila xususiyligini namoyon etar edi. Qadimgi turk va mo'g'il xalqlarida xususiylik belgilari «tamg'a» deb atalgan. «Tamg'a» so'zi xususiylik belgisini va muhrni anglatar edi. Masalan, Oltin O'rda xoni Berdibek va Moskva mitropoliti Alekseyning belgisi «olov rang tamg'a», ya'ni qizil muhr edi.

Muhrlarning tashqi ko'rinishi. Muhrlar o'yma qolip va uning bosilgan nusxasi — o'ttiskdan iborat. O'yma qolip qattiq buyumlarda — toshda, metallda, suyakda, oynada, keyinroq esa kauchukda o'yilgan tasvirlardir. Bosilgan nusxa esa o'yma qolipni bosish natijasida qog'ozda, mumda hosil bo'lgan tasvirlardir.

Muhr tayyorlashda mum ishlatingan, u toza oq, sariq yoki qizil bilan qora aralashgan, qizil yoki to'q jigarrang bo'lgan. Ba'zi bir hujjatlarda mumli muhrlarning ranglari to'g'risida ko'rsatma bor. Masalan, yorliqlar ro'yxatida «yorliqning asl nusxasining ostida qora muhr» «yorliqda qizil muhr bo'lgan» degan yozuvlar uchraydi.

Ammo mum juda bo'sh ashyo bo'lgani uchun kamdan-kam hollarda muhrlarning bosmasini olish uchun smoladan foydalanilgan. Keyinroq XVII asrning oxirida surg'uchli muhrlar paydo bo'lgan. Ularning keng tarqalishi XVIII asrdayoq avj oldi. Odatda surg'uch, ayniqsa, qizil ranglisi savzavotlar rastasida qog'oz bilan birga sotilar edi.

XIX–XX asrlarda kauchukli shtempellar paydo bo'lishi bilan ottisk olish maqsadida maxsus suyuq mastika ishlatilgan. Asosan ikki xil matritsali muhrlar ma'lum. Birinchisi, osma muhr matritsalari. Osmo muhr ikki tomonlama tasvirga ega bo'lgani uchun shunga mos matritsa bo'lishi kerak. Osmo muhrlar uchun matritsaning shakli qisqich ko'rinishida bo'lar edi, shunday qisqichlar hozirgi vaqtda plombalashda foydalaniladi. U ikki tomondan bir-biriga jips yopishtiriladi va ularning ikki tarafida o'ziga mos tasvir yoki yozuv tushiriladi. Qo'rg'oshin yoki mumli yumshoq aralashma shu qisqichlar yordamida qisilsa, uning ikki tomoniga qisqichlardagi tasvirlar tushadi. Bunday matritsalar tisklar deb aytilgan.

Metall yoki mumli mastika, asosan, osma muhrlar uchun ishlatilgan. Tilla va kumush osma muhr olish uchun ikkita yupqa tilla va kumush plastinkalar olingan. Ana shu plastinkalar orasiga iplar qo'yilgan, undan so'ng plastinkalarni iplar bilan birga maxsus qisqichlar yordamida siqilgan. Natijada osma muhr hosil bo'lgan.

Ikkinchi xil matritsalar metall yoki tosh doira, ba'zida to'rtburchak ko'rinishda bo'lgan va ularning orqa tomonida yozuvlar o'yilgan. Shunday matritsa yumshoq massaga bosilganda, masalan, mumga (vosk) muhr hosil bo'lgan. Ana shu matritsalar yordamida amaliy muhr izini olish mumkin edi. Mumdan yasalgan amaliy muhrlar hujjatlarga quyidagi usul bilan mahkamlangan.

Amaliy muhrlar uchun matritsalar ko'pincha kumushdan va tilladan qilingan. Ularni tayyorlash uchun kumushsoz ustalarning tajribalisi jalb qilingan.

Matrisalar — muhrlar duxoba yoki atlas bilan qoplangan maxsus yog'ochdan yasalgan qutilarda saqlangan. Ba'zan muhr uchun javobgar shaxs muhrni shoyi qopchaga solib bo'yniga osib yurgan. Yangi muhr tayyorlanishidan oldin, u bilan birga saxtiyon qopchalarga ham buyurtma berilgan. 1632- yil sentabrda elchixona buyrug'iga binoan Yaroslavl shahri uchun yangi kumush tilla hal berilgan muhr tayyorlangan. Bu ishni bajarish uchun Qurolxona palatasining yirik o'ymakor naqqoshi,

kumushni o'yish bo'yicha mohir usta Vasiliy Andreyev jalb qilingan.

Markazlashgan rus davlatidagi tilla muhrlar, odatda, Rim imperiyasining imperatorlari bilan shartnoma asosida ishlangan. Tilla muhrlar hattoki tatar podsholari va shaxzodalari yorliqlariga ham osib qo'yilgan.

Osma muhrlardagi kumush ashyo sifatida kamdan-kam uchraydi. XII–XIV asrlarda kumush muhrlar faqatgina knyazlar orasida tuzilgan shartnomalarga osilgan. Kumush muhrlar Moskva va Tver hamda Novgorod kabi ulug' knyazlar bilan tuzilgan shartnomalarda uchraydi. Ba'zida kumush muhrlar knyazlarning diniy vasiyatnomalariga ham osilgan. Masalan, Moskvaning ulug' knyazi Ivan Danilovich Kalitaning ikki diniy yorlig'ida ham kumush muhr bor.

Eng ko'p tarqalgan metall muhrlardan qo'rg'oshinli muhrlardir. Ular turli mazmundagi hujjatlarga, shuningdek, diplomatik aktlarga, knyazlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarga va Novgorod shahrining buyuk knyazi bilan tuzilgan shartnomalarga osib qo'yilgan.

XV asrning oxiridan boshlab mumli va mumli mastik muhrlar keng tarqalgan. Ular qo'rg'oshinli muhr kabi turli xil mazmundagi hujjatlarga osib qo'yilgan.

Shu vaqtdan boshlab amaliy muhrlar osma muhrlarni ishlab chiqarishdan mutlaqo siqib chiqardi. Hozirda osma muhrlar faqatgina eng muhim hujjatlarni tasdiqlash uchun saqlanmoqda.

Nazariy geraldika

Nazariy geraldika predmeti gerblarni tuzish qoidalaridan tashkil topgan. XVIII–XX asr boshlarida qabul qilingan bu qoidalar gerblarni yoki gerbli muhrlarni u yoki bu davlatga mansubligini aniqlashga yordam beradi. Geraldikaning qoidasi bo'yicha gerb qalqon, dubulg'a, toj, dubulg'a usti, g'ilof, qalqon ushlovchi, shior va qalqon atrofidagi maxsus bezaklardan iborat. Bu qismlar asosiy va ikkinchi darajaliga bo'linardi.

G'arbiy Yevropa geraldikasida ishlab chiqilib qabul qilingan qoidalar bo'yicha gerbning asosiy qismi qalqon hisoblanadi. U uchburchak yoki oval yoki italyancha, quyi qismi aylanali kvadrat, o'tkirlashgan ispancha to'rtburchakli yoki fransuzcha qirqma shakllarda bo'lardi (29- rasm).

Rus qalqonlarining shakli yo'q, chunki ular G'arbiy Yevropa davlatlaridan nusxa olgan. Rus geraldikasida ko'proq fransuz qalqonining shakli uchraydi.

Gerblar, odatda, bo'rtma tasvirlangani uchun ashyo sifatida rangli metall finiftlar yoki emal bo'yoq va mo'ynalardan foydalanilgan.

Gerblardagi tasvirlar uchun ikki xil metall — tilla va kumushdan foydalanilar edi. Biroq bo'rtma tasvirlarda tilla shakllar ustidan ko'pincha tilla zarhal yurgizilar edi. Rangli tasvirlarda tilla — sariq bo'yoq, kumush — kumushrang bo'yoq bilan bo'yalar edi.

Gerb egasiga taalluqli turli xil buyumlarda, shu jumladan, metallarda tasvirlanar edi. Masalan, u merosga qoldirilgan kumushga tushirilgan. Bunday hollarda bo'yoq shartli grafik tasvirlar bilan almashinar edi. Gerblarning grafik tasvirlari, ayniqsa, ularni qog'ozga bosib chiqarishda ruxsat etilar edi.

Finift yoki rangli emal bilan besh xil — qizil, moviy yoki zangori, yashil, qirmizi va qora ranglar ishlatilgan. Qizil rang, qizil bo'yoq bilan, grafikada esa tik chiziqlar bilan, moviy rang havorang bo'yoq bilan, grafikada gorizontaal chiziqlar bilan, yashil rang yashil bo'yoqlar bilan, grafikada o'ngga qaragan diagonal chiziqlar bilan tasvirlanar edi. Qirmizi rang binafsha rang bo'yoqda bo'yalib, grafikada chapga qaragan og'ma chiziqlar bilan tasvirlangan. Qora rang qora bo'yoq bilan yoki o'zaro kesishuvchi chiziqlar bilan tasvirlangan (30-rasm). Gerblarda, shuningdek, inson qomatlari tana rangida bo'yalgan.

Gerblarni tuzishda oqsichqon va olmaxon mo'ynalaridan foydalanilar edi. Oqsichqon mo'ynasi oq fonda qora «dumchalar» ko'rinishida tasvirlanar edi. Ba'zan tabiiy tasvirlar uslubiylashgan holda berilardi. Oqsichqon mo'ynasi

qora belgilar bilan oq fonda tasvirlansa, u «oqsichqon» deb nomlangan va, aksincha, maydon qorada ishlanib, belgilar oq rangda bo'lsa «oqsichqonga zid» deyilgan. Odatda, olmaxon mo'ynasi oq maydonda havorang belgilar bilan tasvirlangan (31- rasm).

Gerblarni tuzishning asosiy qoidasi: metall ustiga metall, finift ustiga finift fon qo'yilmagan. Finiftni metall ustiga yoki metallni finift ustiga qo'yish mumkin. Agar fon tilla rangda bo'lsa, shakllar faqat finiftli bo'lishi kumush shakllarni qo'yish mumkin emas edi. Tilla va kumush shakllar faqat bu rangdagi finift bilan qoplangan fonda berilishi mumkin edi.

Ba'zan gerbda qalqonlar bir xil rangda berilib, ba'zida esa ikki qismga bo'lingan. Qalqon tickasiga teng yarmiga bo'linishi mumkin edi. U holda bir tomoni bir rangda, boshqasi esa boshqa rangda berilardi. Bunday qalqonlar bo'laklangan deb atalgan. Agar qalqon tik emas, gorizontal bo'linsa, bu holda kesishgan deyilardi. Qalqonlar diagonal bo'yicha o'ngdan yoki chapdan yuqori burchakka qarab bo'linishi mumkin edi. Bunday qalqon chapdan yoki o'ngdan bo'lingan deyilgan (32- rasm).

Geraldikada qalqon bo'linishining bu kabi asosiy turli xil kombinatsiyalari uchraydi. Har bir kombinatsiya o'zining maxsus nomiga ega. Ba'zan qalqonlar teng to'rt qismga bo'linishi, bunda bir vaqtning o'zida bo'laklangan va kesishgan bo'lishi mumkin.

Qalqonda joylashgan shakllar ikki asosiy bo'limga bo'linadi: geraldik va nogeraldik. Asosiy geraldik shakl oltita (33- rasm). Ularning birinchisi asosiy qism hisoblanib, $\frac{2}{7}$ uzunligi yuqoridan boshqa rang bilan beriladi. Agar boshqa rang bilan berilib qalqonning $\frac{2}{7}$ pastki qismi bo'yalsa, bu bo'lak oxiri yoki «quyi qismi» deyilgan. Uchinchi qalqondagi shakl «ustun» bo'lib, qalqonning $\frac{1}{3}$ kengligi boshqa rangda bo'lishiga aytiladi. $\frac{1}{3}$ kengligi boshqa rang bilan berilsa, uning nomi «belbog'» deb atalgan. $\frac{1}{3}$ qismi kengligi diagonal bo'yicha boshqa rang bilan berilgan bo'lsa, «tasma» deyilgan. «Tasma» o'ngdan yoki chapdan bo'lishi mumkin. O'zaro bog'langan

shakl qalqonning oxiriga yetmagan bo'lsa, ikkita uchrashgan «tasma» deyilgan.

Boshqa asosiy kombinatsiyali shaklga ega bo'lgan geraldik shakllardan ham foydalanilgan. Ulardan ikkita xojligi gerblarda tez-tez uchragan. Birinchi xoch — ustun va belbog' kombinatsiyasidir. Ikkinchisi — ikki o'zaro kesishgan tasmalardir. Oxirgisi esa rus geraldikasida «andreyevskiy» deb atalgan.

Geraldikada geraldik shakllardan tashqari, nogeraldik shakllar ham qo'llanilgan. Ular, o'z navbatida, tabiiy, sun'iy va afsonaviy shakllarga bo'lingan. Tabiiy shakllarga inson, hayvon, qushlar, baliqlar, o'simliklar, quyosh, oy, yulduzlar, olov, suvni tasvirlovchi shakllar kirgan. Geraldika qoidasi bo'yicha hamma jonzoatlar o'ng tomonga qaragan holatda tasvirlangan bo'lishi kerak edi.

Sun'iy shakllarga inson qo'li bilan yasalgan narsalar: masalan, kamon, o'q, o'roq, bolg'a tasvirlari kirgan.

Afsonaviy shakllarda tabiatda yo'q buyum va jonivorlar tasvirlangan. Masalan, ikki boshli burgut, ajdaho, o'laksaxo'r (sher tanasida burgut boshi va qanotlari bo'lgan afsonaviy jonivor) va boshqalar.

Qalqon — gerbning asosiy qismi bo'lib, boshqa qismlar ikkinchi darajalidir. Ba'zan gerbda ko'pincha dubulg'a yoki harbiy bosh kiyim tasviri berilar edi. Bu holda dubulg'a aylana ko'rinishda G'arbiy yevropacha shaklda yoki qadimgi ruscha — o'tkir uchli shaklda bo'lgan. Dubulg'a «en face» yoki profilda o'ng geraldik tomonga qaratilgan holda tasvirlangan.

Gerb nafaqat dubulg'ada, balki tojda ham tasvirlangan. Ba'zan toj dubulg'a o'rnida, ba'zan esa dubulg'a tepasida yoki uning tagida bo'lgan.

Rus geraldikasida tojlar knyazlik, graflik, baronlik va dvoryanlik kabi turlarga bo'lingan.

Nazorat savollari

1. Sfragistika qanday ma'noni anglatadi?
2. Sfragistikaning tarixshunoslik va manbashunoslikdagi ahamiyati qanday?

3. Sfragistika bilan geraldika o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
4. Sfragistikada nimalar tasvirlanadi?
5. Sfragistika va numizmatika o'rtasidagi bog'liqlikni ayting.
6. Rus sfragistikasi va geraldikasi nechanchi asrdan qo'llanila boshlagan?
7. Muhrlarni yaratishda kimlar qatnashgan?
8. Muhrlar necha xil bo'lgan?
9. Sfragistika va geraldika bilan shug'ullangan rus olimlarining nomlarini ayting.
10. Geraldika atamasi qanday ma'noni bildiradi?

VIII BOB. O'ZBEKISTONNING QADIMGI DAVR GERALDIKA SAN'ATI

Eramizdan av. III—II asrlarda qadimgi O'zbekiston xalqlarining badiiy madaniyati O'rta Osiyoning ulkan hududida yashovchi turli qabila va xalqlarning o'zaro ta'siri jarayonlari natijasida shakllandi.

Yozma manbalardan ikki daryo oralig'ida yashovchi xalqlarning hayoti va turmush tarzi haqida ko'plab ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan.

Mil.av. VI—IV asrlarda yunon mualliflari ikki daryo oralig'ida yashovchi so'g'dlar va saklar hamda ularning ko'chmanchi turmushi to'g'risida yozib qoldirishgan. Biroq ularning san'ati haqida kamroq yozishgan. Ularning hikoya qilishlari bo'yicha shu vaqtda ibodatxonalar, saroylar va xususiy uylarda xalq og'zaki ijodida aks ettirilgan sahnalari tasvirlangan. Ushbu tasvirlarda Zariadra va Odatidlarining sevgisi haqidagi epik roman mavzusi mahorat bilan ifodalangan. Shuningdek, ushbu romanning mazmuni (Xoresa Mitilenskiyning va Ateneyaning aytib berishicha) Zariadr skifni mag'lub etib, u tomonidan skiflar podshosining qizini yaxshi ko'rib qolishi va oxir oqibatda uni olib qochishi aniq ifodalangan. Ularning sevgisi shu darajada kuchli bo'lganki, o'zlari mansub bo'lgan ikki qabilaning bir-biriga dushmanligi ham to'siq bo'la olmagan. Bunday tasvirlar goh ma'naviy-etik tarzda, goh diniy, goh siyosiy tarzda, goh ezgulik va yovuzlik ko'rinishida, Ormuzda va Ariman ko'rinishida, goh Eron bilan Turon ko'rinishida ifodalandi.

Epik roman lavhalari o'sha davr odamlarining uylarida tasvirlangani oddiy xoldir, biroq Amudaryo qazilmalaridan topilgan oltin buyumlar orasida jangovar qalqonda ov manzarasi sahna ko'rinishlari tasvirlangan. Ushbu geraldik ko'rinishda

ishlangan bo'rtma tasvirda otda uchib ketayotgan otliqlarning kiyik, quyon va echkilarni quvib borishlari tasvirlangan.

Keyinchalik qazilmalarda topilgan, muhr bosilgan tosh plitkalarda yugurib ketayotgan echki shakllari tushirilgan to'rtburchak tilla plastinkalar, odam va afsonaviy qanotli shoxdor hayvonlarning bo'rtma tasvirlari topilgan (34, 35, 36, 37-rasmlar).

O'zbekiston san'ati tarixining yorqin sahifalaridan biri ellin dunyosi madaniyati an'analari bilan bog'liqdir. Aleksandr Makedonskiyning boshqinchilik yurishlari samarasi o'laroq, qadimgi yunon-rim madaniyatining eng yuksak yutuqlarini o'zlashtirgan Ellada Sharqda va Hind sarhadlarigacha yoyilgan edi. Bu mintaqalarda vaqt o'tishi bilan ellin va qadim Sharq madaniyatining muayyan bosqichida yirik sivilizatsiya markazi barpo etildi.

Baqtriyona va So'g'diyona (qadimda Axmoniyilar davlati tarkibiga kirgan, hozirgi O'zbekiston hududining qadimgi tarixiy viloyati bo'lgan Baqtriya va So'g'dni yunonlar shunday nomlashgan) er. avv. V—VI asrlardan oq yunonlar bilan aniq savdo va madaniy aloqalarga ega bo'lgan. Aleksandr Makedonskiy yurishlari yillari (eramizdan avvalgi 330—327) da bosqinchilar O'rta Osiyoning janubida mustahkam istehkom tiklashdi. Yunon madaniyati va san'ati an'alarining keng yoyilishi buyuk sarkarda o'limidan keyin, shuningdek, er. avv. III asrga kelib Salavkiylar imperiyasining tanazzulga yuz tutishi va Baqtriyadagi grek-baqtriya davlatini O'rta Osiyoda mahalliy deb tasdiqlanishi bilan boshlanadi. Ellin dunyosi qadriyatlariga sodiqlikda Janubiy Turkmaniston viloyatlarida yashovchi arshakidlar alohida ajralib turdilar. Ular yangicha mahalliy-siyosiy tizimga tayanib, iqtisodiyotda va pul-tovar munosabatlarida yuksalishga erishdilar, shuningdek, badiiy madaniyatda ham yangilanishlar yuz berdi. Shu yerdan ellin madaniyati an'analari qardosh viloyatlar — So'g'd, Shosh, Farg'ona, Xorazmga tarqalgan.

Ilk (er. avv. III—I asrlarda ellinlashtirilgan) va o'rta antik (erta kushon davri — er.avv. I asr) davrlar O'zbekiston san'ati tarixida ellin madaniyati juda yorqin namoyon bo'ldi.

Yunon sivilizatsiyasi, eng avvalo, me'moriy qurilishlarning mukammalligi bilan butun dunyoga mashhurdir. Turli xudolarga atab quriladigan buyuk peripter-ibodatxonalar ellin madaniyati ta'sir ko'rsatgan barcha hududlarda qad ko'tardi. Afsuski, O'rta Osiyoda mahalliy xomashyo sifati pastligi tufayli bu turga mansub ibodatxonalardan birortasi ham saqlanmagan, arxerologik qazilmalar natijasi o'laroq, yo'qolib ketgan ibodatxonalar ustunlarining poydevor qoldiqlari topilgan. Ustunlar bilan o'ralgan ibodatxonaning o'zi Sharqda sevimli bo'lgan ustunli-ayvonlar kompozitsiyasi «P» shakliga ega bo'lib, bu keyinchalik O'rta Osiyoning mumtoz me'moriy uslubiga aylandi.

Grek-baqtriya davrida ellin an'analari ta'siri numizmatika (tanga va medalyonlar) da yaqqol namoyon bo'ldi. Tanganing yuza tomonida hukmdorning o'ng yon tomondan ko'kragigacha tasviri berilgan, uning tersida esa antik davrning ilohaxudosi yoki qahramonlaridan birining qiyofasi ifodalangan. Bu tanga ellin madaniyatining eng yaxshi namunasi hisoblanib, unda kishi diqqatini jalb etish xususiyati, ya'ni antik Rim portretlaridan ilhomlangan holda insonning ichki dunyosini ochib berishga urinilgan (38, 39- rasmlar). 1981-yilda Buxoro viloyati Jondor tumanida olib borilayotgan kanal qurilishi paytida grek-baqtriya topilmasiga oid yirik xazina (50 ta tanga) topildi.

O'rta Osiyoda ellin madaniyatining keng tarqalganligini yunonlarning sevimli qahramoni Gerakl, uzumchilik va may xudosi Dionisga sig'inishni aks ettiruvchi topilmalar tasdiqlaydi. Eramizdan avvalgi II asrlar va eramizning II asrlariga mansub Buxoro hududidan topilgan kandakorlik buyumi — kumushdan ishlangan Evtimed tetradraxmalariga monand etib bajarilgan, Geraklning ma'lum bir qahramonlik janglaridan so'ng qoya yoki gumbazsimon shar ustida o'tirgan holatdagi qiyofasi tushirilgan numizmatik shakl ham buning yorqin dalilidir. Geraklning kichik haykalchalari ham keng tarqalgan. Bunday haykalchalarning bir qanchasi Shimoliy Baqtriya shaharchasining — Barottepa, Qora — pichoq, Sari — band deb ataluvchi manzillaridan ham topilgan.

Dionis timsolining keng xalq orasida ommalashuvi o'lish va qayta tirilish ilohiyoti g'oyalari bilan bog'liq muqobil marosimlarni vujudga keltirdiki, bu endi O'rta Osiyoda mavjud bo'lib qoldi.

Sig'inish marosimlarida o'ziga xos antiqa lavhalar — har xil rasm-rusumlarni, bezaklarni qamragan ommaviy tomoshalarni ko'rish mumkin edi. Bunday alomatlar, avvalambor, maypa-rastlikka oid qahramonlar (Dionisning o'zi, satirlar, Silen)ning turli shakldagi haykaltaroshlik qiyofalariga aloqador bo'lib, bunday haykallar O'zbekistonning qator hududlarini, eng avvalo janubni — Surxondaryo viloyati (Zartepa, Xalchayon, Dalvarzintepa)ni qamrab olgan.

Ellin madaniyati an'analari ta'siri antik O'rta Osiyo kulolchiligida ham saqlanib qolgan. Shaklan yunonlarga xos bo'lgan kulollik buyumlari — amfora, oynoxoy va kraterlar — Kampirtepa, Xotinrabod, qadimgi Termiz, shuningdek, Shimoliy Baqtriya va So'g'dning boshqa joylaridan topilgan.

Ellin siyosati shu qadar uzoq vaqt o'z hukmdorligini saqlashga erishdiki, O'rta Osiyo xalqlarining qadim moddiy va ma'naviy madaniyati o'zining mustahkam ildiziga ega bo'ldi. Kushon imperiyasi tarkibiga kiruvchi Hindiston hududidagi yirik ellinlashgan markaz Gandxarada — Grek — Baqtriya podsholigining so'nishidan yuz yil o'tgach, ilk kushon davrida ellin madaniyati an'analari yangi kuch bilan qayta tug'ildi. Ellin xudolari, asosan, xudolarga atab quriladigan ibodatxonalarda, tangalar yuzasi va haykallarda tasvirlangan. Qariyb ikki yuz yil davomida yunon tili, o'rta asrlarda Yevropa mamlakatlarida fransa lingva (fransuz tili) singari katta o'rin egalladi, ellin madaniyati an'analari esa islomga qadar o'zining jozibador tarovatini yo'qotmadi.

Tub aholi etnogenezisiga o'zining hissasini qo'shgan holda, yillar o'tishi bilan yunonlar O'rta Osiyo xalqlariga qorishib ketishdi. O'rta Osiyoda ular asos solgan bir qator shaharlar haqidagi afsonalarda, geografik atamalarda Sharqda yavanlar deb ataluvchi yunonlar va ularning buyuk yo'l boshchisi Aleksandr Makedonskiy to'g'risidagi xotiralar mujassamdir.

Tangalar

Tangalar turkiy «tamg'a» so'zidan olingan, metall (oltin, kumush, mis, hozirgi vaqtda misning turli qotishmalari, nikel va alyuminiy) dan yasalgan pul birligi, muomala va to'lov vositasidir. Tuxumsimon yoki dumaloq shaklli, foydalanish uchun qulay tangalar aversi (yuzi) va reversi (orqa tomoni) hamda gurti (cheti) orqali bir-biridan farqlanadi. Tangalar deyarli bir vaqtda mil.av. VIII asrda Lidiya davlati (Kichik Osiyo)da va Egina (Yunoniston)da paydo bo'lgan. Tanga pul — tovar munosabatlarining rivojlanishi bilan yuzaga kelgan va tovar ayirboshlashda ekvivalent rolini o'ynagan boshqa buyumlar (chorva mollar, don, chig'anoq, mato) dan farq qilib universal to'lov vositasi vazifasini bajargan. Qadimgi tangalar tasvir (hukmdorning tasviri, unvoni, ismi, gerbi) va izohlar — tanga chiqqan davlat va shaharning nomi, yili bilan zarb qilingan.

O'zbekiston hududida dastlabki metall tangalar mil. av. VI asrda Doro I davrida zabt etilgan, og'irligi 8,4 g ni tashkil etgan, «darik» deb nomlangan tilla tangalar deb taxmin qilinadi. Mil. av. III—I asrlarda va undan keyingi davrlarda zarb etilgan tanga namunalari hozirgacha saqlanib qolgan. Ular jumlasiga Antiox I (mil. av 281—261- yillar), Yevtidem I (mil.av. 235—200- yillar), Demetriy I (mil. av. 200—185- yillar), Yevkratid I (mil.av. 171—155- yillar) va Germey (mil. av. 75—55- yillar) davri tangalari kiradi (40, 41, 42, 43- rasmlar).

VIII asrning o'rtalarida O'rta Osiyoda arablar hukmronligi boshlangandan so'ng savdo munosabatlarini amalga oshirish uchun vazni 4,3 g bo'lgan kumush dirxamlar va kundalik savdo-sotiq uchun mis tangalar — fuluslar zarb etilib, muomalaga chiqarilgan. Amir Temur davrida Samarqandda tangalar zarb etiladigan maxsus zarbxonalar tashkil etilgan. Vazni 4,5—4,7 g bo'lgan kumush tangalar, vazni 2 g ni tashkil etgan oltin dinorlar va vazni 1,8 g bo'lgan, kumushdan tayyorlangan miriylar zarb etila boshlangan.

XIX asrning 2- yarmida Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklarida oltindan «tilla», kumushdan «tanga», misdan «pul » (chaqa) deb ataladigan tangalar zarb qilingan.

Qog'oz pullar paydo bo'lishi bilan muomalada tanganing roli keskin pasaydi, asosan, XX asrdan boshlab tanga, qog'oz pullarni maydalash va mayda to'lov vositasi yoki mamlakat asosiy pul birligining muayyan vositasi sifatida (dollarda sent, lirada chentezimo, so'mda tiyin va bosh.) ifodalangan pul birligi vositasi sifatida ishlatila boshladi. Oltin va kumush tangalar chiqarilishi to'xtatildi (maxsus esdalik va yubiley oltin, kumush, platina tangalari bundan mustasno). O'zbekiston Respublikasi o'z milliy valyutasi so'mni muomalaga kiritgandan keyin temirdan yasalgan va qiymati 1,3,5, nikel bilan qoplangan 10, 20, 50 tiyin bo'lgan tangalar chiqarildi (44- rasm).

Respublika tarixidan muhim sanalarga bag'ishlab esdalik va numizmatik ahamiyatga ega bo'lgan (pullar) ko'plab yubiley tangalari zarb etildi. Dastlab 1994- yilda mustaqillikning 3 yilligiga bag'ishlab 10 so'mlik, Ulug'bek tavalludining 600 yilligiga bag'ishlab 1 so'mlik, 1996- yil 1- sentabrdan Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan oltin va kumush 100 so'mlik hamda 1998- yilda Alisher Navoiy, keyinchalik esa Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Muso al-Xorazmiy kabi buyuk allomalar portretlari tushirilgan yubiley tangalari zarb etildi (45- rasm).

Tasviriy va amaliy san'atda geraldika

Miloddan avvalgi III—I asrlar O'zbekiston badiiy madaniyatining grek-baqtriya bosqichi tarixida bir yarim ming yillik vaqt o'tgan bo'lsa-da, biroq u davrlardan bizgacha ko'plab numizmatik (kolleksiyalari) to'plamlari ajoyib tangalar bilan boyib bordi. U tangalarda, asosan, grek-baqtriya hukmdorlarining portret va nomlari bilan birga obrazlari ifodalangan bo'rtmalar ham yig'ilgan. Ular, asosan, shimoli-g'arbiy Hindiston, so'ng Afg'onistondan va O'rta Osiyo viloyatlaridan sotib olingan. Mazkur tangalardagi belgilar grek-baqtriya badiiy madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini namoyon etadi.

O'rta Osiyodagi bu yodgorliklar topilmasi ko'plab qadimshunos va san'atshunos olimlarning ilmiy izlanishlariga

ham sababchi bo'lgan. Masalan: 1935- yil (sobiq Leningrad) hozirgi Sankt Peterburgda Eron san'ati va arxeologiyasiga bag'ishlangan 3- halqaro kongressda shu sohaning yirik bilimdoni K.V.Trever «Grek-baqtriya san'ati muammolari» mavzusida maxsus ma'ruza e'lon qildi. So'ngra shu ma'ruza asosida monografiya tariqasida o'z izlanishlari natijalarini bosib chiqardi va bu grek-baqtriya tangalari aynan shu davr badiiy madaniyatining mevasi ekanligini isbotladi.

Shunday qilib tangalarning yuz qismida grek uslubi bo'yicha sochlarini yig'ib olgan, soqolsiz hukmdorning diodemada topilgan kompozitsiyasi yon tomondan tasvirlangan. Tanganing orqa tomonida olampanoh himoyachisi yozuvi bor. Unda «Bazileos-bazileon...», grekchadan tarjima qilinganda olam hukmdori — shahanshoh» degan so'zlar bor.

So'zsiz bu tangalar ham o'sha grek afsonaviy qah-ramonlari Gerakl, Yevtidem, Lissipning mahobatli haykalini takrorlaydi. Aynan shu ustaning ijodiga Dioskur otlarining haykallari kiradi. Antimaxning bo'rtma tasviri Gretsiyadagi Poseydon Milosskiyning mahobatli obraziga mos tushgan. Biroq baqtriyaliklar san'atining yaxlit qirralari allaqachon grek obrazlariga singib borgan. Masalan, Demetriya, Artemidora, Levkolaya tangalarida Artemida xudosining tasvirini: qomatlari, yurishlari, kiyinishlarini ko'rish mumkin. Izlanuvchilar bu yerda Artemida va Anaxit obraz-larining uyg'unlashuvini ko'rishadi.

Grek-baqtriya tangalaridagi podsholarning portretlari chuqur individuallashgan, ular nafaqat tasvirlanayotgan shaxsning qomati, balki uning ichki dunyosini ham ochib berishga intilgan.

O'zbekistonning erta feodal davri me'morchiligi (IX–X asrlarda) avvalgisidan sezilarli tarzda farqlansa-da, biroq hamon uning to'g'ridan-to'g'ri davomchisi bo'lib qoldi.

X asrning birinchi yarmida Nasr Said Somoniy Registonda yana qo'shimcha saroy, ko'shk qurdi.

Saroy bilan bir qatorda alohida binolarda o'nta hukumat devoni joylashgan. Bu saroy sinchli va to'sinli tom bilan yopilgan. Saroylar qurish Ismoil Somoniyning sevimli mashg'uloti bo'lgan. U saroy, gulzorlar majmuasini rejalashtirishning haqiqiy ustasi bo'lgan.

Somoniylarning qurilish uslubi. Xorazm poytaxti Urganchda X asrda Abul Abbos Ma'mun saroy qurdiradi va o'zini Xorazmshoh deb e'lon qildi. O'sha davr zamondoshi uning saroyining darvozasining go'zalligi haqida alohida gapirib, bunday qurilma Xurosonda boshqa yo'q, deb ta'kidlaydi. Abul Abbosning o'g'li Ali boshqa, ya'ni Abul Abbos saroyining ro'parasida bir-biriga qaragan darvozali, peshtoqli (qo'sh majmualari) saroy qurdiradi. Bu uslub me'morchilikning yangi tamoyilini yaratdi va keyingi davrlar musulmon dunyosida, xususan, O'zbekistonning o'rta asrlari davomida bu yangi tamoyil rivojlantirildi. Ma'muniylar, somoniylar poytaxti Buxorodagi murakkab me'moriy majmualarni tiklash uslublarini qo'lladilar va bu uslub shu davrning ko'plab shaharlari uchun umumiy uslub bo'lib qoldi.

Somoniylar va ma'muniylar saroylari Bog'dod halifaligining Samarqanddagi (IX asr) va Shirozdagi Adud-al-Daul saroylari bilan, shuningdek, Marv va Nishopurdagi qurilmalar bilan muvaffaqiyatli tarzda musobaqalashdi. Poytaxt binolaridan tashqari Movarounnahrning boshqa hamma hududida turli xil qurilmalar, ya'ni karvonsaroylar, harbiylar uchun turar joylar, rabotlar, xonular, hammomlar, ko'priklar, machitlar, madrasalar qurildi.

Somoniylar davrining eng noyob qurilmalaridan biri — bu Somoniyni umumiy shakli bo'yicha qirralari bilan yuqoriga qarab, yengilgina yuqorilab boruvchi yarim maqbara hisoblanadi.

Maqbaraning pardozi uchun maxsus qirqilib, so'ngra ishqalangan pishgan g'isht ishlatilgan. Devor ashyosi bilan bog'lashda qo'llangan plitkalar va bruschalar hamda g'ishtlarni ustalik bilan maxsus shakllarda terish hisobiga uning bezakdor motivlari rivojlanishga ega bo'lgan.

Tadqiqotchilar somoniylar maqbarasining insonlar e'tiborini tortuvchi go'zallik sirini uning konstruktiv va bezakdor unsurlarining garmonik moslashuvida deb hisoblaydilar.

Kub va yarim doira, quyosh nuri natijasida o'yiqlar va qanotlar bu kompozitsiyaning usuli, ammo shu bilan birga me'moriy mavzu — u tuganmas turli holatlarning ko'rinishiga

ega. Va uni ichiga kirgan inson o'zida kutilmagan bir hissiyotni uyg'otadi.

Afrosiyob panellarining klassik va tantanavor bezaklarida yangi shaklning siri ochiladi. Biroq bu sirlar yaqindan qaraganda yo'qolib boradi. Ular o'zining o'tmishdoshlari bilan o'zgarmas ildizlarga ega. Afrosiyob panellarining tanilganlarini Samarrada (IX asr) Abbosidlar poytaxtidagi ganchdagi o'ymalarda va hatto Bishapur (III asr) saroyining panellarida ko'rish mumkin. Bir-birini kesuvchi aylana, eski qadimiy geometriyalashgan naqshlar uslubini kosoniylarning Keshdagi saroyidagi bo'rtmalarda ko'rish mumkin. Bu kabi o'ymalarni kosoniylar saroyi bo'lmish Ktesifonda (VI asr), Varaxsha (XIII asr) saroyida va «Qasr l Xayr» saroyidagi ilk musulmon me'morligida, aynan shunday motivlarni shimoliy Afrikadagi Sedratlarning eng yaxshi uylarining tashqi jihozlarida ko'rish mumkin (46, 47- rasmlar).

Vaqtlar o'tishi bilan erta yetuk o'rta asrning bu tabiiy «klassik» me'morlik san'atining asoslarini yo'lini aniqlashni boshqachasiga topish biz uchun mavhum. «Afrosiyob» uslubining tug'ilish siri o'z-o'zidan topiladi. Buning uchun ular faqat butun zamonaviy badiiy madaniyatning hamma qismi ko'z oldimizda bo'linmasdan namoyon bo'ladi. IX–X asrlar me'morligi, tasviriy san'ati va amaliy san'ati ularning davrida tug'ilgan g'oyalarning hamma kompleksining eng to'g'ri yakuni bo'ldi.

V–X asrlardagi «Sosoniylar metallari» deb dunyoga mashhur o'rta sharq buyumlari alohida diqqatga sazovordir. Bu buyumlar kelib chiqishiga ko'ra Erondan bo'lib, ular o'ziga xos, original tarzda O'rta Osiyo va Kavkazda to'liq ishlab chiqilgan. Sosoniylarning metallardan, matolardan, tosho'ymakorlik buyumlari san'ati Sharqning va G'arbning ko'plab mamlakatlariga — qadimgi Rusga, Fransiya va Xitoygacha tarqalgan. Sosoniylar metallning roliga baho berganlarida ikki tendensiya namoyon bo'lgan: ba'zilar Erondan boshlangan yo'nalish desa, boshqalar uning mahalliy ildizlarini alohida ta'kidlaydilar.

Badiiy metall hammadan kam darajada o'zi uchun alohida tor qolipga chidaydi. Oltin qo'lli ustalar hunarmandlarning eng sayyoh qabilasi hisoblanadi. Bir qancha o'xshash idishlarning shakllarini O'rta Osiyoda, Eron yoki Kavkazda uchratish

mumkin. Sosoniylar metallarida o'ziga xos motiv va mavzular mavjud.

Vaxshiy hayvonlarni tasvirlash bilan birga shu toifadagi buyumlarda, sherlar ovi, yo'lbarslar, qoplonlar, tog' qo'ylari, echkilar, jayronlar, kiyiklar va boshqalar mahorat bilan ishlangan. Ko'p hollarda qoplon bilan yakkama-yakka chiqqanu hayvonni xanjari bilan yaralab, uning jag'ini qo'li bilan yirtib yenggani podsho tasvirlanadi. Goh u tezlik bilan ketayotgan quyonni ovlab, uning bo'yniga arqon tashlaydi, goh esa ayiqni izma-iz quvadi. Uning o'z saroyida an'anaviy antik davr xudosi holatida garovga tushgan go'zal kanizaklar jamoasida yoki sadoqatli xizmatkorlar, ba'zida musiqachilar qurshovida dam olayotgan holatlari ifodalanadi.

Tangalarni zarb qilish va quyish san'ati ham badiiy metall bilan bog'langan. U faqatgina hukmdor saroyidagina rivojlangan. Bu san'at kichik bo'lsa ham ammo katta tarixiy va badiiy ahamiyatga ega.

V–X asrlar davomida hukmdorning portretli qirralari tobora ramz va belgilarga o'rin bera boshladi (48, 49, 50, 51, 52, 53-rasmlar). Biroq ana shu metamarfoza muhitida tangalar orqali ulardagi yozuvlarning xarakteriga, uslublariga qarab tasviriy til shaklining o'zgarganligini kuzatish mumkin edi. Tangachilik tarixiga ma'lum bir uslub xosdir. Hatto boshqa bir podsholik tangalariga o'xshatishga intilish ham o'ziga xos ma'lum bir estetik bahoni mujassam etar edi. Bunday ko'chirib ishlash uchun bahona ko'p edi. Zarb qilishga qadimdan tashqaridan ustalarni qiziqtirish davom etgan. Bular qadimda osiyolik, gretsiyalik va rimlik ustalar bo'lgan. Ularning aksariyat qismining kelib chiqishi Siriyadan va Vizantiyadan bo'lib, ular ham shu yerda yashaganlar. So'zsiz ular bilan birga mahalliy xalq vakillaridan yaxshi zarbchi ustalar bo'lgan.

O'zlarining imtiyozlarini tasdiqlash maqsadida podsho va knyazlar o'tmishdan tanilganlar geneologiyasini kiritganlar. Ana shu vaqtdan V asr tangalarida podshoning ko'krakkacha bo'lgan tasvirlarini ko'rish mumkin.

VI–VII asrlardagi qadimgi eftalitlar podsholiklarining hududida topilgan tangalarda podsholarning boshi birmuncha

kattalashtirilib ifodalangan. Ushbu tangalarda podsho jahldor, vahshiy qilib tasvirlangan. Tanganing orqa tomonida olovli mehrobning yon taraflarida ikki qo'riqchi tasviri. Bu lavha bizga Menandrning Vizantiya elchixonasidagi «turk xoqoni» haqida (568) gi hikoyani eslatadi. Mazkur syujetning yechimini biz Beruniyning qadimiy Ro'zi-Mehr bayrami odat-udumlari haqidagi yozgan asaridan topamiz.

Bu davrda sosoniylar draxmalariga taqlid qilib ishlangan Peroza I (459–484) tangalari yaratildi. Ularni Toshkent yaqinida, Surxondaryo va Farg'ona viloyatidagi arxeologik topilmalarda ham ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, sosoniylar podshosi Varaxsha V (423–438) draxmalaridan ustun bo'lgan draxmalar ham keng tarqalgan. Bular orasida «buxor-xudotlar» deb nomlanuvchi tangalar ham bo'lgan. Ularda podsho portreti yon tomonidan tasvirlangan. Burun, ko'z, lab, bo'yin va yuzning hamma qismlari bo'rtma qilib ishlangan. So'g'd hukmdorlari va ularning qo'l ostidagi knyazlari VII–XIII asrlarda xitoy namunalari asosida quyilgan tangalarni muomalaga chiqargan. Ular, ayniqsa, sulolaga tegishli bo'lgan belgilari bilan qiziqarlidir.

Mahalliy ustalar tomonidan zarb qilingan tangalar orasida, ayniqsa, chapdan podsho qiyofasi, o'ngdan malikaning qomati tasvirlangan tangalar o'ziga jalb qiladi. Mazkur juft portretlar vizantiyalik namunalarni yodga solsa-da, biroq ularning yuz tuzilishlari turklarniki: podsho sochlari to'g'ri, uzun, yelkagacha tushirilgan, yonoq suyaklari chiqqan, mo'ylovlari qisqa va to'g'ri. Malikaning boshida baland cho'qqisimon namatdan yasalgan zeb-ziynatlar bilan bezatilgan bosh kiyim. Tangalarda hayvonlarni tasvirlash an'anaviy tarzda quyidagicha bo'lgan. Masalan, Panjkentda otlarni, Varaxshada tuyalarni, Shoshda chopayotgan afsonaviy jonzotlarni ko'rish mumkin. Jonzotlarni tasvirlash semantikasi bizni rivoyatlar dunyosiga olib kiradi. Ammo bu obrazlarning jonli mazmuni mahalliy dinlarning va qahramonona eposlarning rivojlanib borishi sababli doimo o'zgarib turgan. Astralmifologik asoslarga binoan epik berilishlar sharaflangan, undan so'ng esa belgining o'zi yangi funksiyaga ega bo'ldi. Qabila belgilar — totem va muhrlar taniqli

hukmdorlarning qandaydir bir oilaviy gerbi yoki ularning ritsarlik nishoni bo'lib qoldi. Ular nafaqat tangalarda, balki tojlarda, jangchilarning shaxsiy jangovar qurollarida ham tasvirlangan.

Naqshdagi motivlar bilan birgalikda geraldik ko'rinishida qasr devorlarini ham bezaganlar. Ularning nomlarini mashhur qimmatbaho buyumlar va xumlarda ko'rish mumkin edi.

Tangalarni tasvirlash o'sha davr hukmdorlarining g'oyalari bilan bog'liq bo'lgan.

Go'zallik hisi uzviy tarzda hukmdorlik va xazinalar boyligi bilan uyg'unlashib ketdi. Shu bilan birga ushbu tangalarning badiiy ahamiyati ham juda katta.

Temuriylar davri me'morchiligida geraldika

Temur va temuriylar davrining buyukligi tarix va tarixiy manbalardan yaxshi tanish. Temur va temuriylar davri dunyo zarvaraqlarining yorqin namunasi hisoblanadi. Fan, shaharsozlik, tasviriy san'at, musiqa dunyo miqyosidagi bu davrga «Temuriylar renesansi» nomi bilan mashhur bo'lgan.

Mahobatli, diniy va ijtimoiy qurilmalar Amir Temur va temuriylar imperiyasining ulug'vor g'oyalarini ifodalashning alohida namunasi bo'lib qoldi. Qurilish ko'lami shu qadar ulkan ediki, ularning miqyosi butun bir yirik davlatning hamma shaharlarini qamrab olgan edi.

Temuriylar me'morchiligining noyob yodgorliklari sirasiga Turkistondagi Ahmad Yassaviy yodgorlik majmuasi (XIV asr), Toshkent shahri yaqinidagi Zangiota maqbarasi (XIV asr) Buxorodagi Sayfiddin Bahorzi va Bayonqulixon maqbaralari (54- rasm), Chashmi Ayub (XIV asr), Buxoro va G'ijduvondagi Ulug'bek madrasasi (XV asr) va boshqalar kiradi. Biroq shu davr me'morchiligining eng yorqin va jozibador qurilmalaridan Shahrizabz va Samarqanddagi me'moriy obidalar bo'ldi.

Amir Temur o'zining tug'ilgan shahri bo'lmish Shahrizabzga katta e'tibor qaratdi va u yerda me'moriy yodgorliklar qatoridagi eng ulug'vor hashamatli Oq-Saroy majmuasini (XV asr) qurdirdi

(55- rasm). Mazkur qurilma o‘zining ulkan o‘lchamlari, hajmi, yaxlitligi va shaklining oddiyligi bilan kishini lol qoldiradi. Peshtoqning kengligi 22 m, balandligi 50 m ga yaqin.

Oq-Saroy binosi cheksiz ko‘p shaklli naqshinkor bezaklar va e‘tiborga molik ko‘p rangli koshinlar bilan ziynatlangan. Issiq – oxra fonda – pardozlangan terrakotlar – o‘ta mukammal geometrik tarzda terilgan sirli g‘ishtlardan chiqib turibdi. Boy naqshinkor koshinlari bilan Oq-Saroy hali-hanuz tengsiz hisoblanadi. Ko‘lami va naqshli suratlari rangli koshinlarining uyg‘unlik bilan bir tekis terilishi, inshootga ulug‘vorlik va mahobat baxsh etadi. Oq-Saroy peshtoqining tepa qismiga yirik harflar bilan quyidagi yozuvlar yozilgan: «Agar bizning avliyoligimiz va karomatlarimizga shubha bilan qarasang, imoratlarimizga nazar sol!»¹

Samarqand Amir Temur g‘oyasi bo‘yicha buyuk davlat poytaxti, yer yuzidagi eng go‘zal shahar bo‘lishi kerak edi. Buyuk hukmdor mazkur maqsadini amalga oshirish uchun hamma imkoniyatlarini ishga soladi. Haqiqatan ham Samarqand uzoq yillar mobaynida davrning eng ilhombaxsh me‘moriy manbai, Old Osiyo va O‘rta Osiyoning madaniyat va san‘at markazi bo‘lib qoldi. Madrasa va masjidlarining ulug‘vor binolari, hukmdor saroylari va hashamdor uy-joylar, bozor va karvon saroylar shahar qurilishining ajralmas qismi bo‘lib xizmat qildi.

Temuriylar davri me‘morchiligining muhim qirralarini majmualar qurilishi tamoyili tashkil qilar edi. Bu davr me‘moriy majmualarini bir nechta guruhga bo‘lish mumkin. Ulardan eng birinchisi qo‘sh majmuadir. Bunda bir o‘qda joylashtirilgan ikki bino bir-biriga qarama-qarshi joylashadi. Shunga misol qilib Samarqanddagi Amir Temur Jom‘e masjidi va Saroymulkxonim madrasasini keltirish mumkin. Ushbu masjidni qurishdan avval hukmdor o‘z oldiga Sharq musulmon dunyosidagi hamma masjidlardan o‘zadigan masjid qurishni maqsad qilib qo‘ygan edi va buning uchun poytaxtdagi eng

1. «San‘at». O‘zbekiston Badiiy akademiyasining jurnali. «Temuriylar davlati shukhi». 22–25- betlar. 4- son. 1999- y.

yaxshi joyni tanladi. 1399- yil 11- mayda Hindiston safaridan qaytib kelgan Amir Temur imorat qurilishiga birinchi toshni qo'ydirdi. O'zining ko'lami bo'yicha nihoyatda ulkan bo'lgan mazkur bino qurilishida O'rta osiyolik, eronlik, hindistonlik tosh-taroshlar, koshinkorlar, yog'och va tosh o'ymakorlari, rangtasvirchilar qatnashib u qisqa muddatda tiklandi va 1405-yili uning qurilishi tugallandi (56- rasm).

Masjid hovlisiga qaratilgan qubbasimon ayvonlar, uchta gumbazli bino va alohida ajratilgan ajoyib kirish qismi o'zida butun majmua ko'rinishini namoyish etadi. Majmuani to'rt burchak tarafidan to'rt minora to'ldirib turgan.

Masjidning me'moriy bezaklarida qo'llanilgan o'ziga xos g'isht terish uslubi, ulardagi geometrik yechimli naqshlar bilan yulduzsimon sirli muqarnaslarning qo'llanilishi, mozaikaning rangdorligi kishini lol qoldiradi.

Masjidning bosh peshtoqi ro'parasida 1405- yil ulkan qurilma tiklandi — bu Saroymulkxonim madrasasi edi (57- rasm). Zamondoshlarning yozishicha, mazkur bino bezaklari va hashamdorligi betakror bo'lgan. Uning ichida esa Bibixonim maqbarasi joylashgan.

Ochiq maydonda jamlanuvchi bir muncha keyingi majmualar yanada rivojlangan. Bu qurilmalar uch yoki to'rt taraflama joylashtirilganligi bilan farqlanadi. Butun dunyoga mashhur bo'lgan Samarqand shahridagi Registon maydoni Amir Temur davridagi me'moriy, yangi tipdagi majmuaning klassik misoli hisoblanadi. Uning tarkibida uchta diniy o'quv yurti — madrasalar o'sha davrda ilmga intilish nihoyatda katta bo'lganligini isbotlaydi. Buxorodagi maydonda joylashgan Ulug'bek madrasasining peshtoqiga: «Ilmga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir», deyilgan.

Temuriylar Samarqandida bosh maydonining shakllana boshlashi Ulug'bek hukmronligi davriga to'g'ri kelgan. Aynan shu davrda (1417—1420- yillar) Ulug'bek madrasasining qad ko'tara boshlab, tugallanishi bilanoq, bo'lajak me'moriy majmuaga asos solindi (58- rasm). Keyinroq (1619—1635/36- yillarda) Sherdor madrasasi qurildi (59- rasm). Ularning orasida esa (1641—1660- yillar) Tillakori madrasasi qad ko'tardi (60- rasm).

Mazkur maydondagi qurilmalar orasida Sherdor Madrasasidagi peshtoqning o'ng va chap tarafiga Afrosiyob kulolliги mahsulotlari asosida yo'lbarsni tasvirlovchi harflar muhrlangan. U boy me'moriy bezakli naqshlari bilan boshqa qurilmalardan farqlanadi. O'sha peshtoqda ikki marta takrorlab ishlangan geraldik (emblema) nishonda quyoshning yorug' charaqlab turgan fonida o'ljasiga hamla qilayotgan yo'lbars shakllari ifodalangan. Bu bilan ma'lum ma'noda shu davr temuriylar davlatining kuch-qudrati va shu bilan birga me'moriy qurilmalarning ulug'vorligi namoyon bo'ladi.

Shohi-Zinda me'moriy majmuasi, shahar ichkarisidagi majmualardan farqli notekis hududda joylashib o'zining qarama-qarshi turganligi bilan maqbaralar galereyasini aks ettirgan. Deyarli hamma maqbaralar yagona peshtoq-gumbazli loyiha asosida qurilgan. Biroq ularning birontasi ham bir-birini takrorlamaydi.

Shu davrning eng ulug'vor yodgorliklaridan biri Amir Temur maqbarasidir. Ushbu me'moriy majmua (XIV asr oxiri — 1405-yil) tarkibiga madrasa va xonaqoh kiradi. Maqbaraning keng zallarida, qimmatbaho toshlar — marmar, oniks va nefritdan ishlov berilgan yodgorliklar o'rnatilgan. Maqbara binosining ichki qismidagi naqshining bejirimligi, oltin va lojuvardning tantanali jilosi kishini xayratlantiradi.

Temuriylar davri me'morligida naqsh va rang juda muhim ahamiyat kasb etgan. Me'moriy naqshlarning yangi turlari paydo bo'ldi, ganchdan ishlangan bo'rtma naqshlarning oltin suvida ishlanishi, ya'ni kundal shular jumlasidandir. Bino ichkarisida ishlangan qubbasimon, yelkanchali va sumalaksimon unsurlardagi kundal naqshlarining boyligi, rang va fakturasi bilan parcha matosini xayolan gavdalandiradi.

Amir Temur va temuriylar davrida san'at va hunarmandchilik qayta tug'ildi. Gilamlilik, kashtachilik, kandakorlik, tosh va yog'och o'ymakorligi, maishiy va me'moriy kulolchilik yuqori rivojlanish pog'onasiga ko'tarildi. Ulkan binolarning peshtoq va gumbazlarida ishlatilgan sirlangan moviy koshinlar davrning o'ziga xos ramzi bo'lib qoldi. Ko'k-havorang rang maishiy kulolchilikda ham yetakchilik qildi. Yuqori badiiy va

texnologik sifatga ega bo'lgan temuriylar kulolchilik buyumlari va vositalari O'rta va Yaqin Sharqqa eksport qilindi.

IX–XII asrlarning bir muncha mukammallashgan islmiy, ba'zan esa hayvon qiyofalari bilan uyg'unlashgan naqshli tasviriy mavzulari o'z o'rnini bejirim, issiq kolorit baxsh etuvchi, yangi davrning nozik uslubdagi havorang kulolchiligiga bo'shatib berdi (61- rasm).

Temuriylar sirli kulolchiligi XIV asr oxiri — XV asrlarda o'zining beqiyos yuksalishiga erishdi. Temuriylar davlatining boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan keng ko'lamdagi savdo-sotiq va istisodiy aloqalari natijasida O'rta Osiyoda Xitoydan keladigan chinniga taqlidan oq fonda ko'k-moviy naqsh ishlangan idishlar paydo bo'ldi. Asosi koshindan tayyorlangan chinnisimon sopol buyumlar O'rta Osiyoning turli shaharlari: Buxoro, Shahrisabz, Marv, Niso, Urganchda ishlab chiqarilsa-da, uning markazi Samarqand bo'ldi. Bu davr kulolchilik san'ati nafaqat ko'k-oq ranglarning mahoratli tarzda uyg'unlashtirilishi, balki o'ziga xos texnologiyasi va ustalarning shaxsiy uslublari bilan ham mo'g'ullargacha bo'lgan sopol buyumlaridan ajralib turadi.

XVI asr davomida sirli kulolchilik avvalgi davrlar san'ati an'analarini davom ettirdi, lekin XVI asr oxiri — XVII asr boshlarida chetdan keltiriladigan qimmatbaho kobalt o'rniga sifat jihatdan ancha past bo'lgan bo'yoqlarning qo'llanilishi sopol idishlar sifatining pasayishiga, koshinli qiyofalar o'rnini loyly idishlarga bo'shatib berishiga olib keldi. Bu esa butun kulolchilik buyumlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi, ularning devorlari birmuncha qalinlashib, qo'polroq tus oldi. Silikat idishlar asosida tayyorlangan chinni ko'rinishidagi buyumlar O'rta Osiyoning turli xil shaharlarida ishlab chiqarildi.

XVIII — XX asr boshlarida O'zbekistonda san'at va hunarmandchilik

XVII asrning ikkinchi yarmi va XX asrlarda O'zbekiston san'ati tarixida barqarorlik kuzatilsa-da, lekin biror-bir ahamiyatga molik yorqin muvaffaqiyatga erishilmagan.

Movarounnahr hududida shakllangan Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklarida san'at avvalgi davrlardagi singari cho'qqiga erisha olmadi. Ularning alohidalanishi badiiy jarayonda berk va chegaralangan muhitga olib keldi.

Miniatyura rivojlanishdan to'xtadi va me'morlik salohiyati pasayib ketdi. Faqatgina amaliy san'at barqaror tarzda rivojlanib, usta-hunarmandlar an'anaviy usul va texnologiyaga tayanib turib sopol, yog'och, suyak va toshdan ajoyib buyumlar ijod etdilar. Kandakorlik va zargarlik san'ati o'zining yangicha kuchlanish davriga kirdi. O'zbek badiiy gazlama mahsulotlari nozik naqshlar va boy ranglarda ishlab chiqarila boshlandi. XVIII asrga kelib, markazlashgan hokimiyatning tanazzuli oqibatida yuzaga kelgan inqiroz XV–XVI asrlarda O'rta Osiyo me'morligining turli ko'rinishdagi qubba gumbazlarini boyitgan o'yma koshinli taxtachalar, rango-rang gulli koshinlarni tayyorlash sir-sinoatlarining unitilishiga sabab bo'ldi.

Siyosiy hokimiyatlarning mustahkamlanishi, iqtisod va madaniy hayotning ko'tarilishi bilan XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmiga kelib Samarqand, Xiva, Qo'qonda mahobatli me'moriy binolar qurilishi yana jonlandi (62, 63-rasmlar). Qurilish binolari an'anaviy loyiha va hajmiy-fazoviy yechimli qolipga tushirildi, o'ziga xos ravishda me'moriy bezaklar bilan boyitildi: ustalar ganch va yog'och o'ymakorligidan keng foydalandilar, devor va shiftlarni suratlar va naqshlangan koshinlar bilan bezatdilar. Aynan shu an'anaviy hunarmandchilik namunalariga ko'ra biz mazkur davrdagi san'atning rivojlanish darajasi haqida mulohaza yuritamiz (64- rasm).

Maktablarning eng mukammal tomonlari va ularning shuhratlarini saqlab qolishga shartli urinish, o'tmish mumtoz namunalari izidan borilishi bilan ustalarning mahsulotlari sifati yanada yaxshilandi.

Badiiy hunarmandchilikning barcha qatlamlarida ikkita asosiy guruh aniq kuzatiladi. Birinchi guruh shahar muhiti estetik didini aks ettiruvchi, o'rta asrlar shahar madaniyati ta'sirida shakllangan hunarmandchilikni birlashtiradi: zardo'zlik, kitoblarni bezash, yog'och va ganchga surat solish va o'yma naqsh tushirish, badiiy ma'dan buyumlarini yasash. Xalq

ijodining o'z ildizi bilan qadimgi yer egalari va ko'chmanchi dashtliklarga borib taqaluvchi boshqa turlari: gazlamaga gul bosish va kichik haykaltaroshlikda an'anaviy xalq san'ati saqlanib qolingan. Shu bilan bir qatorda ham shahar estetik qonunlarini, ham xalq madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan: zargarlik, kashtachilik va gilam to'qish san'ati kabi chegaralashgan san'at turlari mavjud bo'lgan.

Zardo'zlik, zargarlik va kitoblarni bezash san'ati shahar hunarmandligining oliy shaklini tashkil etdi. Hunarmandchilikning bunday guruhi, asosan, o'ziga xos aniq yagona uslub sifatida Buxoroda shakllandi. Boy tabaqaga mansub ayol va erkaklarning kiyimlari zardo'zlik bilan bezatilgan (65- rasm). Zardo'zlik shohi va duxoba matoda, butun zaminning qoplanishi bilan bardon va karbosda bajarilar edi. Ularning qismini va nomlanishini anglatib turuvchi zardo'zlik turlari (zamindo'zi, guldo'zi, darham, butador va boshqalar), tikish va naqshinlash texnikasi bilan uslubda ajralib turuvchi bo'lib, yumshoq terining ustiga bo'rtma guldastalar, alohida guldastalar yoki asosan to'nlarning yelka va qo'l qismida atrofi jiyakli katta to'pbarggul ko'p qo'llanilgan. Zardo'zlik buyumlarida falakchalar bilan bezatilgan naqshlar asosan o'simliksimon bo'lib, handasaviy va chiziqli naqshlar juda kam qo'llanilgan. Zardo'zlik san'ati bilan asosan erkaklar – saroy ichkarisida shug'ullanishgan.

Avloddan-avlodga o'tuvchi, qat'iy qoidalarga bo'ysunuvchi, me'moriy-pardozlash ishlarida o'zining barqaror shakllariga ega bo'lgan yog'och va ganch o'ymakorligi san'ati ham taraqqiy topgan. Qo'zg'almas mulk bilan bog'liq bo'lgan san'atning bu turi o'z shakl-u shamoyilida o'rta asrlar an'anaviy naqsh san'atini saqlab qolishga intilganligini namoyish etadi (66, 67-rasmlar).

XVIII–XIX asrlar mis kandakorligining ma'lum bir shakl va mavzularga sodiqligini faqat me'moriy-pardozlash ishlariga taqqoslash mumkindir. Xuddi undagi kabi qat'iy tizim, barqaror diqqat bilan ko'rsatilgan mavzular, aniq chegaralangan maktablar faqat XIX asrning ikkinchi yarmidagina o'z dasturini yangilaganligi kuzatiladi.

XVIII–XIX asrlar badiiy kulolchiligida ishlab chiqarilgan buyumning makoni va uslubi oʻta chegaralangan holda alohida markazlarga boʻlinadi. Bu uslublardagi ajralishlar birmuncha chuqur va keng, ayniqsa, mis kandakorlik buyumlari nafaqat shaklan, balki naqshlarni joylashtirish usullariga koʻra oʻta farqlanadi, lekin ular oʻzlarining keskin tarzidagi sarchashma va chuqur ildiziga egadirlar. Kulolchilikning koʻpchilik oʻchoqlari oʻz anʼanalariga ega emasliklariga qaramay yoki boshqa tumanlardagi singari tayyor buyum namunalariga ham murojaat qilinmagan, shuningdek, X–XIII va XIV–XVI asrlarning mumtoz badiiy kulolchilik merosiga ham deyarli murojaat etilmagan holda qishloqlarda butunlay yangitdan tugʻildi. Unda boshqalarga oʻxshatishga urinish yoʻq, bu esa yerli kulollarning mustaqil va yorqin shakllanishiga olib keldi. Sirlangan kulolchilikning asosiy maktablari: Fargʻona maktabi – Rishton markazi bilan, Buxoro – Samarqand maktabi – Gʻijduvon, Uba, Buxoro, Samarqand, Urgut, Shahrisabz, Denov markazlari bilan va Xorazm maktabi – Xiva, Xonqa va Kattabogʻ qishloqlari va boshqa markazlarida shakllandi.

Aynan shu davrlarda XX asrda ham oʻz ahamiyatini saqlab qolgan hunarmandchilikning asosiy badiiy markazlari tarkib topdi. Buxoro, Xiva, Samarqand, Fargʻona vodiysi shaharlarida va Oʻzbekistonning janubiy viloyatlari bozorlarida xalq hunarmandchiligining turli buyumlari namoyish etilgan va ular maishiy hayotda keng qoʻllanilgan.

Bu davrlar amaliy sanʼatida anʼanaviylik oʻzining katta ahamiyatini saqlab qolgan. Oʻzgarishlar ham bor, albatta, lekin ular qonuniy chegaralarni yorib chiqmagan. Shunday qilib, aynan amaliy sanʼat oʻtmish sanʼati anʼanalarini koʻproq saqlab qolgan holda oʻzbek xalqining XX asr soʻnggida kechgan uygʻonish davrida muhim ahamiyat kasb etdi.

Oʻzbekiston Respublikasining davlat gerbi

Oʻzbekiston Respublikasining Davlat gerbi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992- yil 2- iyul kuni tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiylar uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda o'ng tomonida bug'doy boshloqlari, so'l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iboratdir. Gerbning yuqori qismida Respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va besh qirrali yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir. Gerb markazida himmat, olijanoblik va fidoyilik timsoli bo'lgan afsonaviy Xumo qushi qanotlarini yozib turibdi (68- rasm).

Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu umidlarini ifodalaydi. Gerbning pastki qismidagi Respublika Davlat bayrog'ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandiga «O'zbekiston» so'zi bitilgan.

Toshkent gerbi


Ilk o'rta asrlardayoq Toshkentning o'ziga xos ramzi yuzaga kelgan. VIII asrda Choch (Shosh) shahrining nishonida qoplon (tog' barsi) tasvirlangan. Buni VIII asrning birinchi yarmida hukmronlik qilgan Yabg'u — Tarnovcha nomi bilan zarb qilingan tangalarning oldi tomonida qoplon, orqa tomonida esa qang'arlarning ayri tamg'ali va so'g'd yozuvida «Tarnovcha» deb bitilgan muhr tasvirida ko'rish mumkin (69-rasm). Toshkent hukmdorlari ko'pincha o'z valiahdlariga tog'ning eng kuchli va epchil jonzodiga qiyosan Elbarsxon, Belbarsxon kabi ism qo'yanlar.

Respublikamiz mustaqilligi davrida, 1996- yilda mam-lakatimiz poytaxti sanalgan go'zal Toshkent shaxrining yangi gerbi tasdiqlandi.


Nazorat savollari

1. *Qadimgi O'zbekiston hududida qanday muhrlar ishlatilgan?*
2. *Ilk davlatchilik davrida geraldik tasvirlarga ega bo'lgan tangalarning nomini ayting.*
3. *Qadimgi O'zbekistonda geraldikaning qanday turlari mavjud bo'lgan?*

4. *Temur va temuriylar davri amaliy san'atida qanday geraldik tasvirlar qo'llanilgan?*
5. *Ganchkorlikda qanday geraldika qo'llanilgan?*
6. *Haykallardagi geraldikaga misol ayting.*
7. *Muhrlarning o'zidagi geraldik tasvirlarda nima aks etgan?*
8. *Rangtasvirlarda ifodalangan geraldik tasvirlarda nimalarni ko'rish mumkin?*
9. *XVIII–XX asr boshlarida badiiy hunarmandchilikning qanday turlari rivojlangan?*
10. *Sirlangan kulolchilik tarkib topgan shaharlarning nomini aytib bering.*
11. *Mustaqil O'zbekistonning gerbi qachon tasdiqlangan?*
12. *Gerbda nimalar tasvirlangan?*
13. *O'zbekiston gerbida geraldikaga xos belgilar bormi?*
14. *Gerbda qanday tarixiy ma'nolar aks etgan?*
15. *Toshkent shahri gerbining muhim xususiyatlarini aytib bering.*
16. *Birinchi gerb nechanchi asrda tuzilgan?*
17. *Gerbda qanday geraldik tasvirlar aks etgan?*
18. *Mustaqillik davridagi Toshkent gerbi qachon tasdiqlangan?*



*1 - rasm. Podsho Doro I davridagi
Bexistun qoyasidagi bo'rtma tasvirlar.*



2- rasm. Podsho Sharkalisharri zamonidagi muhr.



3- rasm. Qadimgi Misr geraldikasiga oid Fir'avn Senusert III ning
ko'krakka taqiladigan oltin nishoni.



4- rasm. Taxtda oʻtirgan Shummerlar oy ilohasi tasvirlangan muhr.



5- rasm. Qadimgi Misr geraldikasiga oid
Tutanxamon haykalchasi.




6- rasm. Tutanxamon va uning rafiqasi gulzor ichida.
Yog'och quti qopqog'idagi fil suyagiga o'yilgan rasm.




7- rasm. Tutanxamon taxtining hukmdor va rafiqasi
tasvirlangan suyanchig'i.



8- *rasm.* Tutanxamon maqbarasidan topilgan
haykalcha.




9- rasmi. Qadimgi Yunonistondagi Gera ibodatxonasi geraldikasiga oid me'moriy yodgorlik va uning loyihasi.



10- rasm. Qadimgi Yunonistondagi Artemida ibodatxonasi peshtoqi geraldikasi.
 Kekira orolidagi Artemida ibodatxonasi frontonidagi geraldik boʻrma tasvirlar.
 Mil. av. 585- yil.




*11- rasm. Konstantinopoldagi Avliyo Sofiya Sobori tashqi fasadi
(532–537- yillar).*




*12- rasm. Ravennedagi Galla Plasidi maqbarasi (V asrning ikkinchi
yarmi) va San Vitale cherkovining umumiy ko‘rinishi.
(540–547- yillar).*



13- rasm. Ravnadagi Teodorix maqbarasi. (526–530- yillar).




14- rasm. Puatyedagi Sen-Jan Baptisteriysi. (VII–VIII asrlar).




✓
15- rasm. Gernrodedagi Kiriakskirxe ibodatxonasi.
(X–XII asrlar).



*16- rasm. Vormsdagi soborning old tomoni.
(XIII asrning ikkinchi yarmi).*




✓
17- rasm. Amyendagi sobor
old fasadidagi geraldik boʻrtma tasvirlar. (1213 y. — XV a.)




18- rasm. Parijdagi Sent-Shapell ibodatxonasi ichki ko'rinishi.
(1245–1248 y.)



19- rasm. Amyendagi Sobor ichki ko‘rinishi.



**20- rasm. Amyendagi sobor peshtoqidagi
gul ko‘rinishidagi geraldika. (XV asr)**



*21- rasm. Kelndagi soborning old ko‘rinishi.
1248- y. XIX asr*



22- rasm. Sarmat geraldik nishonlari:
 otlarning egar jabdug'laridagi (1); belbog' to'qasidagi (2,3),
 osma ko'zgularidagi (4,5); tosh bo'rtmadagi (6), toshtaxtadagi (7),
 Bosfor podsholigi tangalaridagi (8,9).



1



2



3



4



5




6



7

23- rasm. Bosporning murakkab shoxlik gerblari;
shox Remetalkaning (1,2) – Tiberiya Evpator (3,4) gerblari,
Savromat II gerbi (5), Reskuporid III (6) gerbi,
noma'lum shox (7) gerbi.




24- *rasm. Sarmat va Bosporning geraldik bezaklari (1,2).
Sarmat geraldik nishoni tasvirlangan Bospor
podshohining belbog' to'qasi (3).*



25- rasm. VI–VIII asrlarda kumush belbog' to'plamlaridagi geraldik tasvirlar.



26- rasm. Qadimgi rus tangalaridagi knyazlik gerblari: Vladimir Svyatoslavich gerblari (1,2). Svyatopolk gerblari (3,4), Yaroslav Mudriy gerblari (5,6).



27- rasm. Xususiylik belgilari:

- 1—chegara; 2—xoch; 3—zag‘izg‘on panjasi; 4—qarg‘a panjasi;
 5—oila boshlig‘ining xususiylik belgisi;
 6—katta o‘g‘ilning xususiylik belgisi;
 7—ikkinchi o‘g‘ilning xususiylik belgisi.



28- rasm. Ryurikovichlarning qarindoshlik belgilari.



1



2



3



4



5

29- *rasm.* Gerb qalqonining shakllari:
varyajcha (1) italyancha (2), ispancha (3),
fransuzcha (4) nemischa (5).



1



2



3



4




5


30- rasm. Gerblardagi grafik tasvirlarning bo'yoqlari: qizil (1), havorang (2), yashil (3), qirmizi (4), qora (5).



1



2



3

31- rasm. Mo'ynalarning gerblardagi grafik tasviri:
oqsichqon mo'ynasi (1), oqsichqon mo'ynasining
murakkablashgani (2), olmaxon mo'ynasi (3).




1



2




3



4

32- rasm. Qalqonning bo'linish turlari:
(1,2) kesishgan,
o'ng va chapdan bo'linish (3,4).



33- rasm. Gerblardagi geraldik shakllar: asos (1), quyi qism (2), ustun (3), belbog' (4), o'ngdan bo'lingan (5) va chapdan bo'lingan (6), stropil (7), ustun belbog'ning kesishgani (8), ikki kesishma (9).



34- *rasm. Axmoniylar davrida topilgan toshdagi muhr.
(Samarqand)*

✓



**35- rasm. Axmoniylar davrida topilgan toshdagi muhr.
(Samarqand)**



36- rasm. Samarqand qazilmalarida topilgan toshdagi o'yma muhr.



37- *rasm.* Amudaryo xazinalaridan topilgan tilla
taxtachadagi bo'rtma tasvirlar.



38- rasm. Appolon va Zevs bo'rtma tasviri tushirilgan
Grek-baqtriya kumush tangalari.
(Mil.av. III–II asr).



**39- rasm. Evkratid podshosi tasviri tushirilgan
Grek-baqtriya kumush tangasi.
(Mil.av. 175–155 yillar.)**



*40- rasm. Demetriya podshoxi tasviri tushirilgan
Grek-baqtriya kumush tangasi.
(Mil.av. 200–185- yillar).*



*41- rasm. Podsho Geliokl tasviri tushirilgan
Grek-baqtriya kumush tangasi.
(Mil.av. 155—140- yillar).*

V



**42- rasm. Podsho Yevtidem tasviri tushirilgan
Grek-baqtriya kumush tangasi
(Mil.av. 235–200- yillar).**



43- *rasm.* Buzg'unchi Geliokl tasviri tushirilgan
bronza tanga (*Mil.av. II-I asr.*).



44- rasm. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki muomalaga chiqargan tangalari.



45- rasm. O‘zbekiston Respublikasida Ulug‘bekning 600 yillik yubileyiga chiqarilgan yubiley tangasi (1); O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 5 yilligiga chiqarilgan yubiley tangasi (2); Amir Temurning 660 yillik yubileyiga chiqarilgan yubiley tangasi (3).



46- rasm. Varaxshadagi qasr (VII asr)



47- rasm. Xorazmdagi Teshik qal'a qasri xarovalari (VII asr).



48- *rasm.* Ikki jangchining yakkama-yakka olishuvi
tasvirlangan kumush idish (VII asr).



49- *rasm.* Buxorodagi kumushdan ishlangan
mahalliy tangalar
(VI–VII asrlar).

✓



50- rasm. Kumushdan ishlangan mahalliy tangalar
(VI–VII asrlar).




**51- rasm. Turkiston shimoliy hududlaridagi
bronzadan ishlangan tangalar
(VI–VII asrlar).**



52- rasm. Xorazmdagi bo'rtma tasvirli kumush tangalar
(VI-VII asrlar).




53- *rasm. Xorazmdagi bo'rtma tasvirli kumush tangalar
(VI–VIII asrlar).*




54- *rasm.* Buxorodagi Sayfiddin Boxarzi maqbarasi (1261 - y).




55- rasm. Shaxrisabzdagi Oq-Saroy (1380—1404- y).




*56- rasm. Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasi
(1403—1404-y.)*



57- rasm. Samarqanddagi Saroyulkxonim masjidi (1399—1404-y.)



58- rasm. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi (1420- y.)



59- rasm. Samarqanddagi Sherdor madrasasi (1619—1635/36- y. y.)



60- rasm. Samarqanddagi Tilla-Kori madrasasi.



61- rasm. Termiz hukmdorlari saroyidagi ganchga
o'yilgan tasvir (XII asr).



62- *rasm. Xivadagi Kalla-Minor. (XIX asr o'rtalari)*




63- *rasm.* Buxorodagi Chor Minor (1807- y.)




64- rasm. Xivadagi Tosh hovli (XIX asr).



65- *rasm.* Buxoroda topilgan misdan yasalgan qumg'on.



66- *rasm.* General Polovtsev uyining shift bezaklari
(XX asr boshlari)



67- rasm. Maqbaraga kirishdagi peshtoq bezaklari.



68- rasm. O'zbekiston Respublikasining gerbi.



69- rasm. Toshkent gerbi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *V.I. Avdeev. Sharq xalqlari tarixi.* T.: 1956.
2. *Э.И. Каменцева, Н. В. Устюгов. Русская сфрагистика и геральдика.* М.: Высшая школа 1963.
3. *Г.А. Пугаченко, Л. И. Ремнел. Изобразительное искусство Узбекистана.* М.: «Искусство», 1965.
4. *М.В. Доброколонский и А. П. Чубова. История и искусства зарубежных стран.* М.: «Изобразительное искусство», 1979.
5. *С.Г. Нессельштраус. История искусства зарубежных стран. Средние века, возрождение.* М.: «Изобразительное искусство», 1982.
6. *Azamat Ziyο. O'zbek davlatchiligi tarixi* T.: «Sharq», T. 2001.
7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8- jild. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. T., 2004.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9- jild. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. T., 2005.
9. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 5- jild. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. T., 2005.
10. «Temur tuzuklari» «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.T., 2005.
11. *Hakim Sattoriy. «Hazrat Sohibqiron» tarixiy esse. Safarnomalar. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.* T., 2005.
12. *Iso Jabborov «O'zbeklar: Turmush tarzi va madaniyati»* T., «O'qituvchi». 2003.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I bob. Tarixshunoslik

Tarixshunoslik predmetining maqsad va vazifalari.....	5
O'zbek davlatchiligi tarixining tashkil topishi.....	9

II bob. Manbashunoslik

Manbashunoslikning tarixshunoslikda tutgan o'rni.....	16
Manbalar.....	23

III bob. Shajara

Shajara haqida tushuncha.....	28
Shajarai Xorazmshohiy.....	29
Temur tuzuklari.....	34
Temuriylar sulolasining shajarasi (1370—1613- yillar)	38
O'zbek elining shajarasi.....	39

IV bob. Qadimgi davr geraldika san'ati

Qadimgi Misr geraldika san'ati.....	52
Yunon geraldika san'ati.....	54
Rim geraldika san'ati.....	56
Vizantiya geraldika san'ati.....	58

V bob. O'rta asrlar geraldika san'ati

V—VIII asrlarda Yevropa san'ati.....	60
Roman davri geraldikasi (XI—XII asrlarda).....	62
Gotika davri geraldikasi.....	64
Gollandiya va Germaniya geraldikasi.....	68

VI bob. Rus sfragistikasi va geraldikasi

Markazlashgan rus davlati davridagi muhrlar.....	71
Tarixga nazar.....	78
Sarmatlardan Bosporgacha.....	79
Qadimgi rusda gerblarning shakllanishi.....	82
Qadimgi rus knyazlarining nishonlari.....	85

VII bob. Muhr va gerblarning kelib chiqishi

Muhrlarning tashqi ko'rinishi.....	87
Nazariy geraldika.....	90

VIII bob. O'zbekistonning qadimgi davr geraldika san'ati

Tangalar.....	99
Tasviriy va amaliy san'atda geraldika.....	100
Temuriylar imperiyasi davri me'morchiligida geraldika.....	106
XVIII—XX asr boshlarida O'zbekistonda san'at va hunarmandchilik.....	110
O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi.....	113
Toshkent gerbi.....	114
Foydalanilgan adabiyotlar	180

**To'liqin Boltaboyevich Ahmedov,
Komiljon G'iyosovich Mavlyanov**

TARIXSHUNOSLIK, MANBASHUNOSLIK, SHAJARA VA GERALDIKA

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

*Muharrir Umida Rajabova
Badiiy muharrir Shuhrat Odilov
Texnik muharrir Yelena Tolochko
Musahhih Maxmuda Usmonova
Kompyuterda sahifalovchi Gulbayra Yeraliyeva*

Bosishga ruxsat etildi 10.12. 2007. Bichimi 60×90 $\frac{1}{16}$. TaymsUz garniturası. Bosma tabog'i 11,5. Nashr. b. t. 11,38. Shartnoma № 130—2007. 2000 nusxada. Buyurtma № 333.

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas'uliyati cheklangan jamiyat bosmaxonasida chop etildi. Toshkent, Radialniy tor ko'chasi, 10.

63.2

A98

Ahmedov T.B.

Tarixshunoslik, manbashunoslik, shajara va geraldika:
Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'll./T.B. Ahmedov,
K.G'. Mavlyanov; O'z. Res. Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. T.:
Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. –
184 b.

I. Mavlyanov K.G'.

XII–XVI ASRLARDAGI ROSSIYA SHAHAR GERBLARI



Tara



Turuxansk



Ust-Sisolsk



Ufa



Sarevokokshaysk



Cherdin



Shadrinsk



Shenkursk



Sergiyev Posad



***Cho'lon nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi***

ISBN 978-9943-05-141-6



9 789943 051416